

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ORIENTAL UNIVERSITETI

N.M. Quchqorova, X.M. Mamataliyeva

**TIL O‘QITISH
METODIKASI VA TA’LIM
TEXNOLOGIYALARI**

**60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun**

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2025

UO‘K: 372.881.111.1

KBK: 74.00

Q 96

Quchqorova N.M., Mamataliyeva X.M.

Til o‘qitish metodikasi va ta‘lim texnologiyalari [Matn]: o‘quv

q

o

‘ Mazkur o‘quv qo‘llanma 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Oliy ta‘lim ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha O‘quv uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2024-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma‘qullangan o‘quv dastur asosida tuzilgan bo‘lib, “Til o‘qitish metodikasi va ta‘lim texnologiyalari” fani mavzularini o‘rganish uchun mo‘ljallangan.

Filologiya va tillarni o‘qitish ta‘lim yo‘nalishi talabalari, umumta‘lim maktablaridagi chet tili o‘qituvchilari ta‘lim jarayonida samaradorlikka erishish uchun o‘quv qo‘llanmadagi ma‘lumotlardan ijodiy foydalanishlarini tavsiya qilamiz.

’

– **Muhalliflar:**

N.M.Quchqorova – “Uzluksiz ta‘lim pedagogikasi” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori

X.M.Mamataliyeva – “G‘arb tillari” kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar :

I.X.Iminaxunova – FJSTI “Tillar” kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

M.A.Rasulova – “G‘arb tillari” kafedrası v.b. dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug‘iga (№ 181298) asosan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-06-852-2

© Quchqorova N.M., Mamataliyeva X.M., 2025.

SO‘Z BOSHI

XXI asr – bu tezkor axborot, texnologik yutuqlar, ilm-fan ravnaqi va ko‘p tillilik asridir. Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy til bilish ko‘nikmasi nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki kasbiy va ijtimoiy faoliyatning ajralmas bo‘lagiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni chuqur o‘rganishga doir qaror va farmonlari zamirida ham aynan shu muhim haqiqat mujassam. Ayniqsa, ta‘lim tizimida chet tillarni zamonaviy metodlar asosida o‘rgatish – bugunning asosiy vazifalaridan biridir.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) ta‘lim yo‘nalishi “Til o‘qitish metodikasi va ta‘lim texnologiyalari” fanining 5-semestri uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida – umumta‘lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar ta‘limida xorijiy tilni o‘rgatishning zamonaviy yondashuvlarini qamrab oladi. O‘quv qo‘llanma 12 ta asosiy ma‘ruza mavzusi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir mavzu chuqur ilmiy-nazariy yondashuv, metodik tahlil, CEFR (Yevropa tillari umumiy me‘yoriy tizimi) talablari asosida shakllantirilgan.

O‘quv qo‘llanmaning o‘ziga xos jihatlaridan biri — unda:

- Chet til o‘qitishdagi klassik va zamonaviy metodlar uyg‘unligi;
- Har bir til ko‘nikmasi uchun individual texnologiyalar tahlili;
- Interaktiv, o‘yinli, grafik, vizual va kollaborativ yondashuvlar;
- CEFR mezonlari asosida kompetensiyalarni baholash tizimi;
- Nazorat savollari, glossariy;

kabi elementlar o‘z ifodasini topgan. O‘quv qo‘llanma Oriental universiteti talabalari, xorijiy til o‘qituvchilari, til o‘rganish metodikasiga ixtisoslashayotgan magistrlar, shuningdek, zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etmoqchi bo‘lgan mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Umid qilamizki, ushbu o‘quv qo‘llanma sizga nafaqat xorijiy tilni o‘rgatishda, balki o‘quvchilar bilan interaktiv, zamonaviy va motivatsion ta‘lim muhitini yaratishda yordam beradi.

I. Uzluksiz ta'lim tizimida (umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) chet til o'qitishning nazariy asoslari

Reja:

- 1. Uzluksiz ta'lim tizimi tushunchasi va mohiyati**
- 2. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi va islohotlar.**
- 3. Chet til o'qitishning nazariy yondashuvlari**
- 4. Umumta'lim maktablari, litsey va kollejlarda uchun til o'qitish metodikasi**

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta'lim, chet til, nazariy asos, Kommunikativ kompetensiya, ESP, CLIL, o'zlashtirish, metodik yondashuv, integratsiya, o'quvchi faoliyati

1. Uzluksiz ta'lim tizimi tushunchasi va mohiyati. Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishning ahamiyati ortibborishini inobatga olgan holda til o'rgatish jarayonlarining uzluksizligini taminlash . Xususan, uzluksiz ta'lim tizimi o'quvchilarga chet tillarini o'rganishni faqat bir bosqichda emas, balki butun ta'lim jarayonida davom ettirish imkonini yaratadi. O'zbekiston Respublikasida chet tillarini o'qitishning nazariy asoslari o'qitish metodikasini doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etadi. Aynan shu asosda, ta'lim bosqichlarida uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'quvchilarga bilimlarni bosqichma-bosqich, tizimli ravishda o'rgatishni ta'minlash muhimdir.

Uzluksiz ta'lim — bu ta'lim jarayonining doimiy va uzluksiz rivojlanishidir. Bu ta'lim modeli o'quvchilarga bilimlarni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishda davom ettirish imkoniyatini yaratadi, ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'z-o'zini mustahkamlashga undaydi. O'zbekistonda ta'limning uzluksizligi milliy ta'lim tizimining barcha bosqichlarida bilim olishni qamrab oladi. Bu o'zgarishlar o'quvchilarning bilim olish jarayoniga faol va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Uzluksiz ta'lim tizimi o'quvchilarga har bir ta'lim bosqichida yanada chuqurlashgan bilimlarni olish imkonini beradi. Umumta'lim maktablaridan boshlanadigan chet tili o'qitish dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bosqichlarida mustahkamlanadi. Uzluksiz ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga

kerakli bilimlarni tizimli ravishda yetkazish va ularni har bir bosqichda yanada murakkablashtirishdir. Bu yondashuvni qo‘llash orqali ta’lim jarayonida chuqur o‘rganish bilan birgalikda tizimli rivojlanishga erishiladi. Uzluksiz ta’lim — bu insonning hayoti davomida bilim olishiga xizmat qiluvchi, izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilgan ta’lim shaklidir. Bugungi kunda global integratsiya jarayonlari, texnologik taraqqiyot va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi chet tillarini o‘rganishni ta’limning barcha bosqichlarida zaruratga aylantirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5052-son qarorida ta’limning uzviyligini ta’minlash va chet tillarni o‘qitishni yanada kuchaytirish belgilab qo‘yilgan¹. Shu bilan birga, umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun chet til o‘qitishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, ta’lim sifatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Uzluksiz ta’lim — insonning butun hayoti davomida bilim olish, kasbiy malakasini oshirish, yangi ko‘nikmalarni egallash jarayonini izchil tashkil etadigan ta’lim tizimidir. Bu atama UNESCO tomonidan ham ilgari surilgan bo‘lib, ta’lim olish jarayoni bolalikdan boshlab, keksa yoshgacha davom etishi kerakligini ta’kidlaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ham uzluksiz ta’lim tizimini asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilagan.

Ushbu tizimda ta’lim izchilligi va uzviyligi asosiy tamoyil hisoblanadi. Ya’ni, maktabda olingan bilim akademik litseyda chuqurlashtiriladi, kollej bosqichida esa kasbiy yo‘nalishga yo‘naltiriladi. Ayniqsa, chet tillarni o‘rganishda bu izchillik muhim ahamiyat kasb etadi.

Chet tillarining uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rni quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

-Har bir bosqichda o‘quvchilarning yosh, intellektual darajasi va ehtiyojlariga mos metodikalar tanlanadi.

-Chet tili nafaqat lingvistik bilim sifatida, balki muloqot, madaniy kompetensiya va kasbiy faoliyat vositasi sifatida o‘rgatiladi.

-Zamonaviy texnologiyalar, interaktiv platformalar orqali ta’lim samaradorligi oshiriladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5052-son qarori, 2021-yil 6-aprel. <https://lex.uz/docs/5371825>

Shuningdek, uzluksiz ta'limda o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv dasturlarining uzviyligi, baholash tizimining mosligi kabi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. UNESCO ta'limning to'rt asosiy tamoyilini belgilab berdi:²

- Bilishni o'rganish (Learning to know)
- Ishlashni o'rganish (Learning to do)
- Birga yashashni o'rganish (Learning to live together)
- Bo'lishni o'rganish (Learning to be)

Bu tamoyillar bugungi global dunyoda uzluksiz ta'limning dolzarbligini ta'minlaydi. Har bir shaxsning shaxsiy rivojlanishi, kasbiy kompetensiyasini oshirishi va jamiyatda faol ishtirok etishida ular doimiy ta'limga ehtiyoj sezadi.

2. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi va islohotlar. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim tizimi isloh qilinib, uzluksizlik tamoyili ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi. 2020-yildan boshlab "Milliy ta'lim dasturi"³, 2021-yil 6-apreldagi PQ-5052-sonli qaror⁴, hamda "2021–2023-yillarda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar"⁵ kabi hujjatlar bu borada aniq vazifalarni belgilab berdi.

Mazkur hujjatlar:

1. Ta'lim bosqichlari uzviyligini ta'minlash
2. O'quv dasturlarining uyg'unligi
3. Til o'rganishda xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni shakllantirish
4. Maktab – litsey – kollej – oliy ta'lim zanjirini yagona metodologik asosga qurish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimi tubdan isloh qilinishi zarur bo'ldi. Bunda asosiy maqsad — jahon miqyosida raqobatbardosh, har tomonlama yetuk, zamonaviy

² UNESCO. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century chaired by Jacques Delors. Paris: UNESCO Publishing. 1996. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000109590>

³ "Milliy ta'lim dasturi" — O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2020-yildan boshlab amaliyotga joriy etilgan strategik hujjat.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5052-sonli qarori "Chet tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5371825>;

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2021–2023-yillarda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"

texnologiyalarni o‘zlashtirgan yosh kadrlarni tarbiyalash edi. Shu sababli, ta’limning uzluksizligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirildi.

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi quyidagi muhim huquqiy va strategik hujjatlarga asoslanadi:

I. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil, yangi tahriri) – barcha ta’lim bosqichlarining uzviyligi va davomiyligini kafolatlaydi. Ushbu qonun asosida maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’lim va undan keyingi bosqichlarga yagona tizim yaratilgan.⁶

II. “Yangi O‘zbekiston – Yangi Ta’lim” tamoyili – bu yondashuv ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishni maqsad qiladi.⁷

III. PQ–2909-sonli qaror (2017-yil) – xorijiy tillarni bosqichma-bosqich o‘qitish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

IV. PQ–5052-sonli qaror (2021-yil, 6-aprel) – 2021–2023 yillarda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishni tubdan isloh qilish dasturini qamrab olgan.

V. “Milliy rivojlanish strategiyasi – 2030” – har bir o‘quvchi va talabaga sifatli uzluksiz ta’lim xizmatlarini taqdim etish, o‘qituvchilar salohiyatini oshirishni belgilaydi.⁸

Uzluksiz ta’limning asosiy sharti — har bir bosqichning bir-biri bilan metodik va mazmuniy uyg‘unligidir. O‘zbekistonda quyidagi uzviy zanjir shakllantirilgan:

- 1) **Maktabgacha ta’lim → Umumiy o‘rta ta’lim (1–11-sinflar)**
- 2) **Umumiy o‘rta ta’lim → Akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji**
- 3) **Litsey/kollej → Oliy ta’lim → Magistratura/Doktorantura Kasbiy qayta tayyorlash**

Bu tizim orqali o‘quvchilar bosqichma-bosqich bilimlarini chuqurlashtirib, har bir keyingi bosqichga moslashadi. Masalan, chet

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri), 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637-son. <https://lex.uz/docs/5013007>

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy axborotlari asosida. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5841063>

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5841063>

tili o‘qitilishi boshlang‘ich bosqichda muloqotga yo‘naltirilgan bo‘lsa, yuqori bosqichlarda ESP, CLIL, TBLT kabi yondashuvlar asosida kasbiy va akademik kontekstga tayyor holatda o‘tadi. Ilg‘or xorijiy tajriba va milliy adaptatsiya jarayonida, so‘nggi yillarda o‘quv dasturlarining mazmuni CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) ga moslashtirilib, uzluksizlikni xalqaro me‘yorlarga bog‘lashga harakat qilinmoqda. Xususan:

- Boshlang‘ich sinflarda — **A1**
- O‘rta bosqichlarda — **A2–B1**
- Litsey va kollejda — **B2–C1** darajasigacha yetkazish

rejalashtirilgan

Bu bosqichlar orqali O‘zbekiston maktablari va kollejlari xalqaro IELTS, TOEFL, Cambridge Exams kabi testlarga tayyorlay oladigan tizimga o‘tmoqda.

Ushbu o‘quv jarayonlarining sifatiga albatta, o‘qituvchilar malakasini oshirishda uzluksizlikni taminlamasdan erishib bo‘lmaydi. O‘zbekistonda 2021-yildan buyon “Ustoz–shogird”, “Maktab murabbiylari”, “Hududiy o‘quv seminarlari” orqali o‘qituvchilarning uzluksiz rivoji ta‘minlanmoqda. Bu orqali har bir ta‘lim bosqichidagi o‘qituvchining zamonaviy metodikalarga tayangan, innovatsion, interaktiv darslar olib borishga qodir bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Shunday qilib, O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimi nafaqat ta‘lim bosqichlarining uzviyligini, balki til o‘rganishdagi evolyutsion yondashuvni, metodikadagi yangilanishni va o‘qituvchilarning doimiy o‘sishini ham ta‘minlab bermoqda.

3. Chet tilini o‘qitishning nazariy asoslari

Chet tillarini o‘qitish – bu nafaqat tilni o‘rgatish, balki o‘quvchilarning nutqiy, madaniy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish jarayonidir. Bugungi globallashtirish va axborot asrida xorijiy til bilimlari har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli chet tilini o‘qitishning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitish zarur. Chet tilini o‘rganishning tarixiy-metodik evolyutsiyasiga nazar solsak, til o‘qitish metodikasi asrlar davomida turli bosqichlardan o‘tgan:

- **Grammatika–tarjima metodi** (XIX asr): nazariy bilimga urg‘u berilgan, nutqiy faoliyat sust.⁹

- **To‘g‘ridan-to‘g‘ri metod (Direct method)**: og‘zaki nutqni birinchi o‘ringa qo‘ygan, ona tili ishlatilmaydi.

- **Audio-lingval metod**: 1950–60-yillarda AQShda shakllangan; takroriy mashqlar, drilling asosida.

- **Kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT)**: 1970-yillardan buyon faol qo‘llaniladi; tilni muloqot vositasi sifatida o‘rgatishga asoslanadi.

- **Task-based learning, Content-based instruction, ESP (English for Specific Purposes)** – zamonaviy talablar asosida yuzaga kelgan yo‘nalishlar.

Chet tilini o‘rgatishda quyidagi nazariy yondashuvlar asos qilib olinadi:

Yondashuv turi	Tavsifi
Lingvistik yondashuv	Tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlarini o‘rgatish
Psixolingvistik yondashuv	Til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik, tilni idrok qilish va ishlab chiqish mexanizmlari
Sotsiolingvistik yondashuv	Til va jamiyat, ijtimoiy kontekstda tilni ishlatish madaniyati
Kognitiv yondashuv	Tilni o‘rganishda tafakkur, xotira, diqqat jarayonlarini hisobga olish
Aksiologik yondashuv	Til orqali qadriyatlar, madaniyatlararo muloqotni shakllantirish

Chet tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar turlicha bo‘lishi tabiiy. Shu bilan birga, Kommunikativ metod asosan o‘quvchilarni kundalik hayotda tilni samarali qo‘llashga yo‘naltiradi. Bu metodda til o‘rganish faqat grammatik qoidalar va lug‘atlarni o‘rganish bilan cheklanmaydi, balki real vaziyatlarda muloqot qilishga yo‘naltiriladi. Ushbu yondashuvda, o‘quvchi tilni nafaqat so‘zlashuvda, balki tinglash, o‘qish va yozish kabi faoliyatlarda ham qo‘llay olishi kerak. Bu yondashuv asosida o‘quvchilarga tilda o‘zaro muloqot qilish

⁹ Richards, J. C., Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge University Press. 2001. pp 3–7.

ko'nikmalarini rivojlantirish, texnik, kasbiy va ijtimoiy mavzularda fikr almashish imkoniyati vujudga keladi.

4. Umumta'lim maktablari, litsey va kollejlari uchun til o'qitish metodikasi.

Umumta'lim maktablarida chet til o'qitish. Boshlang'ich bosqichda asosiy maqsad — o'quvchilarda chet tilga qiziqish uyg'otish, eshitish va gapirish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Ushbu bosqichda asosan kommunikativ yondashuv asosida darslar olib boriladi. Dastlabki yillarda ingliz tili o'yinlar, vizual materiallar, rasmlar, hikoyalar orqali o'rgatiladi.

O'rta va yuqori sinflarda esa grammatik bilimlar chuqurlashtirilib, yozish, o'qish va muloqotga tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi. CLT (Communicative Language Teaching) — kommunikativ til o'rgatish metodikasi asos qilib olinadi. Ta'lim jarayonida do'stona muhit yaratilib, o'quvchilar o'z fikr tushunchalarini bayon qilishlari uchun muloqot uslublari yoshlarga hos mavzu va topshiriqlar bilan boyitiladi.

Akademik litseylar bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarda akademik bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yondashuv qo'llaniladi. CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) mezonlariga asoslangan darslar yo'lga qo'yiladi. Avvalo, til kompetensiyalari har bir dars soatida to'liq qamrab olinishiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, eshitganini tushunishi va o'z fikrini bayon qilishi muhim hisoblanib, darslar, mashg'ulotlar davomida mustahkamlanib borilishi nazorat qilinadi. Litsey bosqichida ingliz tilidan insho yozish, prezentatsiya tayyorlash, ilmiy maqolalarni tahlil qilish kabi ko'nikmalar ham rivojlantiriladi.

Kasb-hunar kollejlari bosqichi. Bu bosqichda ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi asosida kasbiy ehtiyojlarga moslab chet tillari o'rgatiladi. Masalan, texnik mutaxassislar uchun texnik ingliz tili, tibbiyot yo'nalishi uchun — medikal ingliz tili o'rgatiladi.

ESP metodikasi bilan til o'rganish real hayotdagi kasbiy vazifalarni hal qilishga tayyorlaydi. Bu bosqichda til o'rgatish amaliyotga yaqinlashtiriladi: dialoglar, kasbiy matnlar, terminologiyalar,

simulyatsiyalar dars jarayonlarining asosiy qismi sifatida e'tirof etiladi.¹⁰

Umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitish asosan kommunikativ yondashuvga asoslanadi. Bu yondashuv o'q uvchilarning umumiy til ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bosqichida esa chet tilini o'qitish, ayniqsa, ESP (English for Specific Purposes) metodologiyasi asosida amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarga kasbiy muloqotga asoslangan bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Chet tilini o'rganish jarayonida kommunikativ yondashuv o'quvchilarning samarali til o'rganishiga katta ta'sir ko'rsatadi. ESP (English for Specific Purposes – Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) metodikasi zamonaviy til o'rgatish nazariyalarining amaliy yo'naltirilgan va maqsadga yo'naltirilgan shakli hisoblanadi. Ushbu metodika o'rganilayotgan tilni **konkret kasbiy kontekstga** moslashtirish orqali o'quvchilarni real hayotdagi mehnat, fan, texnologiya, sog'liqni saqlash, muhandislik, huquq, iqtisod, tibbiyot kabi sohalarda yanada samaraliroq muloqot qilishga tayyorlashga xizmat qiladi. *ESP metodikasining asosiy xususiyatlari.* ESP metodikasi umumiy ingliz tilidan (General English) farqli o'laroq, quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

-O'quvchining ehtiyojiga asoslanganlik (needs-based approach) dars mazmuni talabaning kasbiy yo'nalishi, kelajakdagi mehnat faoliyati yoki o'qish ehtiyojlariga mos shakllantiriladi.

-Kontekstga asoslangan o'qitish (contextualization) til muayyan kasbiy holatlar, hujjatlar, terminlar, matnlar va amaliy vazifalar asosida o'rgatiladi.

-Autentik materiallardan foydalanish; o'quvchilar kasbiy maqolalar, yo'riqnomalar, texnik hujjatlar, ishchi instruktsiyalar, suhbat senariylari bilan ishlaydi.

- Kasbiy kompetensiyani shakllantirish; til faqat o'zlashtirish vositasi emas, balki kasbiy kommunikatsiyaning quroli sifatida ishlatiladi.¹¹

¹⁰ Hutchinson T., & Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge: Cambridge University Press. 1987. pp. 6–10.

¹¹ Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge: Cambridge University Press. 1998. pp. 20–21.

ESP metodikasi o'rganilayotgan tilni kasbiy kontekstga moslashtiradi va o'quvchilarni hayotiy vaziyatdagi masalalarni hal qilishga tayyorlaydi. Bu yondashuv talabalarning ehtiyojlariga asoslangan, kommunikativ hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirilgan metodik tizim hisoblanadi.¹²

Integratsiya va uzviylik. Ta'lim bosqichlari orasida uzviylik va integratsiya ta'lim sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Spiral metodika bilimlar har safar yanada chuqurlashtiriladi va takrorlanadi. Masalan, umumta'lim maktabida boshlang'ich chet tili o'qitilishi o'quvchilarga asosiy grammatik qoidalar va so'z boyligini o'rganishga imkon beradi, akademik litseyda esa bu bilimlar yanada chuqurlashtiriladi va kasbiy sohalarida qo'llaniladi. Shunday qilib, har bir bosqichda til o'rganishning o'ziga xos maqsadlari va yondashuvlari mavjud.

Uzluksiz ta'lim tizimida chet tilini o'qitishning nazariy asoslari o'quvchilarga bilimlarni bosqichma-bosqich, izchil va samarali o'rgatishni ta'minlaydi. Shuningdek, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi integratsiya va uzviylik, o'quvchilarning bilimlarini to'g'ri va muvaffaqiyatli rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv va ESP metodologiyasi o'quvchilarga haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari va xalqaro tajribalar bu sohada samarali natijalar ko'rsatmoqda.

Nazorat savollari

1. Uzluksiz ta'lim tizimi deganda nimani tushunasiz? Uning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi qanday hujjatlar asosida rivojlanmoqda? Kamida ikki muhim hujjatni nomlang.
3. Chet tilini o'qitishning tarixiy-metodik bosqichlarini sanab o'ting. Har bir metodning asosiy xususiyatlarini ayting.
4. Lingvistik, psixolingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar o'rtasidagi farq nimalardan iborat? Misollar bilan tushuntiring.

¹² Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge: Cambridge University Press. 1987.

5. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bosqichida chet tilini o‘qitish qanday metodlar asosida olib boriladi?
6. Uzlüksiz ta’lim tizimi tushunchasi va mohiyati
7. O‘zbekistonda uzlüksiz ta’lim tizimi va islohotlar.
8. Chet til o‘qitishning nazariy yondashuvlari
9. Umumta’lim maktablari, litsey va kollejlarda uchun til o‘qitish metodikasi
10. Lingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar o‘rtasidagi farq nimalardan iborat? Misollar bilan tushuntiring.

II. Uzlüksiz ta’lim tizimida chet tillarni o‘qitish vositalari va mashqlar tizimi

Reja:

- 1. O‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda vositalar va mashqlar tizimining o‘rni.**
- 2. Chet tillarini o‘qitishda audiovizual vositalar, onlayn platformalar va mobil ilovalar.**
- 3. Chet tillarini o‘qitish mashqlari tizimi kommunikativ mashqlar o‘quvchilarni baholash va tekshirish mashqlari**
- 4. Kollaborativ mashqlar, jamoaviy ishlashning afzalliklari**

Tayanch So‘zlar: Audiovizual vositalar, mobil ilovalar, elektron darsliklar, grammatik mashqlar, leksik mashqlar, kommunikativ mashqlar, kollaborativ mashqlar, onlayn platformalar.

1. O‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda vositalar va mashqlar tizimining o‘rni. Uzlüksiz ta’lim tizimi chet tili o‘qitish jarayonini faqatgina bir nechta sinflarda o‘rganish emas, balki butun ta’lim bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Chet tili o‘qitishda muhim jihat, til o‘rgatishning qadam-baqadam davom etadigan tizimini yaratishdir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish jarayonni yanada samarali qiladi. Bugungi kunda o‘qitish jarayonida vositalar va mashqlar tizimi o‘quvchilarning o‘rganish motivatsiyasini oshiradi, til ko‘nikmalarini rivojlantiradi va umumiy muloqotga tayyorlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, **Vygotskiy**, **Krashen**, va **Wilkins** kabi mashhur olimlar chet tilini o'qitishda metodlar va vositalarning ahamiyatini keng yoritgan. Vygotskiyning **ijtimoiy o'rganish nazariyasi** (Social Interactionist Theory) bu sohada alohida o'rin tutadi, chunki uning fikricha, til o'rganish jarayoni ijtimoiy muloqotda rivojlanadi va o'quvchilar o'zlarining ijtimoiy muhitidan o'rganadilar. Krashen esa **natural acquisition** va **conscious learning** tamoyillarini ilgari suradi, bu esa chet tili o'rganishda tabiiy va ongli jarayonlarni o'rgatishga yordam beradi.

Shu bilan birga, Chet tilini o'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirralidir, shuning uchun o'qituvchilar va ta'lim muassasalari samarali o'qitish metodlari va vositalarini saralashda diqqatli bo'lishlari zarur. Chet tili o'qitishda samarali vositalardan foydalanish nafaqat til o'rganish jarayonini soddalashtiradi, balki o'quvchilarning til ko'nikmalarini kengaytirish va mustahkamlashga yordam beradi. Audiovizual materiallar, onlayn platformalar, mobil ilovalar, interaktiv texnologiyalar va boshqa pedagogik vositalar yordamida o'quvchilar o'zining til bilimlarini rivojlantiradilar va real hayotdagi vaziyatlarga moslashtiradilar. Bu vositalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o'rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi.

Bundan tashqari, Vygotskiyning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga asosan, til o'rganish jarayonida guruhda ishlash, bir-biriga yordam berish va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot katta ahamiyatga ega.¹³ Interaktiv vositalar va onlayn platformalar bu jarayonni yanada mustahkamlaydi, chunki ular o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlashga, o'rganilgan bilimlarni real hayotga tatbiq etishga undaydi.

Vygotskiyning o'rganish jarayonida tilni faol ishlatish va ijtimoiy interaksiya orqali o'rganishni ilgari surganligi, interaktiv texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'zlarini til o'rganish jarayonida yanada faol ishtirok etishlariga imkon yaratadi. Onlayn platformalar va mobil ilovalar o'quvchilarni doimiy ravishda tilga oid mashqlar va testlar orqali mustahkamlashga yordam beradi. Bunday vositalar o'quvchilarga o'rganishning yangi shakllarini kashf etishga va o'z o'rganish sur'atini boshqarishga imkon beradi.

¹³ Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. 1978.

Wilkinsning notional-functional syllabus (mazmunliy-funksional dastur) nazariyasi ham chet tilini o'rganishda amaliyotga asoslangan yondoshuvni qo'llashni ta'kidlaydi. Mobil ilovalar va onlayn platformalar yordamida o'quvchilar nafaqat grammatikani o'rganadilar, balki ularni turli vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar. Bu esa o'quvchilarning tilni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Chet tilini o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar va vositalar o'quvchilarga tilni o'rganishda erkinlik va qulaylik yaratadi. O'quvchilar uchun onlayn darslar va mobil ilovalar yordamida o'rganish, vaqt va joy cheklovlaridan qat'i nazar, doimiy ravishda tilni o'rganish imkonini beradi. Bu vositalar orqali o'quvchilar nafaqat grammatikani va lug'atni, balki o'rganilayotgan tilni ijtimoiy, madaniy va professional kontekstda qo'llashni ham o'rganadilar.

Bundan tashqari, o'quvchilarni real hayotdagi vaziyatlarda tilni qo'llashga o'rgatish maqsadida o'qituvchilar **ESP** (English for Specific Purposes) metodologiyasiga asoslangan darslarni olib borishlari mumkin. Bu metodologiya o'quvchilarga ko'p sohalarda tilni amaliyotda qo'llashni o'rgatadi, masalan, biznes, ilmiy izlanishlar yoki kasbiy sohalar bunga misoldir.

2.Chet tillarini o'qitishda audiovizual vositalar, onlayn platformalar va mobil ilovalar.

Audiovizual vositalar — chet tilini o'rgatishda eng samarali vositalardan biridir. Ular orqali o'quvchilar nafaqat yozma, balki og'zaki nutqni ham o'rganadilar. **Videolar, kino va teleseriallar, audio kitoblar va podkastlar** o'quvchilarga tilni tabiiy muhitda tushunishga va foydalanishga yordam beradi. O'quvchilar audiovizual materiallar yordamida grammatikani o'rganishdan tashqari, so'zlarni talaffuz qilish, tilning muhitga moslashishi, shuningdek, madaniy kontekstda qanday ishlatilishini ham o'rganadilar.

Krashen o'zining Input Hypothesis (kiritish gipotezasi) nazariyasida, o'rganish jarayonida to'g'ri va sifatli inputning ahamiyatini ta'kidlagan. Krashenning fikriga ko'ra, audiovizual materiallar o'quvchilarga tilni erkin va tabiiy ravishda o'zlashtirishda yordam beradi, chunki ular turli xil madaniy va ijtimoiy vaziyatlarda tilni qanday ishlatilishini ko'rishadi. **Podkastlar va video darsliklar**

yordamida o'quvchilarga tilni turli shakllarda eshitish va eshitilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Onlayn Platformalar. Onlayn ta'lim platformalari chet tili o'qitish jarayonida yangi imkoniyatlar yaratadi. **Duolingo, Memrise, Babel, Lingvist, Busuu** kabi onlayn platformalar o'quvchilarga interaktiv darslar va mashqlarni bajarish keng imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu platformalarda o'quvchilar tilni o'rganishda o'z-o'zini tekshirish, o'rganish sur'atini boshqarish, va o'zlarining muvaffaqiyatlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Onlayn platformalarda interaktiv mashqlar, testlar va leksik mashqlar yordamida o'quvchilar o'zlarining til ko'nikmalarini mustahkamlashadi.

Onlayn platformalar orqali o'quvchilarga o'z vaqtida va istalgan joyda o'rganish imkoniyati yaratilib, ular mustaqil ravishda tilni o'rganishga va o'zlashtirishga erishadilar. Vygotskiyning ijtimoiy o'rganish nazariyasi (Social Interactionist Theory) asosida, onlayn platformalar orqali o'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashib, o'rganish jarayonini yanada samarali qilishlari mumkin. Onlayn kommunikatsiya va tarmoq orqali o'quvchilar o'zaro yordam ko'rsatish va muammolarni hal qilish orqali o'rganish jarayonini yanada chuqurlashtiradilar.

Mobil Ilovalar. Mobil ilovalar yordamida chet tilini o'rganish jarayoni yanada interaktiv va qiziqarli bo'ladi. **Duolingo, Babel, Memrise** kabi mobil ilovalar yordamida o'quvchilar o'z vaqtida va istalgan joyda tilni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ilovalar o'quvchilarga turli interaktiv mashqlar, to'g'ri va noto'g'ri javoblar asosida tizimli mashg'ulotlar o'tkazish imkonini beradi. Mobil ilovalar o'quvchilarga so'z boyligini kengaytirish, grammatik qoidalarni o'rganish va talaffuzni yaxshilashda yordam beradi. Wilkinsning notional-functional syllabus (mazmuniy-funksional dastur)ga asoslanib, mobil ilovalar yordamida o'rganuvchilar tilni faqat grammatik jihatdan emas, balki haqiqiy vaziyatlarda foydalanish uchun ham o'rganadilar.¹⁴ Bunday ilovalar tilning amaliy tomonini o'rgatadi, va o'quvchilarga tilni turli kontekstlarda qanday qo'llashni o'rgatadi. Masalan, **Babel** ilovasi o'quvchilarga kichik vaziyatlarni, kundalik

¹⁴ Wilkins D.A. Notional Syllabuses: A Taxonomy and its Relevance to Foreign Language Curriculum Development. Oxford: Oxford University Press. 1976.

suhbatlarni va kasbiy sohalar uchun zarur bo'lgan so'zlarni o'rgatishga yordam beradi. Bugungi kunda, internet va mobil ilovalar Kundan kun ko'payin o'rganuvchilar uchun juda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

3.Chet tillarini o'qitish mashqlari tizimi kommunikativ mashqlar o'quvchilarni baholash va tekshirish mashqlari

Kommunikativ mashqlar — bu til o'rganishda o'quvchilarning haqiqiy muloqot qobiliyatini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlardir. Ular o'quvchilarni so'zlashuv, tinglab tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalarini amalda qo'llashga rag'batlantiradi. Maqsad esa, o'quvchilarning tilni real hayotiy vaziyatlarda erkin va samarali ishlatish qobiliyatini shakllantirish. Masalan, suhbatlashish, rol o'ynash, muammoni hal qilish, guruh muhokamalari, savol-javob o'yinlari va boshqalar.

Baholash va tekshirish mashqlari. Baholash mashqlari o'quvchilarning o'rganilgan til ko'nikmalarini aniqlash, darajasini tekshirish va o'quv jarayonining samaradorligini o'lchash uchun mo'ljallangan. Baholash quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

Formativ baholash — o'qish jarayonida oraliq nazorat va tuzatishlar kiritish uchun.

Summativ baholash — mavzu yoki kurs yakunida umumiy natijani aniqlash uchun.

Kommunikativ mashqlar va baholash mashqlari o'zaro bog'liq. Kommunikativ mashqlar o'quvchilarning tilni amalda qo'llash qobiliyatini baholashning samarali vositasi hisoblanadi. Misol uchun, rol o'ynash mashqi o'quvchining nutq madaniyatini va muloqot qobiliyatini baholash imkonini beradi.

Natijalarni ko'rsatish: Baholash mashqlari o'quvchilarning kommunikativ mashqlarda erishgan yutuqlarini aniqlash va shu asosda o'quv jarayonini qayta ko'rib chiqishga yordam beradi.

Moslashuvchanlik: Baholash mashqlari o'quvchilarning individual ehtiyojlari va darajalariga moslashtirilgan bo'lishi kerak, bu esa o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Amaliy misollar:

Mashq turi	Baholash shakli	Maqsad
Suhbatlashish (dialog)	So‘zlashuvni baholash (oral test)	Tilni real muloqotda qo‘llash
Rol o‘ynash	Nutq madaniyati va grammatik to‘g‘rilik	Nutq qobiliyatlarini sinash
Matn asosida muhokama	Matn tushunishni testlash (yazma va og‘zaki)	Tushunish va fikr bildirish
Ma‘lumot almashish (information gap)	Savollarga javob berish	E‘tibor, tinglab tushunish

Kommunikativ mashqlar o‘quvchilarning tilni samarali o‘rganishida markaziy o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ular o‘quvchilarning yutuqlarini baholash va tekshirishda ham muhim vosita hisoblanadi. O‘qituvchilar mashqlarni baholash tizimi bilan uyg‘unlashtirish orqali ta‘lim jarayonini yanada samarali tashkil qilishi mumkin.

Interaktiv ta‘lim texnologiyalari. Bugungi kunda interaktiv ta‘lim texnologiyalari o‘quvchilarning chet tili o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Elektron doskalar, ta‘lim video materiallari, onlayn testlar va ta‘lim simulatsiyalari orqali o‘quvchilar yangi materialni o‘rganishda faol ishtirok etadilar. Elektron doskalar orqali o‘qituvchi darslarni yanada interaktiv tarzda o‘tkazadi va o‘quvchilarni o‘zlari faol ishtirok etishga undaydi. Shuningdek, onlayn testlar va mashqlar o‘quvchilarga o‘zlashtirish darajasini tekshirish imkonini beradi.

Interactive whiteboards (interaktiv doska) yordamida o‘quvchilar o‘zlarining bilimlarini tekshirish, darsda ishtirok etish, yangi materiallarni osongina o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarga darsning interaktiv va samarali bo‘lishini ta‘minlashda yordam beradi. **Mobile Learning** (mobil o‘rganish) va **blended learning** (aralash o‘rganish) kabi metodlar yordamida o‘quvchilar darsga kirishishdan oldin yoki undan keyin, istalgan joyda va vaqtda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Audiokitoblar va o‘qish materiallari. Audiokitoblar, e-kitoblar va onlayn maqolalar o‘quvchilarga o‘quv jarayonini yanada boyitishga yordam beradi. Bu vositalar orqali o‘quvchilar yozma va og‘zaki tilni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Audiokitoblar yordamida o‘quvchilar nafaqat tilni o‘rganadilar, balki talaffuzni eshitib, to‘g‘ri talaffuzni o‘rganishadi.

4. Kollaborativ mashqlar, jamoaviy ishlashning afzalliklari.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida samaradorlikka erishish uchun an‘anaviy yondashuvlardan ko‘ra innovatsion va interfaol metodlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, XXI asr ta‘lim paradigmasi bilim olish jarayonida talabalarning faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va mustaqil ta‘lim olishni rivojlantirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, kollaborativ ta‘lim modeli pedagogika sohasida muhim innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda.

"Kollaboratsiya" so‘zi lotincha "collaborare" (birgalikda ishlash) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ilk bor ilmiy pedagogik adabiyotlarda XX asrning o‘rtalarida qo‘llanila boshlangan. Bu tushuncha dastlab sotsiologiya va psixologiya fanlari doirasida o‘rganilgan bo‘lib, keyinchalik ta‘lim sohasiga tadbiiq etilgan. Kollaborativ ta‘limning mohiyati ingliz tili o‘rganuvchilarning jamoaviy ishlash orqali bilim olishlarini rag‘batlantirishdan iborat bo‘lib, bu usul Vygotsky¹⁵ tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv talabalar o‘z tengdoshlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish va birdamlik orqali yanada samarali bilim olishlarini nazarda tutadi. Ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish jarayonida ushbu metodologiya juda katta ahamiyat kasb etadi, chunki talabalar real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kollaborativ mashqlar o‘quvchilarning tilni o‘rganishda faolligini oshiradi. O‘quvchilar birgalikda ishlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar va o‘qituvchidan mustaqil ravishda muammolarni hal qilishni o‘rganadilar. **Vygotskiyning "Proximal Development Zone" (PDZ)** konsepsiyasiga asoslanib, o‘quvchilarga jamoaviy ishlash orqali bir-biridan o‘rganish imkoniyati yaratish muhimdir. Vygotskiyga ko‘ra, o‘quvchilarga o‘zlarining bilimlarini boshqa o‘quvchilar bilan

¹⁵ Vygotsky L. S., Michael Cole. Harvard University Press. 1978. p.159

almashish, bir-biriga yordam berish orqali, til o'rganish jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Kollaborativ mashqlar **role play**, **debate**, va **jigsaw** kabi mashqlarni o'z ichiga oladi. **Jigsaw** mashqi o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, har bir guruhga bir-biriga bog'liq bo'lgan vazifalarni taqdim etadi, va guruhlar o'z o'rganilgan materiallarini boshqa guruhlariga taqdim etadi. Bu tarzda o'quvchilar bir-birlariga yordam berish, fikr almashish va tilni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. **Think-pair-share** va **team presentations** kabi metodlar o'quvchilarni mustaqil o'ylash va jamoaviy ishlashga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'rgatish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va ta'limga oid elektron vositalardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, balki o'rganish jarayonini samarali va interaktiv qiladi. Bu vositalar orqali o'quvchilar tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday qo'llashni o'rganadilar. O'qituvchilar bu vositalarni samarali qo'llab, o'quvchilarning til o'rganish motivatsiyasini oshirishi, o'rganish jarayonini soddalashtirishi va til ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam bera oladilar.

Nazorat savollar:

1. Chet tilini o'rganishda mobil ilovalarning foydasi nimada ?
2. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, til o'rganishda qanday element eng muhim hisoblanadi ?
3. Onlayn platformalar va mobil ilovalarning til o'rganishdagi foydalari ?
4. Chet tili o'rgatishda audiovizual materiallarning asosiy afzalligi nima?
5. O'quvchilarni real hayotdagi vaziyatlarda tilni qo'llashga o'rgatishning samarali usuli qaysi?
6. O'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda vositalar va mashqlar tizimining o'rni.
7. Chet tillarini o'qitishda audiovizual vositalar, onlayn platformalar va mobil ilovalar.
8. Chet tillarini o'qitish mashqlari tizimi kommunikativ mashqlar o'quvchilarni baholash va tekshirish mashqlari

9. Kollaborativ mashqlar, jamoaviy ishlashning afzalliklari

III. Chet tillarini o‘qitish: yondashuvlar, texnologiyalar, metod va usullar

Reja:

1. Chet tillarini o‘qitishga yondashuvlar: nazariy asoslar va turlari

2. O‘qitish texnologiyalari: an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar

3. Chet tilini o‘rgatishda metod va usullarning tahlili

4. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasida qo‘llanilayotgan ilg‘or yondashuvlar

5. Yangi texnologiyalar asosida o‘qitish samaradorligi

Tayanch so‘zlar: kommunikativ metod, axborot texnologiyalari, integratsiya, immersiya usuli, interaktiv o‘qitish, mustaqil o‘rganish, pedagogik innovatsiyalar, motivatsiya, hamkorlikda o‘rganish

1. Chet tillarini o‘qitishga yondashuvlar: nazariy asoslar va turlari.

XXI asrda chet tillarini o‘qitish masalasi global miqyosda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, xorijiy til — bu nafaqat aloqa vositasi, balki zamonaviy bilimlarga, fan-texnika yutuqlariga, madaniyatlararo muloqotga kirishning muhim kalitidir. Shu sababli til o‘qitish metodologiyasi, yondashuvlar, texnologiyalar va usullar masalasi har qachongidan ham dolzarbdir. *Yondashuv* — *asos, metod* — *vosita* nuqtai nazariga e’tibor qaratamiz. Pedagogik metodologiyada “yondashuv” tushunchasi — o‘qitish jarayoniga bo‘lgan umumiy, nazariy qarashlar tizimini anglatadi. Amerikalik olim B. Richards¹⁶ ta’kidlashicha: *"Yondashuv — bu o‘qituvchining tilga, uni o‘rganish jarayoniga va o‘quvchining til o‘zlashtirishiga bo‘lgan falsafiy qarashidir."*

O‘zbekistonlik metodist A. Yoqubovning fikricha, yondashuv — bu o‘quvchilarning tilni qanday o‘zlashtirishi, o‘qituvchining uni

¹⁶ Richards J.C., Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press. 2001

qanday taqdim etishi haqidagi umumiy ilmiy konsepsiya bo‘lib, u konkret metod va usullarni tanlashga yo‘l ochadi.¹⁷

Yondashuvlarning rivojlanishiga tarixiy nigoh. Chet tillarini o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlar tarixiy jarayon davomida takomillashib borgan. Tarjimaviy yondashuv, audiolingvistik model, keyinchalik kommunikativ va interaktiv konsepsiyalar pedagogik tafakkurning taraqqiyoti natijasidir.

Rossiyalik olim E.I. Passov o‘zining “Kommunikativ o‘qitishning nazariy asoslari” asarida deydi:

*"Tilni o‘rganish — bu, avvalo, muloqotga tayyorgarlikdir. Shuning uchun o‘rgatish modeli real hayotdagi muloqotga maksimal darajada yaqin bo‘lishi kerak."*¹⁸

Yevropada keng tarqalgan CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi haqida yevropalik tadqiqotchi Do Coyle: *"CLIL orqali til boshqa fanlar kontekstida o‘zlashtiriladi, bu esa bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish va tilni real kontekstda qo‘llash imkonini beradi"*, — deya ta’kidlaydi.¹⁹

Zamonaviy texnologiyalar ta’siri. Yangi texnologiyalar — sun’iy intellekt, AR/VR, mobil ilovalar, platformalar — chet tilini o‘qitishda inqilobiy o‘zgarishlarni boshlab berdi. O‘qitish nafaqat sinfda, balki har qanday joyda, istalgan vaqtda, multimediyaga orqali amalga oshiriladigan ko‘pkanalli jarayonga aylangan.

Amerikalik professor Stephen Bax o‘z tadqiqotlarida quyidagicha qayd etadi:

*"Zamonaviy til o‘qitish texnologiyalari o‘qituvchini emas, o‘quvchini o‘quv markaziga qo‘yadi. O‘quvchi o‘z yo‘nalishiga mos tarzda, mustaqil va moslashuvchan o‘rganishga qodir bo‘ladi."*²⁰

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2021-yil 19-mayda imzolangan PQ–5117-sonli qarorda ham chet tillarini uzluksiz o‘qitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu hujjat til o‘qitishning

¹⁷ Yoqubov A. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi. 2020y

¹⁸ Пассов Е.И. Коммуникативное обучение иностранному языку: лингводидактические и методические основы. — М.: Просвещение, 1991.

¹⁹ Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press. 2010y

²⁰ Bax S. CALL—Past, Present and Future. System, 31(1); 2003. pp13–28.

doi:10.1016/S0346-251X(02)00071-4

barcha bosqichlarida (maktab, litsey, kollej, oliy ta'lim) yagona yondashuv asosida olib borilishini ko'zda tutadi.

2. O'qitish texnologiyalari: an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar.

An'anaviy yondashuv tarixan eng qadimgi va uzoq yillar davomida amalda bo'lgan o'qitish modeli hisoblanadi. Bu yondashuvlarda asosiy e'tibor grammatik qoidalarni o'rgatish, tarjima qilish, lug'at yodlash kabi mashqlarga qaratiladi. Darslar asosan o'qituvchi markazida kechib, o'quvchilar passiv qabul qiluvchilarga aylanishadi. Amerikalik metodist R. Palmer bu yondashuvni "teacher-centered" (o'qituvchi markazli) deb ta'riflaydi. Bu modelda asosiy o'rganiladigan material — til tizimi, ya'ni grammatik tuzilmalar, leksik birliklar bo'lib, ularning muloqotdagi amaliy qo'llanishi ikkinchi planga tushadi.²¹

Kommunikativ yondashuv mohiyati. XX asrning 70-yillaridan boshlab dunyo miqyosida "kommunikativ yondashuv" paydo bo'lib, tilni real muloqot vositasi sifatida o'rgatish g'oyasi bilan ajralib turadi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchining til bilimini emas, balki **til kompetensiyasini**, ya'ni amalda ishlatish ko'nikmasini shakllantirish ustuvor hisoblanadi. Kommunikativ yondashuvni ishlab chiqqan ingliz metodistlari D. Hymes, M. Halliday va Dell Hymes'lar ta'kidlashicha:

*"Til — bu tizim emas, balki ijtimoiy faoliyat. O'quvchi tilda fikr bildiradi olish, savol bera olish, tushunishga harakat qilish ko'nikmasini egallashi kerak."*²²

Shuningdek, kommunikativ yondashuv o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, chunki ular o'rgangan tilning hayotiy ahamiyatini amalda ko'ra boshlaydi. Darslar mazmunli, interaktiv va o'quvchini fikrlashga majbur qiladigan tarzda tashkil etilganda, o'quvchi tilda muloqot qila olishga nisbatan ishonch hosil qiladi. Natijada, kommunikativ yondashuv nafaqat til o'rgatish metodikasi, balki o'quvchini mustaqil fikrlovchi, faol, ijtimoiy moslashgan shaxs sifatida shakllantirishning samarali vositasiga aylanadi.

²¹ Palmer R. The Courage to Teach: Exploring the Inner Landscape of a Teacher's Life. Jossey-Bass Publishers. 1998.

²² Hymes D. On Communicative Competence. In J. B. Pride., J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected Readings. Harmondsworth: Penguin. 1972. pp. 269–293

Yondashuvlarning qiyosiy tahlili (jadval shaklida)

Ko'rsatkich	An'anaviy yondashuv	Kommunikativ yondashuv
<i>Maqsad</i>	Til tizimini o'rgatish	Muloqotga tayyorlash
<i>O'qituvchi roli</i>	Markaziy shaxs, biluvchi	Yo'naltiruvchi, hamkor
<i>O'quvchi roli</i>	Passiv tinglovchi	Faol ishtirokchi
<i>Metodlar</i>	Tarjima, yozma mashqlar	Dialog, rolik o'yin, loyiha ishlari
<i>Baholash usuli</i>	Testlar, yozma ishlar	Amaliy nutq vazifalari, rolli baholash
<i>Tilga munosabat</i>	Strukturaviy tizim sifatida	Kommunikativ vosita sifatida
<i>O'quv materiallar</i>	Darslik, lug'at, grammatik qoidalar	Dialoglar, autentik matnlar, video, audio

An'anaviy yondashuv grammatik bilimni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, biroq amaliy muloqot ko'nikmalarini yetarlicha rivojlantirmaydi. Kommunikativ yondashuv esa o'quvchini real hayotiy muloqotga tayyorlaydi, tilni o'rganishga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllantiradi. Har ikki yondashuvning kuchli tomonlarini integratsiya qilgan holda, zamonaviy texnologiyalar yordamida muvozanatli yondashuv ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar va platformalar: interaktiv til o'rganishga yo'l. Yuqorida ko'rib chiqqanimiz, an'anaviy yondashuvlar zamonaviy bilimlar zarurrati yuzasidan zamon bilan hamnafas bo'lgan texnologiya asrida o'qitish metodikasining ham rivojlanishi va zamonaviy talablarga javob bera oladigan raqamli texnologiyalarning ta'limga jadal kirib kelishi chet tillarini o'qitish jarayoniga ham yangi yo'nalish, shakl va imkoniyatlar to'liqlinini olib kirdi. Endilikda o'quvchi tilni faqatgina sinf xonalarida emas, balki istalgan joyda — mobil ilova, onlayn platforma, sun'iy intellekt asosidagi yordamchi dasturlar orqali o'rganishi mumkin. Angliyalik tadqiqotchi S. Bax o'z izlanishlarida ta'kidlaydi:

*“Yangi texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchini markaziy roldan chiqazib, o‘quvchini bilim markaziga aylantiradi.”*²³

Bu esa, o‘z navbatida, til o‘rganishda mustaqillik, individual yondashuv, tezkor baholash kabi yangi imkoniyatlarni beradi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Bugungi kunda chet tillarini o‘qitishda quyidagi raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda:

1. Multimediali ta’lim (audio, video, interaktiv vizual materiallar)

✓ Afzalliklari: fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirish, kontekstda so‘z yodlash, situatsiyaviy muloqotni o‘rganish.

✓ Amaliy misol: videodarslar orqali o‘quvchi talaffuz va intonatsiyani takrorlab o‘rganadi.

2. Mobil ilovalar (Duolingo, Memrise, LingQ, Quizlet va h.k.)

✓ Afzalliklari: gamifikatsiya (o‘yinlar orqali o‘rganish), doimiy takrorlash, shaxsiy o‘qishni kuzatish.

3. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalari.

✓ Afzalliklari: o‘quvchini til muhiti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanishtirish, virtual “sayohatlar”, muloqotli stsenariylar orqali o‘rganish.

4. Onlayn platformalar (Zoom, Moodle, Edmodo, Google Classroom, Microsoft Teams)

✓ Afzalliklari: interaktiv darslar, topshiriqlarni almashish, guruh ishlari va muhokamalarni tashkil etish.

O‘zbekiston tajribasida raqamli yondashuvlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmoni va 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son qarori asosida chet tillarini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish belgilab qo‘yilgan. Natijada quyidagilar kuzatilmoqda:

• **Ingliz tili fanidan “Ijtimoiy tarmoqlarda dars” loyihalari** tashkil qilindi.

• **My.gov.uz, UzEdu, Bilimlar bellashuvi, EduMarket.uz** platformalari orqali interaktiv ta’lim yo‘lga qo‘yildi.

• Bir qancha maktablar va OTMlar “blended learning” — aralash o‘qitish modeli asosida ish olib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarni til o‘rganish jarayoniga qiziqtirishda zaruriy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ular quyidagilarga yordam beradi:

²³ Bax S. CALL-Past, Present and Future. System, 31(1). pp13–28. 2003.
[https://doi.org/10.1016/S0346-251X\(02\)00071-4](https://doi.org/10.1016/S0346-251X(02)00071-4)

1. *Gamifikatsiya* (o'yinlashtirish) orqali o'rganishni quvnoq qiladi.
2. *Adaptiv dasturlar* har bir o'quvchining yutug'i va xatolarini tahlil qilib, shaxsiy tavsiyalar beradi.
3. *Jamoaviy onlayn ishlanmalar* (forumlar, guruhli chatlar) o'zaro muloqotni rag'batlantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar — bu til o'rganishda yordamchi emas, balki markaziy vosita sifatida qaralayapti. Raqamli texnologiyalar yordamida har bir o'quvchi o'ziga mos tempda, mos formatda va mos shaklda tilni o'zlashtirishi mumkin. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda o'rganish jarayonini yanada sermazmun va qiziqarli tashkil qilinishiga ko'maklashadigan interaktiv texnologiyalarning roli beqiyosdir. Kelajakda raqamli texnologiyalar yordamida individual til o'rganish platformalari yanada ommalashib, "raqamli til muhitlari" shakllanishiga xizmat qiladi.

3. Chet tilini o'rgatishda metod va usullarning tahlili

Chet tillarini o'rgatishda qo'llaniladigan metod va usullar tilni o'rganish jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Chet tilini o'rganishda turli metodologik yondashuvlar mavjud bo'lib, har bir metod o'zining nazariy asoslariga, pedagogik maqsadlariga va o'quvchilarning ehtiyojlariga asoslanadi. Ushbu tahlil chet tili o'qitish metodlarini ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqishga qaratilgan.

Grammatik-Translyatsion metod. Grammatik-Translyatsion metod (GTM) til o'qitishda eng qadimgi yondashuvlardan biri bo'lib, o'quvchilarga grammatika va tarjima asosida til o'rganishni ta'minlaydi. Bu metodda tilning grammatik strukturalari hamda lug'ati orqali o'rganish amalga oshiriladi, lekin nutqning amaliy aspektlariga etarlicha e'tibor berilmaydi. GTM ning asosiy afzalligi shundaki, o'quvchilar tilda grammatik qoidalarni aniq o'zlashtirishadi, ammo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda cheklovlar mavjud. Vygotskiy til o'rgatishda faqat grammatika va leksikani o'rganish yetarli emasligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, til o'rganishda muloqotning ijtimoiy va madaniy aspektlarini hisobga olish zarur. Hymes o'zining "kommunikativ kompetensiya" kontseptsiyasini ilgari surgan va GTM metodining muloqotga asoslangan metodlarga nisbatan cheklanganligini ta'kidlagan.

Kommunikativ metod. Kommunikativ metod (KM) tilni o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tildan amaliy tarzda foydalanishga imkon yaratadi. Bu metodning asosiy maqsadi – o'quvchilarga tilni real muloqot jarayonida ishlatish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. KM orqali o'quvchilar nafaqat grammatika va leksikani o'rganishadi, balki tilni to'g'ri va samarali muloqot vositasi sifatida qo'llashni o'rganadilar. Hymes bu metodni rivojlantirgan va uning fikricha, kommunikativ kompetensiya – bu tilni to'g'ri ishlatish qobiliyati, shu jumladan, muloqotning kontekstini, madaniyatini va til tuzilmasini tushunishdir. Littlewood ham KMni til o'rgatishda samarali yondashuv sifatida ko'rib chiqadi, chunki u tilni o'rganish jarayonini real hayotdagi vaziyatlarga moslashtiradi.²⁴

Induktiv metod. Induktiv metodda o'quvchilar tilni o'rganish jarayonida grammatik qoidalarni amaliyot orqali o'zlashtiradilar. Bu metodda o'quvchilar o'zlari tilning grammatika strukturalarini amaliyotda, ya'ni misollarni ko'rish va ularga asoslanib qoidalarni tushunish orqali o'rganadilar. Ushbu metod ham juda keng qo'llanilib, u o'rganuvchilarga an'anaviy metodlardan ko'ra ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Induktiv metod til o'rganish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Chomsky induktiv metodni rivojlantirishda muhim o'rin tutgan, uning "o'rganish jarayonida tilning tabiiy ravishda qoidalarini o'zlashtirish" g'oyasi tilni o'rganishda samarali metodlarni izlashga undaydi.²⁵ **Carter va McCarthy** induktiv metodning til o'rganishda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, tilning kontekstual asoslarini tushunishga alohida e'tibor berishni zarur deb biladilar.²⁶ Ingliz tilshunoslari til o'rgatishda korpus lingvistika, diskursiv yondashuv va kontekst asosida til tahliliga oid izlanishlariga to'g'ri keladi. Ular o'zlarining "Cambridge Grammar of English" hamda boshqa ishlanmalarida tilni o'rganishda kontekstual tahlil va real nutq namunalarini tahlil qilish orqali o'quvchilarda qoidalarni induktiv ravishda anglash imkonini yaratishni ta'kidlaydilar.

²⁴ Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press. 1981

²⁵ Chomsky N. Syntactic Structures. The Hague: Mouton. 1957.

²⁶ Carter R., McCarthy M. Cambridge Grammar of English: A Comprehensive Guide. Spoken and Written English Grammar and Usage. Cambridge: Cambridge University Press. 2006.


Audio-lingvistik metod. Audio-lingvistik metodda tilni o'rganish jarayonida tinglash va takrorlash asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning talaffuz va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslanadi. Audio-lingvistik metod talaffuzni mukammal o'rganishga imkon yaratadi va tilni amaliy ravishda ishlatishda samarali bo'lishi mumkin. Mashhur amerikalik tilshunos va metodist **Robert Ladoning** 1964-yilgacha bo'lgan ilmiy ishlari, xususan, uning audio-lingvistik metod (audio-lingual method) ga oid yondashuvlari bilan bog'liq. Robert Lado bu metodni o'zining "**Language Teaching: A Scientific Approach**" asarida asoslab beradi. U tilni o'rgatishda **takrorlash, talaffuz va tovush tizimini** chuqur o'zlashtirishga asoslangan yondashuvni samarali deb hisoblagan. **Lado** audio-lingvistik metodni tillarni o'rgatishda foydali deb hisoblagan, chunki bu metod talaffuz va tovushlarni to'g'ri o'rganishga asoslanadi.²⁷ P. A. Nelyubin esa audio-lingvistik metodning effektivligini, ayniqsa, tilning fonetik jihatlarini o'rganishda muhimligini ta'kidlagan.

Ko'p tillilik yondashuvi. Ko'p tillilik yondashuvi til o'rgatish jarayonida bir nechta tillarni bir vaqtda o'rganishni ta'minlaydi. Bu metod o'quvchilarga bir necha tilni bir vaqtning o'zida o'rganish imkoniyatini beradi, bu esa tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi va ko'p madaniyatli muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ko'p tillilik yondashuvi Jim Cumminsning ko'p tillilik (multilingualism) va ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga oid yondashuvlari bilan bog'liq. U 2000-yilda chop etilgan "Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire" nomli asarida ko'p tillilik faqat til o'rganish emas, balki madaniy ong, ijtimoiy muloqot va shaxsiy identifikatsiya jarayoni ham ekanligini asoslagan.²⁸ U ko'p tillilikning ijtimoiy va madaniy jihatlarini o'rgatishda foydaliligini ta'kidladi, chunki til o'rganish nafaqat tilni, balki madaniyatni ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. **Baker** ko'p tillilik yondashuvining samaradorligini, o'quvchilarning kognitiv va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tushuntirgan.

²⁷ Lado R. Language Teaching: A Scientific Approach. New York: McGraw-Hill. 1964

²⁸ Cummins J. Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Clevedon: Multilingual Matters. 2000

Chet tillarini o'rgatishda metod va usullarni tanlashda ilmiy yondashuvlarning ahamiyati katta. Har bir metod o'ziga xos pedagogik va psixologik asoslarga ega bo'lib, turli tillarni o'rganish jarayonida qo'llanilishi kerak. Biroq, metodlarning samaradorligini oshirish uchun ularni integratsiyalash va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zarur. O'quvchilarning muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, grammatik va leksik qoidalarni o'zlashtirish o'qitish jarayonining asosiy maqsadi bo'lib qoladi. Chet tillarini o'rgatishda metod va usullarni tanlashda ilmiy yondashuvning muhim ahamiyati bor.



1-rasm. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligi.

Zamonaviy metodlar, ayniqsa, kommunikativ yondashuvlar, axborot texnologiyalarining qo'llanilishi va kognitiv yondashuvlar o'quvchilarning muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta yordam beradi. Har bir metod o'zining pedagogik, psixologik va kognitiv asoslariga ega bo'lib, o'qitishda samarali bo'lishi uchun integratsiyalangan yondashuvlar orqali qo'llanilishi zarur. Shuningdek, tilni o'rganish jarayonida individual yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ta'lim dasturlarini yaratishga yordam beradi. Chet tili o'qitish jarayonida bugungi kunda dolzarb zamonaviy texnologiyalar, interaktiv usullar va kognitiv strategiyalarni qo'llash, o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'limning samaradorligini sezilarli oshiradi.

4. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasida qo‘llanilayotgan ilg‘or yondashuvlar

Chet tilini o‘qitish sohasida global miqyosda ilg‘or metodologiyalar va pedagogik yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston hamda xorijiy mamlakatlarning tajribalari ko‘rsatadiki, chet tilini o‘rgatishda innovatsion pedagogik yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarning tilni o‘rganishdagi samaradorligini oshiradi, balki ularning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ushbu rejada, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnologiyalar ilmiy asoslar yordamida taqdim etiladi.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida so‘nggi yillarda chet tillarini o‘qitish bo‘yicha bir qancha yangiliklar joriy etildi. Bunda, asosan, chet tillarini o‘rganish jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida samarali qilishga qaratilgan yondashuvlar qo‘llanilmoqda.

Ilg‘or yondashuvlar:

Kommunikativ yondashuv: Chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyili — bu o‘quvchilarga real hayotda muloqot qilishda kerak bo‘ladigan til ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Bu metod o‘quvchilarni faqat grammatik qoidalarni o‘rganish bilan cheklanmay, balki ularni amaliy muloqotga tayyorlashga yordam beradi. Kommunikativ yondashuv amerikalik tilshunos Sandra J. Savignonning kommunikativ yondashuv (Communicative Approach / Communicative Language Teaching – CLT) haqidagi izlanishlariga asoslanadi. U 1991-yilda chop etilgan maqolasida ushbu metodni ingliz tilini o‘qitishda samarali vosita sifatida tasvirlab, o‘quvchilarni grammatik bilim emas, balki til orqali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi. Savignon bu metodni ingliz tilini o‘rgatishda samarali yondashuv ekani, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarda tilni o‘zaro muloqotda ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantirish bolib hismat qilishini ta’kidlagan.²⁹

Axborot texnologiyalarini qo‘llash: O‘zbekistonning ta‘lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali chet tilini o‘rganish jarayoni interaktiv va qiziqarli bo‘lmoqda. Jonassen

²⁹ Savignon S. J. Communicative Language Teaching: State of the Art. TESOL Quarterly, 25(2); 1991. pp 261–277. <https://doi.org/10.2307/3587463>..

o‘zining "Learning with Technology" asarida axborot texnologiyalarini o‘rganish jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligini isbotlagan. Zamonaviy ta‘lim resurslari, masalan, mobil ilovalar, onlayn platformalar va multimedia materiallari, o‘quvchilarga tilni o‘rganishda mustaqil faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba asosida o‘qitish metodikalarini integratsiya qilish: O‘zbekiston ta‘lim tizimida xorijiy metodologiyalardan foydalanish ko‘plab o‘qituvchilarning tajribalariga asoslanadi. Mashhur metodistlar Jack C. Richards va Theodore S. Rodgersning "Approaches and Methods in Language Teaching" nomli kitobining 3-nashriga asoslanadi. Bu asarda, ular xorijiy tilni o‘qitishdagi yondashuv va metodlarning tarixiy rivoji, ularning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi haqida tahlil yuritadilar. Ayniqsa, ular metodlarni qat‘iy ajratish emas, balki **ularni moslashtirish va birlashtirib qo‘llash** (eclecticism) usulini samarali deb hisoblaydilar.³⁰ Richards va Rodgers asarida turli pedagogik yondashuvlar va metodlarni birlashtirishning ahamiyatini ta‘kidlagan. O‘zbekistonda, masalan, ingliz tilini o‘rgatishda britaniyalik va amerikalik olimlarning metodikalariga asoslangan yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Bu metodlar o‘quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki tilni muloqotda qo‘llashga tayyorlashga qaratilgan.

Xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan ilg‘or yondashuvlar. Xorijiy mamlakatlarda chet tili o‘qitish sohasida turli metodologiyalar va pedagogik yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Xususan, Finlandiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiyada til o‘rganish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalar joriy etilgan. Bu mamlakatlardagi ilg‘or yondashuvlar til o‘rganish jarayonini nafaqat samarali, balki o‘quvchilarga o‘rganishning qiziqarli va jonli shakllarini taqdim etadi. Finlandiyada ta‘lim tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan va boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan yondashuvni ilgari suradi. O‘Hara va Pritchard integratsion ta‘limning samaradorligini ta‘kidlab, boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali til o‘rganish jarayonini chuqurlashtirish mumkinligini

³⁰ Richards J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. 2014.

isbotlaganlar.³¹ Finlandiya ta'lim tizimida chet tillarini o'rgatishda bu yondashuv o'quvchilarga tilni real hayotdagi vaziyatlarda ishlatish imkoniyatini yaratadi. AQShda chet tilini o'rgatishning asosiy yo'nalishlaridan biri — bu texnologiyaning keng qo'llanilishidir. Reinders va White o'z asarlarida texnologiyalarning ta'limdagi samaradorligini o'rganib, interaktiv o'yinlar, videolar va mobil ilovalar yordamida tilni o'rgatishning o'quvchilarni rag'batlantiruvchi va motivatsion samarasini ta'kidlaganlar.³² AQShda, ayniqsa, raqamli resurslar va onlayn kurslar orqali o'quvchilarning mustaqil o'rganishi rivojlantirilmoqda. Buyuk Britaniyada chet tillarini o'rgatishda ko'proq immersiya metodidan keng foydalaniladi. Cummins immersiya metodining til o'rganishda muvaffaqiyatli ekanligini isbotlagan.³³ Ushbu metodda o'quvchilar chet tilida muloqot qilish orqali o'z bilimlarini real hayotda qo'llashadi, bu esa ularning tilni o'rganishdagi qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Yaponiyada chet tili o'qitishda texnologiyalarni integratsiya qilishga katta e'tibor qaratilgan. Takeuchi va Ohta³⁴ texnologiyalarning ta'limga integratsiyasini o'rganib, interaktiv vositalar yordamida tilni o'rganish jarayonining samaradorligini ta'kidlaganlar. Yaponiyada virtual o'qitish platformalari va multimedia vositalari orqali o'quvchilar tilni o'rgatishda amaliyotga tayyorlanadi.

O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi chet tilini o'qitish metodologiyalaridagi o'zgarishlar, ularning pedagogik asoslari va yondashuvlarida umumiylik mavjud, lekin har bir mamlakat o'zining madaniy va ta'lim tizimi xususiyatlariga asosan alohida metodlar qo'llaydi. Misol uchun, O'zbekistonda kommunikativ metodlar va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirishga katta e'tibor qaratilsa, Finlandiya va AQShda integratsiya va texnologiyalarni qo'llash keng tarqalgan. Buyuk Britaniyada immersiya metodlari, Yaponiyada esa

³¹ O'Hara S., Pritchard R. Meeting the Challenge of Content Instruction: The Importance of Differentiated Instruction and Collaboration. *Middle School Journal*, 39(3). 2008. pp 26–33.

³² Reinders H., White C. Learner Autonomy and New Learning Environments. *Language Learning & Technology*, 15(3), 2011. pp1–3.

³³ Cummins J. *Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire*. Clevedon: Multilingual Matters. 2002.

³⁴ Takeuchi O., Ohta M. Multimedia and ICT in Language Learning: Implications for Learner Autonomy. In T. Yoshida, H. Imai, & M. Kumagai (Eds.), *CALL and Computer-Mediated Communication: Issues and Implications*. Tokyo: Aoyama Gakuin University Press. 2010. pp. 45–60.

texnologiyalarni to'liq integratsiya qilishning samaradorligi ko'rsatilmoqda.

Shu bilan birga, chet tili o'qitishda barcha mamlakatlar uchun umumiy bir nuqta bor: bu tilni o'rgatish jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan yondashuvlar va metodlarni qo'llash zarurati. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan ilg'or yondashuvlar chet tilini o'rganish jarayonini yanada samarali qilishga qaratilgan. Pedagogik metodlar, texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlarning integratsiyasi orqali til o'rganish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Har bir mamlakat o'zining madaniy, iqtisodiy va pedagogik xususiyatlariga asoslanib, chet tili o'qitish sohasida innovatsion metodlarni joriy etmoqda, bu esa o'quvchilarning til o'rganish motivatsiyasini oshiradi va samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

5. Yangi texnologiyalar asosida o'qitish samaradorligi

Texnologiyalarning chet tilini o'qitishdagi roli. Chet tilini o'qitishda yangi texnologiyalar, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi va samaradorligini oshiradi. Jonassen o'zining "Learning with Technology" asarida texnologiyalarning o'rganish jarayonidagi integratsiyasini ta'kidladi. U shuningdek, texnologiyalarni o'qitishda faqat informatika fanlarida emas, balki barcha sohalarda, xususan, chet tillarini o'rgatishda ham qo'llash zarurligini ko'rsatgan. Blake esa kompyuter yordamida til o'rganishni pedagogik nuqtai nazardan qo'llashning samaradorligini ko'rsatgan. Masalan, yangi texnologiyalarni chet tilini o'rgatish jarayoniga integratsiya qilish quyidagi asosiy yutuqlarga olib keladi:

a. Tinglash va nutqni rivojlantirish: Mobil ilovalar va interaktiv platformalar o'quvchilarga real vaqtda muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Masalan, **Tandem** yoki **HelloTalk** kabi ilovalar yordamida o'quvchilar o'z til bilish darajalarini sinab ko'rish va real muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

b. Yangi metodologiyalar: Texnologiyalar orqali chet tili o'qituvchilari yangi metodologiyalarni amalga oshirishi mumkin. **Constructivist learning** yondashuvlari asosida qurilgan texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga

yordam beradi. Vygotskiy o'zining "Social Development Theory" asarida bilimlar ijtimoiy faoliyat orqali o'rganilishi kerakligini ta'kidlagan va texnologiyalar yordamida bu jarayonni yanada kuchaytirish mumkinligini ko'rsatgan.

Zamonaviy texnologiyalar chet tilini o'rgatishda quyidagi asosiy afzalliklarga ega:

- **Individualizatsiya va moslashuvchanlik:** Texnologiyalar o'quvchilarga o'z ehtiyojlariga moslashtirilgan o'rganish rejalarini yaratishga yordam beradi. Mobil ilovalar va onlayn platformalar o'quvchilarga o'z tempo va uslublariga mos ravishda o'rganish imkoniyatini taqdim etadi.

- **Motivatsiya va qiziqish:** Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Interaktiv va vizual materiallar yordamida o'quvchilar til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va qamrab oluvchi qilishadi. Dörnyei (2001) o'zining motivatsiya teoriyasida texnologiyalarning motivatsiya oshirishdagi samaradorligini ta'kidlagan.

- **Hamkorlikda o'rganish:** Texnologiyalar orqali o'quvchilar guruhli ishlarni, interaktiv mashqlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Johnson va Johnson o'zlarining tadqiqotlarida hamkorlikda o'rganishning til o'rganishdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatganlar.³⁵

Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llashda samaradorlikni oshirish uchun quyidagi yondashuvlar qo'llanilishi zarur:

Pedagogik kompetensiyani oshirish: O'qituvchilarni yangi texnologiyalarga tayyorlash, ular uchun treninglar o'tkazish, yangi metodlar va texnologiyalarni o'zlashtirishga yordam berish zarur. Mishra va Koehler o'zining TPACK modelida o'qituvchilarni texnologiyalarga pedagogik yondashuv bilan birlashtirish zarurligini ko'rsatganlar.³⁶ O'qituvchilar texnologiyalardan faqat vosita sifatida emas, balki o'quvchilarning o'rganish jarayonini tashkil etuvchi asosiy vosita sifatida foydalanishlari kerak.

³⁵ Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning (4th ed.). Boston: Allyn and Bacon. 1994.

³⁶ Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 2006. pp1017–1054. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x>.

Ko'p tilli resurslardan foydalanish: Texnologiyalar orqali o'quvchilar ko'p tilli materiallarga osongina kirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu nafaqat chet tilini o'rgatishda, balki boshqa madaniyatlar bilan tanishishda ham foydalidir. Lamb ko'p tilli resurslar yordamida til o'rganishning samaradorligini oshirishni ta'kidlagan.

Interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar: O'yinlar va simulyatsiyalar til o'rganishda juda samarali vositadir. Gee o'zining "What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy" asarida o'yinlarning motivatsiya va o'rganishdagi roli haqida batafsil ma'lumot bergan. O'quvchilar simulyatsiyalar yordamida turli muloqot vaziyatlarini o'rganadilar, bu ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.³⁷

Texnologiyalarning o'qitish samaradorligini oshirishdagi asosiy misollar: MOOC, Blended learning misol qilib oladigan bo'lsak; *MOOC (Massive Open Online Courses)*: MOOClar kabi onlayn kurslar dunyo bo'ylab o'quvchilarga internet orqali chet tili o'rganish imkonini yaratadi. Kurslar o'quvchilarga mustaqil ravishda o'rganish, murabbiylar bilan muloqot qilish va baholarni olish imkoniyatlarini beradi. Pappano MOOClarning o'qitishdagi ahamiyatini ko'rsatgan va bu yangi texnologiyaning global ta'lim tizimidagi o'rinini tahlil qilgan.³⁸ *Blended learning*: Blended learning (aralash o'rganish) modeli, ya'ni an'anaviy va onlayn o'rganishning kombinatsiyasi, chet tillarini o'rgatishda samarali yondashuv bo'lishi mumkin. Garrison va Kanuka blended learning usulining o'rganuvchilarni faollashtirish va o'rganishni kuchaytirishdagi rolini ta'kidlashgan.³⁹


Yangi texnologiyalar asosida o'qitish chet tili o'qitish jarayonini yangilaydi, samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning bilim olishda mustaqilliklarini ta'minlaydi. Texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish o'quvchilarga o'z tempo va ehtiyojlariga mos ravishda o'rganish imkonini beradi, shu bilan birga ular uchun qiziqarli, interaktiv va

³⁷ Gee J. P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. New York: Palgrave Macmillan.2003.

³⁸ Pappano L. (2012, November 2). The Year of the MOOC. *The New York Times*. Retrieved from <https://www.nytimes.com/2012/11/04/education/edlife/massive-open-online-courses-are-multiplying-at-a-rapid-pace.html>

³⁹ Garrison D. R., Kanuka, H. (). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2); 2004. pp95–105.
<https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2004.02.001>

motivatsion muhit yaratadi. O'qituvchilarni texnologiyalarni pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirishga tayyorlash, zamonaviy resurslardan foydalangan holda samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish zarur.



2- rasm. Yangi texnologiyalar yordamida chet tili o'qitish samaradorligi.

Yangi texnologiyalar yordamida chet tili o'qitish jarayoni yanada samarali va interaktiv bo'ladi, bu esa o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Multimedia vositalaridan foydalanish chet tillarini o'qitishda qanday afzalliklarni beradi? Misollar bilan tushuntiring.

2. Blended learning (aralash ta'lim) modeli nima va u chet tilini o'qitishda qanday qo'llaniladi?

3. "Flipped Classroom" (ag'darilgan sinf) metodining mohiyati nimada? Chet tilini o'rgatishda bu yondashuvning ijobiy va salbiy jihatlari qanday?

4. Gamifikatsiya (o'yin elementlari orqali o'qitish) texnologiyasining asosiy tamoyillarini tushuntiring. Chet tilini o'rgatishda bu usul qanday qo'llaniladi?

5. Chet tillarini o'qitishda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan qanday foydalanish mumkin? Misollar keltiring.

6. Mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet, Memrise) chet tillarini o‘qitishda qanday pedagogik vazifalarni bajaradi?

7. Real-Time Communication texnologiyalarining (Zoom, Skype, MS Teams) chet tilini o‘rganishdagi roli qanday?

8. Interaktiv doskalar (smartboards) va ularning chet tilidagi mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi haqida nima deya olasiz?

9. STEM va CLIL kabi integratsiyalashgan yondashuvlar chet tilini o‘rgatishda qanday samaradorlikka olib keladi?

10. Sizing fikringizcha, bugungi kunda chet tilini o‘rganishda eng samarali texnologiya qaysi? Nima uchun aynan shu texnologiyani tanlagan bo‘lardingiz?

IV. Zamonaviy chet til o‘quv jarayonini tashkil etish va dars kuzatish texnologiyalari

Reja:

1. Zamonaviy chet tilini o‘qitishning nazariy asoslari

2. O‘quv jarayonini tashkil etishdagi yangi texnologiyalar va platformalar

3. Dars kuzatish texnologiyalari va ularning tahlil qilish usullari

4. Dars turlari. Bir soatlik darsni rejalashtirish. Darsning maqsadi, vazifalari va qo‘yiladigan talablar.

Tayanch so‘zlar: Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, chet tilini o‘qitish metodikasi, pedagogik yondashuvlar, interaktiv ta’lim, kompetensiya asosida o‘qitish, mustaqil o‘rganish, ta’limda innovatsiyalar, o‘quvchilarning motivatsiyasi, blended learning (Aralash o‘qitish), digital literacy (Raqamli savodxonlik)

1. Zamonaviy chet tilini o‘qitishning nazariy asoslari

Zamonaviy chet tilini o‘qitish jarayoni turli pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvlarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning tilni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish, ularning faolligini oshirish, shuningdek, mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. O‘qitishda zamonaviy metodlar va

texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarga yanada samarali va interaktiv o'quv jarayonini taqdim etish mumkin. Yangi texnologiyalarni integratsiya qilish, o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini nafaqat samarali, balki motivatsiyali qilishga imkon beradi. Shuningdek, o'qituvchilarga darslarni individual tarzda tashkil etish va har bir o'quvchining ehtiyojiga moslashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy chet tilini o'qitishning nazariy asoslari kommunikativ yondashuvga asoslanadi, bu yondashuvda asosiy e'tibor tilni amaliy qo'llashga qaratilgan. Kommunikativ yondashuv o'quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarda to'g'ri javob berish, o'z fikrini bildirish va muloqot qilishni o'rgatadi. O'quvchilar tilni o'rganishda faqat grammatika va leksikani o'rganish bilan cheklanmay, balki tilni ijtimoiy kontekstda ishlatish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Shuningdek, ko'p tilli yondashuv, o'quvchilarga bir nechta tillarni o'rganish jarayonida ularning o'z tillari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy o'qitish jarayonida texnologiyalarning o'rni katta. Masalan, **Learning Management System (LMS)** tizimlari, masalan, **Moodle** va **Google Classroom**, o'qituvchilarga darslarni onlayn tarzda tashkil etish va o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini kuzatishga imkon beradi. Bu tizimlar o'quvchilar uchun masofaviy ta'lim materiallarini taqdim etishda samarali vositalar hisoblanadi. **Mobile-Assisted Language Learning (MALL)** texnologiyalari esa o'quvchilarga mobil ilovalar orqali tilni o'rganish imkoniyatini beradi. Mobil ilovalar orqali o'quvchilar istalgan vaqtda va joyda tilni o'rganishlari mumkin, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va til o'rganish jarayonini yanada qulaylashtiradi.

Bundan tashqari, **Virtual Reality (VR)** texnologiyasi, o'quvchilarga immersiv (g'oyibiy) tajriba taqdim etadi. VR yordamida o'quvchilar turli vaziyatlarda tilni qo'llashni o'rganishlari, virtual safarlarda qatnashishlari yoki virtual muloqotlar orqali o'z til ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. **Artificial Intelligence (AI)** texnologiyalari esa o'quvchilarga individual yordam ko'rsatadigan tizimlarni yaratadi, bu tizimlar o'quvchilarning til darajalarini baholab, moslashtirilgan o'quv materiallarini taqdim etadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini oshiribgina

qolmay, ular, shuningdek, o'quvchilarga tilni o'rganishda qiziqarli va interaktiv usullarni taqdim etadi. Bu metodlar yordamida o'quvchilar nafaqat grammatika va lug'atni o'rganadilar, balki tilni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar. Shunday qilib, zamonaviy chet tilini o'qitish nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshirish, balki ularga tilni o'rganish jarayonidan zavq olishga ham yordam beradi.

Yevropa va AQShdagi ilg'or yondashuvlar (CEFR, CLIL, TBLT). Bugungi kunda Yevropa va AQShda chet tillarni o'qitishda qo'llanilayotgan ilg'or metodik yondashuvlar til o'rgatishning mazmunini, metodologiyasini va baholash mezonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu ilg'or yondashuvlar orasida **CEFR, CLIL**, hamda **TBLT** metodlari til o'rgatishning global standartlarga moslashtirilgan va amaliyotga yo'naltirilgan modelini shakllantiradi.

Avvalo, **CEFR (Common European Framework of Reference for Languages)** — bu tilni o'rganish, o'qitish va baholash uchun umumiy mezonlar majmuasi bo'lib, u Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro miqyosda keng qo'llanilmoqda. CEFR til bilish darajalarini A1 (boshlang'ich) darajadan C2 (erkin so'zlasha oladigan) darajagacha aniqlab beradi va bu tasnif asosan o'quvchilarning til kompetensiyasini baholashda yagonalikni ta'minlaydi. Ushbu tizim til o'rganuvchining eshitish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini muvozanatli baholashga imkon beradi. CEFR yondashuvi o'qituvchilarga ta'lim jarayonida aniq maqsadlarni belgilash, individual yondashuvni yo'lga qo'yish va baholash jarayonini shaffof tashkil etish imkonini beradi.⁴⁰

CLIL (Content and Language Integrated Learning) — bu mazmun va tilni birgalikda o'rgatishga asoslangan metodik yondashuv bo'lib, 1990-yillarda Yevropa mamlakatlarida keng tarqala boshlagan. Ushbu yondashuvda chet tili o'qitilayotgan asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, ya'ni o'quvchilar tilni o'rganish bilan birga boshqa fan (masalan, biologiya, tarix yoki matematika) bo'yicha bilimlarni ham egallaydilar. Bu metod o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi, fanga nisbatan qiziqishini oshiradi va tilni kontekstual ravishda o'rganishga

⁴⁰ Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge: Cambridge University Press. 2001.

taminlaydi. CLIL yondashuvi, ayniqsa, ko‘p tilli muhitda til o‘rgatish samaradorligini oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi (Coyle, Hood & Marsh, 2010).⁴¹ U shuningdek, tanqidiy fikrlash, o‘z fikrini asoslash, madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yana bir dolzarb yondashuv — bu **TBLT (Task-Based Language Teaching)** bo‘lib, bu yondashuv AQSh va boshqa ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. TBLTda asosiy e‘tibor kommunikativ vazifalarni bajarish orqali til o‘rganishga qaratiladi. Ya‘ni, o‘quvchilarga real hayotga yaqin topshiriqlar (masalan, mehmonxonada xona band qilish, reja tuzish yoki suhbat qurish) beriladi va ular bu topshiriqlarni bajarayotganda til ko‘nikmalarini bevosita amaliy faoliyat orqali rivojlantiradilar. TBLT yondashuvi o‘quvchilarning tilga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi, ularni faol muloqotga undaydi hamda interaktiv o‘rganishga yo‘naltiradi. Ellis ta’kidlashicha, topshiriq asosida o‘qitish tilni tabiiy usulda o‘zlashtirishni rag‘batlantiradi va tilni o‘rganishdagi shaxsiy tajribaning ahamiyatini kuchaytiradi.⁴²

Ushbu yondashuvlar o‘zaro farq qilsa-da, ular zamonaviy chet tilini o‘qitishning eng samarali yo‘nalishlarini ifodalaydi. Har bir model o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, tilni real hayotda qo‘llash, hamda o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan va interaktiv tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Yevropa va AQSh tajribasidan o‘rganilgan ushbu metodlarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilish orqali chet tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Milliy dasturlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, Davlat dasturi)

O‘zbekiston Respublikasida chet tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘qitish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda bu borada qator strategik qarorlar va milliy dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yil 6-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **PQ–5117-sonli Qarorida** “Chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha

⁴¹ Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press. 2010.

⁴² Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press. 2003.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” aniq vazifalar belgilab berilgan. Ushbu qaror asosida chet tillarni o‘qitish tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or xalqaro tajribalarni joriy etish, o‘quvchilar va talabalar uchun bepul onlayn platformalar yaratish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni xalqaro sertifikatlarga tayyorlash kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Shuningdek, 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan **“Ta’limni rivojlantirish milliy strategiyasi”** doirasida ham chet tillarni o‘qitish bosqichma-bosqich isloh qilinmoqda. Ushbu strategiyada ta’lim mazmunini CEFR kabi xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni zamonaviy talablar asosida yangilash, shuningdek, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalaridan keng foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish nazarda tutilgan. Bu yondashuvlar nafaqat shahar, balki qishloq hududlarida ham teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Davlat dasturlarida, **“Yangi O‘zbekiston – maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha”** konsepsiyasida chet tillarni uzluksiz ta’lim tizimi orqali bosqichma-bosqich, integratsiyalashgan va amaliy yo‘nalishda o‘qitish strategiyasi ilgari surilgan. Bu esa o‘quvchilarni nafaqat grammatika yoki lug‘at bilan, balki kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash, global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar etishtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, milliy dasturlar orqali O‘zbekiston chet tilini o‘rganishning xalqaro me‘yorlarga mos, innovatsion va motivatsiyalovchi tizimini shakllantirishga intilmoqda. Bu islohotlar samarasida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning til o‘rganishdagi ishtiyoqi, texnologik savodxonligi va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lish ko‘rsatkichlari ortib bormoqda.

2. O‘quv jarayonini tashkil etishdagi yangi texnologiyalar va platformalar

Zamonaviy o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi texnologiyalar va platformalar muhim ahamiyatga ega. Bulardan ba'zilari: **LMS (Learning Management System)**: Moodle va Google Classroom kabi platformalar o‘qituvchilarga dars mashg‘ulotlarida o‘quv materiallarini tarqatish, baholash, va o‘quvchilarning faoliyatini monitoring qilish imkonini beradi. Bu tizimlar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv aloqani ta'minlaydi. **MALL (Mobile-Assisted Language**

Learning): Mobil qurilmalardan foydalangan holda til o‘rganish jarayoni yanada samarali bo‘ladi. MALL yordamida o‘quvchilar o‘z mobil qurilmalarida interaktiv materiallar va ilovalar orqali tilni o‘rganadilar. **VR (Virtual Reality)**: Virtual haqiqat texnologiyalari chet tilini o‘rganishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. O‘quvchilar VR yordamida turli xil virtual muhitlarda chet tilini amaliyotda qo‘llash orqali ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. **AI (Artificial Intelligence)**: Sun'iy intellekt texnologiyalari til o‘rgatishda interaktiv va moslashtirilgan yondashuvlarni yaratish imkonini beradi. AI asosidagi tizimlar o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni individual tarzda tashkil etadi.

Texnologiya / Platforma	Tushunchasi	Amaliy qo‘llanilishi / Afzalliklari	Namuna ilovalar / Misollar
LMS (Learning Management System)	O‘quv jarayonini boshqarish tizimi	Dars materiallarini tarqatish, test va baholash, monitoring	Moodle, Google Classroom
MALL (Mobile-Assisted Language Learning)	Mobil qurilmalar orqali til o‘rganish	Moslashuvchanlik, istalgan joyda o‘rganish, interaktiv o‘yinlar	Duolingo, Quizlet, Memrise
VR (Virtual Reality)	Virtual haqiqat texnologiyasi	Real vaziyatlarni simulyatsiya qilish, immersiv o‘rganish muhiti	Oculus apps, Google Expeditions
AI (Artificial Intelligence)	Sun'iy intellekt asosidagi o‘rganish yondashuvi	Shaxsiylashtirilgan ta'lim, xatolarni aniqlash, avtomatik baholash	ChatGPT, Grammarly, Elsa Speak

Onlayn hamkorlik vositalari: Padlet, Mentimeter, Jamboard: Onlayn hamkorlik vositalari o‘quvchilarni jamoaviy ishlashga rag‘batlantiradi va interaktiv darslar tashkil etishga yordam beradi.

❖ **Padlet:** O‘quvchilar o‘z fikrlarini va g‘oyalarini bo‘lishishlari, o‘quv materiallarini osongina tarqatishlari mumkin.

❖ **Mentimeter:** Bu vosita o‘quvchilardan tezkor javoblar olish va dars davomida ular bilan interaktiv aloqada bo‘lish imkonini beradi.

❖ **Jamboard:** Onlayn taxtada o‘quvchilar birgalikda ishlash, fikr almashish va o‘rganish jarayonini ko‘rish imkoniyatini yaratadi.

3. Dars kuzatish texnologiyalari va ularning tahlil qilish usullari

Dars kuzatish texnologiyalari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilish va darsni yaxshilash uchun samarali vositalar taqdim etadi. Zamonaviy o‘qitish jarayonida o‘qituvchilarning metodik faoliyatini takomillashtirish va o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda dars kuzatish texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar darsni ob'ektiv baholash va o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Quyida dars kuzatishning asosiy texnologiyalari va ularning tahlil qilish usullari borasida kengroq ma'lumot berilgan.

Peer-observation (Hamkasblarni kuzatish). Peer-observation - o‘qituvchilar o‘zaro bir-birlarining darslarini kuzatib, o‘qitish metodlarini va usullarini yaxshilashga qaratilgan jarayondir. Bu yondashuv o‘qituvchilar o‘rtasida bilim va tajriba almashinishini rag‘batlantiradi, bir-birining pedagogik usullarini tahlil qilishga yordam beradi. Hamkasblarni kuzatishning juda ko‘p avzal tomonlar mavjud hisoblanib, kelajakda kuzatuvchi dars tahlilidan chiqargan xulosalari bilan o‘z darslarining sifati va samaradorligini oshirishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini takomillashtirishga imkon yaratadi: O‘qituvchi o‘qitish metodlarini boshqa hamkasblar tomonidan baholanishi va tahlil qilinishi orqali o‘z ishini yaxshilashga harakat qiladi. Yangi metodlarni o‘rganish orqali esa, boshqa o‘qituvchilarni kuzatish orqali yangi pedagogik metodlarni o‘rganish va ularni o‘z darslarida qo‘llash mumkin. Rag‘batlantirish va motivatsiya nuqtai nazaridan olib qarasa, Peer-observation o‘qituvchilarga o‘z kasbiy faoliyatida yangiliklar kiritishga motivatsiya beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, peer-observation usuli o‘qituvchilarning metodik yondashuvlarini yangilashda samarali bo‘ladi. Shuningdek, bu metod o‘qituvchilar o‘rtasida professional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Misol uchun, Angliyada olib

borilgan tadqiqotlar peer-observationning o'qituvchilarni o'z dars metodlariga yangicha yondashishga undashini ko'rsatdi.⁴³

Self-assessment (O'z-o'zini baholash) – o'quvchilarga o'z faoliyatini, o'rganish jarayonini va rivojlanishlarini baholash imkonini beradigan usuldir. Bu metod o'quvchilarga o'z xatolarini aniqlash, kuchli va zaif tomonlarini baholash va o'z ustida ishlash imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'zlarini baholash orqali o'z ko'nikmalarini yanada rivojlantirishlariga imkon berish mumkin. Uning afzalliklaridan biri, u mas'uliyatni oshiradi. O'quvchilar o'zlarining o'rganish jarayonidagi mas'uliyatini his qilishadi va o'z rivojlanishlarini kuzatib borishadi. Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirganda, o'quvchi o'zining o'rganish jarayonini tahlil qilish va muammolarni aniqlash orqali metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Self-assessment qaror qabul qilishni o'rgatadi: O'z-o'zini baholash jarayoni o'quvchilarga qanday qilib o'z o'rganish usullarini yaxshilash va moslashish kerakligini o'rgatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini baholash usuli o'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Xususan, Forsythe va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda, o'z-o'zini baholashning o'quvchilarning akademik yutuqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgani tasdiqlangan.⁴⁴

Audio/video tahlil o'quvchilarning nutq va til ko'nikmalarini tahlil qilishda samarali usuldir. O'quvchilar o'z nutqlarini yoki yozuvlarini audio yoki video yozuvlar orqali tahlil qilib, xatolarini aniqlash va tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu usul tilni o'rganishda o'quvchilarning xatolarini real vaqt rejimida ko'rib chiqish va ularni tahlil qilishni osonlashtiradi. Bir qancha avzalliklari mavjud; xatolarni aniqlash va tuzatish: O'quvchilar o'z nutqlari yoki yozuvlarini tinglash orqali xatolarini topib, ularni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ijtimoiy va shaxsiy o'zgarishlarni kuzatish orqali video yoki audio yozuvlarni tahlil qilish o'quvchiga o'z ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ko'rish imkonini beradi. Reflektiv o'rganish: O'quvchilar o'z nutqini tinglab yoki ko'rib, o'zgarishlar va takomillashish

⁴³ Bennett S. Peer Observation as a Tool for Professional Development in the UK. *Educational Practice and Theory*, 35(1); 2013. pp 45–59..

⁴⁴ Forsythe A., Johnson S., Tarzia L. The Impact of Student Self-Assessment on Academic Performance: A Study in Higher Education. *Journal of Educational Research*, 103(4), pp281–295. 2010.

imkoniyatlarini yaxshiroq tushunishadi. Video va audio tahlilning samaradorligini ko'rsatuvchi tadqiqotlar ko'plab mavjud. Masalan, video tahlil usulidan foydalanish o'quvchilarning til ko'nikmalarini oshiradi va ular o'z xatolarini yanada aniq va samarali tuzatishadi. Bu metod o'quvchilarga o'z xatolarini ko'rish va keyinchalik o'zgarishlar kiritish imkoniyatini beradi. Shuningdek, video va audio tahlilning til o'rganish jarayonida samarali ta'sir ko'rsatgani haqidagi tadqiqotlar bu metodning samaradorligini tasdiqlaydi.⁴⁵

Dars kuzatishning boshqa metodlaridan yana Formativ baholash, bu dars davomida o'quvchilarni doimiy baholash orqali ularning rivojlanishiga doimiy nazorat qilish imkonini beradi. Formativ baholash o'quvchilarning yutuqlarini va muammolarini aniqlashga yordam beradi. O'yinlashtirish o'quv metodlari (Gamification): O'quv jarayoniga o'yinli elementlarni kiritish, masalan, o'quvchilarni o'yinlar orqali baholash, ularning motivatsiyasini oshiradi va o'quvchilarni yanada faol ishtirok etishga undaydi.

Dars kuzatish texnologiyalari va ularning tahlil qilish usullari o'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro aloqalarini kuchaytiradi, metodik yondashuvlarni yaxshilashga yordam beradi va til o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. Har bir metod o'qitish jarayonining turli tomonlarini yaxshilashga xizmat qiladi, bu esa ta'lim sifatining umumiy yaxshilanishiga olib keladi. O'qituvchilar va o'quvchilar uchun ushbu texnologiyalarni qo'llashning eng katta foydasi – ularning kasbiy va akademik rivojlanishlarini samarali qo'llab-quvvatlashdir.

4. Dars turlari. Bir soatlik darsni rejalashtirish. Darsning maqsadi, vazifalari va qo'yiladigan talablar

Dars turlari. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan darsning turiga, uning metodik tuzilmasiga va maqsadiga bog'liq. Pedagogik nazariyada darslar turlicha belgilanishi mumkin, ammo eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra, Dars — o'quv jarayonining asosiy shakli bo'lib, u o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir dars turi o'ziga xos didaktik struktura va metodik yondashuvlarni talab qiladi. Quyida asosiy dars turlari va ularning tavsifini keltirib o'tamiz:

⁴⁵ Chen Y. The Impact of Audio-Visual Input on Second Language Listening Comprehension and Speaking Skills. *Language Learning & Technology*, 21(2); pp 43–56. 2017.

1. **Yangi bilim beruvchi dars** – bu darsda o‘quvchilarga yangi o‘quv materialini tushuntiriladi. Bu darsda asosiy urg‘u ma‘lumot berishga va uni tushunishga qaratiladi.

2. **Ko‘nikma va malaka hosil qiluvchi dars** – ilgari o‘rganilgan bilim asosida amaliy mashqlar bajariladi, natijada o‘quvchining fanda mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

3. **Mustahkamlovchi dars** – avvalgi mavzular bo‘yicha bilimlar chuqurlashtiriladi, takrorlanadi va turli vazifalar orqali mustahkamlanadi.

4. **Aralash (kombinatsiyalangan) dars** – bu turdagi darsda bir nechta pedagogik maqsadlar birgalikda amalga oshiriladi: yangi materialni tushuntirish, o‘zlashtirish, mustahkamlash va baholash.

5. **Nazorat va baholash darsi** – o‘quvchilarning bilim darajasi, ko‘nikma va malakalari maxsus topshiriqlar orqali sinovdan o‘tkaziladi, baholanadi.

Bir soatlik darsni rejalashtirish. Darsni samarali rejalashtirish uchun quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga e‘tibor beriladi:

- **Darsning mavzusi:** o‘quv dasturidan kelib chiqib belgilanadi.

- **Dars turi:** yuqorida keltirilganlardan biri tanlanadi.

- **Darsning maqsadi:** umumiy, ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar aniq belgilanadi.

- **Darsning vazifalari:**

a) O‘quvchilarga mavzu bo‘yicha bilim berish;

b) Ularda mustaqil fikrlashni shakllantirish;

c) Kommunikativ va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

• **O‘quvchilar bilan ishlash shakllari:** frontal, guruhli, juftlik, individual.

• **Qo‘llaniladigan metodlar va vositalar:** tushuntirish, muhokama, namoyish, texnologik vositalar (prezentatsiya, video, interaktiv doska).

• **Baholash mezonlari:** yozma va og‘zaki javoblar, test, o‘zaro baholash.

Darsning asosiy bosqichlari:

1. **Tashkiliy qism (3-5 daqiqa):**

1.1. Salomlashish, davomatni aniqlash.

1.2. O‘quvchilarni darsga ruhiy va intellektual jihatdan tayyorlash.

1.3. Mavzuni e‘lon qilish va maqsadni tushuntirish.

2. **O‘tgan mavzuni takrorlash (5-10 daqiqa):**

- 2.1. Avvalgi darsdagi bilimlarni esga tushirish.
- 2.2. Savol-javob, qisqa testlar, amaliy topshiriqlar orqali.
3. **Yangi mavzuni tushuntirish (15-20 daqiqa):**
 - 3.1. Yangi bilimlar, tushunchalar, qoidalar.
 - 3.2. Ko'rgazmali vositalardan, misollardan foydalanish.
4. **Mustahkamlash (10-15 daqiqa):**
 - 4.1. Mashqlar, muammoli vazifalar, guruhli ishlash orqali.
 - 4.2. Savol-javoblar yoki interaktiv topshiriqlar bilan.
5. **Yakuniy qism (5-7 daqiqa):**
 - 5.1. Xulosa chiqarish, o'quvchilar faoliyatini baholash.
 - 5.2. Uyg'a vazifa berish.

Darsga qo'yiladigan talablar:

1. **Aniq didaktik maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi.**
2. **O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.**
3. **Faollashtiruvchi metodlar va vositalardan foydalanish.**
4. **O'zaro muloqotni rag'batlantirish (kommunikativlik).**
5. **Mashg'ulot strukturasi mantiqiy va izchil bo'lishi.**
6. **Natijaviylikka yo'naltirilganlik – darsda o'quvchi bilimini baholash va tahlil qilish.**

Zamonaviy dars — bu o'qituvchining markazda bo'lishi emas, balki o'quvchining faol ishtirokiga asoslangan hamkorlikli va maqsadli o'quv jarayonidir. Shuning uchun, dars turi, maqsadi, rejalashtirish bosqichlari va unga qo'yiladigan talablar puxta o'ylangan bo'lishi, pedagogik va psixologik jihatdan ham asoslanishi va o'rganuvchilarning yoshi, bilim ko'nikmalari ham e'tiborga olinishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Zamonaviy chet tillarini o'qitish jarayonida qanday axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) qo'llaniladi?
2. Dars kuzatuvi texnologiyasi nimani anglatadi va u qanday maqsadda amalga oshiriladi?
3. "Flipped Classroom" (teskari sinf) metodining mohiyati nimada va uni chet tilini o'qitishda qanday qo'llash mumkin?
4. Interaktiv ta'lim metodlarining dars samaradorligiga ta'siri qanday?

5. "Learning Management System" (LMS) platformalaridan qaysilari chet tillarini o'qitishda eng samarali hisoblanadi?

6. "Gamification" (o'yinlashtirish) metodini chet tilini o'rgatishda qanday qo'llash mumkin?

7. Zamonaviy dars kuzatuv texnologiyalarida qanday mezonlar asosida tahlil amalga oshiriladi?

8. Onlayn platformalarda real vaqtda til o'rgatishning afzalliklari va kamchiliklarini sanab bering.

9. "Task-Based Learning" metodologiyasining chet tilini o'rganishdagi o'rni qanday?

10. Dasr tashkiliy qismlarini sanab bering.

V. Talaffuzni o'qitish texnologiyalari

Reja:

1. **Talaffuzning nazariy asoslari va ahamiyati**

2. **Talaffuzni o'rganish metodlari: an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar**

3. **Zamonaviy texnologiyalar yordamida talaffuzni o'rgatish**

4. **Talaffuzni tahlil qilish va yaxshilashda interaktiv vositalardan foydalanish**

Tayanch so'zlar: Talaffuz, talaffuzni, audio tahlil, video tahlil, interaktiv ilovalar, mobil ilovalar, virtual haqiqat, gamifikatsiya, hibrid ta'lim (Blended Learning), empiric tadqiqotlar.

1. Talaffuzning nazariy asoslari va ahamiyati

Talaffuz, til o'rganish jarayonida o'quvchining nutq faoliyatini tashkil etishda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. U tilning tushunilishi, o'qish, yozish, tinglash va gapirish kabi kommunikatsiya jarayonlarida asosiy rol o'ynaydi. To'g'ri talaffuz nafaqat o'quvchining tilni to'g'ri anglashiga yordam beradi, balki uning o'z fikrlarini aniq va samarali tarzda ifodalash imkonini ham yaratadi. Bunda, talaffuzning to'g'ri shakli va intonatsiya, gapni to'g'ri anglash va ifodalashning muhim omillari bo'lib, nutqning yaxlitligi va sifatini ta'minlaydi.

Talaffuzning nazariy asoslarini o'rganishda, o'quvchilar tilni o'rganish jarayonida talaffuzning turli jihatlarini e'tiborga olishlari kerak, chunki talaffuz nafaqat so'zlarni to'g'ri aytish bilan

cheklanmaydi. Bu jarayonda, akustik (tovushlar) va ortografik (imlo) qoidalar, shuningdek, intonatsiya va ritm kabi fonetik jihatlar ham muhim o‘rin tutadi. O‘qitish jarayonida talaffuzni o‘rgatish nafaqat eshitish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning nutq madaniyatini ham shakllantiradi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar talaffuzning tilni o‘rganish jarayonidagi ahamiyatini doimiy ravishda ta’kidlamogda. Misol uchun, Flege tomonidan ishlab chiqilgan **Speech Learning Model (SLM)** nazariyasiga ko‘ra, talaffuzni o‘rganish jarayonida ona tilining ta’siri katta rol o‘ynaydi.⁴⁶ Bu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchining talaffuzi o‘z ona tiliga qanchalik yaqin bo‘lsa, u tilni o‘rganish jarayonida o‘z xatolarini aniqlash va to‘g‘rilashda shunchalik qiyinchiliklarga duch keladi. Flege o‘z modelida o‘quvchilarning yangi tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklarini ona tilining fonetik tizimi bilan solishtiradi, ya’ni ona tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi fonetik tafovutlar o‘quvchilarning talaffuzida qiyinchiliklar tug‘diradi.

Shuningdek, talaffuzni o‘rgatishda **interferensiya** va **transfer** kabi fenomenlar ham o‘rin tutadi. **Interferensiya** - bu o‘quvchilarning ona tili bilan o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi farqlar sababli yuzaga keladigan xatolarni anglatadi. **Transfer** - o‘rganilgan tilni ona tilining tuzilishi bilan bog‘lash orqali yuzaga keladi. Bu fenomenlar talaffuzning o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Talaffuzning nazariy asoslari va uning o‘rganilishidagi ilmiy yondashuvlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning talaffuzini samarali tarzda rivojlantirishda yordam beradi. O‘qituvchi, talaffuzni o‘rgatishda turli metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini to‘g‘ri shakllantirishga erishishi mumkin. Bunda **Task-Based Learning (TBL)**, **Content and Language Integrated Learning (CLIL)** va **Pronunciation Teaching through Technology** kabi zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarni talaffuzda to‘g‘ri ko‘nikmalarni o‘rganishga yo‘naltiradi.

Shu bilan birga, talaffuzning ilmiy yondashuvlarda o‘rganiladigan boshqa muhim jihatlari ham mavjud. Bular orasida intonatsiya, stress

⁴⁶ Flege J. E. Second language speech learning: Theory, findings, and problems. In W. Strange (Ed.), *Speech perception and linguistic experience: Issues in cross-language research* (). Timonium, MD: York Press.: pp. 233–277. 1995

va ritmni o'rganish ham mavjud, chunki bu elementlar tilni tabiiy tarzda ifodalashda katta ahamiyatga ega. Yangi texnologiyalar yordamida talaffuzni o'rganish jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Mobil ilovalar, masalan, **ELSA Speak** yoki **SpeechAce**, va bugungi kunda ko'plab mobil ilovalar o'quvchilarga talaffuzni tahlil qilish va yaxshilashda yordam beradigan interaktiv vositalarni taqdim etadi.

Shu tarzda, talaffuzni o'rganish jarayoni faqatgina grammatik qoidalarni o'rganish bilan cheklanmaydi, balki tilning amaliy qo'llanilishida ham o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar talaffuzni o'rgatish jarayonini yanada samarali va innovatsion qilishga imkon yaratmoqda, bu esa tilni o'rganishdagi muvaffaqiyatni oshiradi.

2. Talaffuzni o'rganish metodlari: an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar

Talaffuzni o'rgatish metodlari yillar davomida turli bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, ular o'z ichiga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni oladi. An'anaviy metodlar asosan o'qituvchining namunasiga tayanadi va o'quvchilarning talaffuzni eshitish, takrorlash va yodlash orqali o'rganishini ta'minlaydi. Masalan, "**Listen and Repeat**" yoki "**Drill**" metodlari uzoq vaqt davomida samarali deb hisoblangan. Bu metodlar o'quvchilarga tovushlarning fonetik shaklini to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi, ayniqsa boshlang'ich bosqichlarda. Shu bilan birga, bu yondashuvlar ko'pincha passiv o'rganishga olib keladi, ya'ni o'quvchilar talaffuzni avtomatik ravishda takrorlaydi, ammo ularning nutqida erkinlik va tabiiylik sezilarli darajada yetishmaydi. Bu metodlar bugungi kunda ham foydalaniladi, biroq kardlarni ko'proq real voqelikdagi jarayonlarga tayyorlash ustuvor sanalib, zamonaviy metodlarga ehtiyoj seziladi.

Zamonaviy metodlar esa kommunikativ va interaktiv yondashuvlarga asoslanganligi ayni muddao sanaladi. Bugungi kunda tilni o'qitishda **Task-Based Language Teaching (TBLT)**, **Communicative Language Teaching (CLT)** va **Content and Language Integrated Learning (CLIL)** kabi metodlar keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar talaffuzni o'rganishni faqat tovushlar darajasida emas, balki kontekst va kommunikatsiya doirasida o'rgatishni maqsad qiladi. Misol uchun, TBLT metodida o'quvchilar haqiqiy hayotiy vazifalarni bajarish orqali talaffuzni faol qo'llaydilar,

bu esa ularning talaffuzdagi xatolarini tabiiy tarzda tuzatishga yordam beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar yordamida talaffuzni o'rgatishning yangi usullari shakllandi. Mobil ilovalar, masalan **ELSA Speak**, **BBC Learning English**, yoki **Speechling** kabi platformalar o'quvchilarning talaffuzini real vaqt rejimida tahlil qilib, ularga fonetik xatolar haqida tahliliy fikr bildiradi. **Sun'iy intellekt (AI)** va **Virtual Reality (VR)** texnologiyalaridan foydalanish ham interaktiv va immersiv muhit yaratish orqali o'quvchilarni mustaqil ravishda talaffuz ustida ishlashga undaydi. Shuningdek, **Minimal pairs**, **Shadowing**, va **Back-chaining** kabi metodlar yordamida o'quvchilar o'z talaffuzlarini sezilarli darajada yaxshilashlari mumkin. Ilmiy tadqiqotlar ham zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlamoqda. Masalan, Derwing & Munro talaffuz o'rgatishda kontekstual va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, talaffuzni izolyatsiyada emas, balki kommunikativ holatlarda mashq qilish orqali o'quvchilar real nutq sharoitiga yaqinroq ko'nikmalarni egallaydi.⁴⁷ Shuningdek, Celce-Murcia, Brinton & Goodwin talaffuz o'rgatishda multimodal metodlar (audiovizual vositalar, grafikalar, lab harakatlari)dan foydalanishning afzalliklarini ilmiy asosda yoritib bergan.⁴⁸ Celce-Murcia, Brinton va Goodwin multimodal metodlarning talaffuz o'rgatishdagi ustunliklarini ilmiy asoslab, audio, vizual va artikulyatsion kanallarning uyg'unligi o'quvchining fonologik sezgirligini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Multimodal kirish tovushlarning akustik xususiyatlarini aniqroq idrok etishga, lab va til harakatlarini kuzatish orqali esa artikulyatsiyani to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvning eng katta afzalligi shundaki, o'quvchi bir vaqtning o'zida eshitadi, ko'radi va takrorlaydi, natijada talaffuz nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkam o'zlashtiriladi. Bu jarayon uzoq muddatli nutq harakatini aniq va tushunarli taqdim etish va idrok etib tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi.

⁴⁷ Derwing T. M., Munro M. J. Second language accent and pronunciation teaching: A research-based approach. *TESOL Quarterly*, 39(3); pp 379–397. 2005
<https://doi.org/10.2307/3588486>

⁴⁸ Celce-Murcia M., Brinton D.M., Goodwin J.M. Teaching pronunciation: A course book and reference guide (2nd ed.). Cambridge University Press. 2010

Taqqoslovchi Jadval: An'anaviy va Zamonaviy Talaffuz O'qitish Metodlari

Asosiy jihatlar	An'anaviy metodlar	Zamonaviy metodlar
Yondashuv	O'qituvchi markazida	O'quvchi markazida
Metodlar	Listen & Repeat, Drill, Chorus Reading	TBLT, CLIL, Communicative Tasks, Shadowing
Interaktivlik	Past	Yuqori
Talaffuz tahlili	Subyektiv (o'qituvchi bahosi)	Ob'yektiv (AI, ilovalar yordamida avtomatik tahlil)
Kontekstga moslashuv	Cheklangan	Real hayotiy kontekstlarda amaliy mashqlar
Texnologiyalardan foydalanish	Kamdan-kam	MALL, AI, VR, interaktiv platformalar
O'quvchilar ishtiroki	Passiv	Faol
Afzalliklar	Tovushlarni aniq o'rgatadi	Ravon, tabiiy, kontekstli talaffuzni shakllantiradi
Kamchiliklar	Nutqdagi tabiiylik yetishmaydi	Yuqori texnologiyalar talab qilinadi

Umuman olganda, talaffuzni o'rgatish metodlari doimo rivojlanib bormoqda. An'anaviy yondashuvlar o'quvchining asosiy fonetik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilsa, zamonaviy metodlar esa ularning nutqdagi tabiiylik, ravonlik va kommunikativ salohiyatini oshirishga qaratilgan. Zamonaviy metodlar bilan cheklanish fonetikaga oid bilimlarning yetishmasligiga olib keladi. Shuning uchun ham har ikki yondashuvni uyg'unlashtirgan holatda o'rgatish esa eng samarali natijalarni berishi mumkin.

3. Zamonaviy texnologiyalar yordamida talaffuzni o'rgatish

Zamonaviy texnologiyalar talaffuzni o'rgatish jarayonida yangidan yangi cheksiz imkoniyatlar yaratmoqda. An'anaviy metodlar faqatgina o'qituvchi va audio materiallarga tayanib ishlagan bo'lsa, hozirgi kunda

o'quvchilar mustaqil ravishda ham talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bunda mobil ilovalar, sun'iy intellektga asoslangan tahlil vositalari, virtual muhitlar va interaktiv platformalar katta yordam beradi.

Sun'iy intellekt (AI) asosida ishlovchi ilovalar, masalan, **"ELSA Speak"**, **"Speechling"**, **"Google Pronunciation"** va **"Say It: English Pronunciation"** o'quvchilarning talaffuzlarini avtomatik tarzda tahlil qiladi va xatoliklar yuz asidan aniq fikr bildiradi. Bu texnologiyalar orqali o'quvchilar to'g'ridan-to'g'ri teskari aloqa (feedback) olishadi, bu esa ularning o'z-o'zini baholash va rivojlantirish motivatsiyasini oshiradi.

Bundan tashqari, **Virtual Reality (VR)** texnologiyalari ham talaffuzni real hayotiy vaziyatlarda mashq qilish imkonini yaratadi. Masalan, VR yordamida o'quvchilar ingliz tilida xizmat ko'rsatiladigan virtual do'kon, aeroport yoki muzeyga "borib", u yerda muomala qilishga urinadilar. Bu orqali ular nafaqat talaffuz, balki intonatsiya, urg'u, madaniy muhitga moslashuvni ham o'rganadilar.

Mobile-Assisted Language Learning (MALL) texnologiyalari orqali smartfonlar o'quvchilarning doimiy talaffuz mashqlarini olib borishiga qulaylik yaratmoqda. Mobil qurilmalar yordamida o'quvchilar vaqt va joydan qat'i nazar mashq qilishi mumkin. Bu esa ularning til o'rganishga doimiy ravishda aloqador bo'lishini ta'minlaydi.

Fonetik laboratoriya dasturlari. Lingvistik va fonetik tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan PRAAT dasturi orqali o'quvchilar o'z nutqini spektral tahlil qilish imkoniga ega. Bu orqali ular o'z tovushlaridagi tovush balandligi, davomiyligi, urg'u o'zgarishini vizual ravishda ko'rib chiqadilar. O'qituvchilar bu dasturdan individual tahlil uchun foydalanib, talabning talaffuzdagi muammoli joylarini aniq ko'rsatib bera oladi.

Onlayn platformalar va mashqlar. Quizlet, FluentU, Duolingo kabi platformalarda talaffuzga ixtisoslashgan bo'limlar mavjud bo'lib, ularda o'quvchilar eshitish, talaffuz qilish, qayta tinglash va baholash jarayonlarini o'zlari mustaqil bajarishlari mumkin. Bunday mustaqil faoliyat o'quvchining mas'uliyatini oshiradi va o'z-o'zini nazorat qilish imkonini yaratadi.

Interaktiv platformalar – masalan, **Quizlet**, **Kahoot**, **Flipgrid** – ham o‘quvchilarni talaffuz bo‘yicha ijodiy topshiriqlar bajarishga undaydi. O‘quvchilar so‘zlar yoki gaplarni talaffuz qilib yozib yuboradilar, sinfdoshlari baho beradi yoki o‘qituvchi fikr bildiradi. Bu platformalar hamkorlikda o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ilmiy izlanishlar ham zamonaviy texnologiyalarning foydasini tasdiqlaydi. Masalan, G. Derwing va M. Munro talaffuzni interaktiv usullar orqali o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda sezilarli yutuqlar kuzatilganini aniqlagan. Shuningdek, Kuk va Boersning tadqiqotlarida gamifikatsiya va VR asosida o‘rgatish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va talaffuzdagi xatoliklarni kamaytirishini ko‘rsatadi. So‘ngi yillarda ta’limda **gamifikatsiya** (ya'ni o‘yin elementlarini o‘qituv jarayoniga tatbiq etish) va **virtual haqiqat (VR)** texnologiyalaridan foydalanish sezilarli darajada kengaydi. Bu yondashuvlar ayniqsa chet tillarini, jumladan talaffuzni o‘rganishda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va samaradorlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Kuk o‘zining tadqiqotida o‘quvchilarning talaffuzni o‘rganishdagi ishtiroki va faoliyati ularning emotsional holatlari bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlagan. U gamifikatsiya asosida tashkil etilgan talaffuz mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qilganlari, ko‘proq mashq qilishga tayyor bo‘lganlari va xatolardan qo‘rqmasdan talaffuzlarini yaxshilaganlarini aniqlagan. O‘yin shaklidagi topshiriqlar (masalan, "to‘g‘ri talaffuz qil – ball to‘pla", "gapni to‘g‘ri urg‘u bilan ayt – navbatdagi bosqichga o‘t") o‘quvchilarda raqobat, qiziqish va zavq uyg‘otgan. Boers esa virtual haqiqat texnologiyalarining ta’sirini o‘rgangan. Uning tajribalari shuni ko‘rsatdiki, VR muhitida talaffuzni mashq qilish orqali o‘quvchilar "real hayotiy vaziyat"ni his qilishadi. Masalan, ular ingliz tilidagi restoranda buyurtma berish, aeroportda so‘rovga javob berish yoki ish suhbatida ishtirok etish vazifalarini bajarishgan. Shu orqali ular intonatsiya, urg‘u, tembr kabi talaffuz elementlarini tabiiy ravishda o‘rganganlar. Boers tadqiqotida VR guruhidagi o‘quvchilar talaffuzda 25-30% yaxshilanish ko‘rsatgan, bu esa VR o‘quv muhiti ta’sirini aniq ifodalaydi. Tadqiqotlar umumiy xulosasi:

✓ **Gamifikatsiya** o‘quvchilarda psixologik tayyorgarlikni kuchaytiradi, darsga ijobiy munosabat uyg‘otadi, va talaffuzdagi xatoliklarni kamaytiradi.

✓ **VR texnologiyalari** esa real sharoitda muloqot qilish imkonini berib, o‘quvchining tabiiy talaffuzga o‘rganishini tezlashtiradi.

✓ Har ikki yondashuv ham **motivatsiya, faol ishtirok va til kompetensiyasini** oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar yordamida talaffuzni o‘rgatish nafaqat samarali, balki o‘quvchilar uchun qiziqarli va moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratadi. O‘qituvchilar bu vositalarni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirib, til o‘rgatishda yanada yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Talaffuzni tahlil qilish va yaxshilashda interaktiv vositalardan foydalanish

Chet tilini o‘rganishda talaffuz eng muhim komponentlardan biri bo‘lib, u o‘quvchining og‘zaki nutqni tushunarli tarzda yetkazish qobiliyatini belgilaydi. Ayniqsa, ingliz tilida tovush tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ona tilidagi fonetik tizim bilan farq qiladi. Shu bois talaffuzni tahlil qilish va uni yaxshilashda zamonaviy interaktiv vositalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Interaktiv texnologiyalar o‘quvchilarning talaffuzdagi kamchiliklarini, nuqsonlarini aniqlash, ularni real vaqtda tuzatish, mustahkamlash va baholash imkonini beradi.

Talaffuzni tahlil qilishda interaktiv vositalarning roli. Talaffuzni tahlil qilish – bu o‘quvchining og‘zaki nutqidagi tovushlar, urg‘u, intonatsiya, ritm va boshqa fonetik jihatlarni aniqlash, baholash va ularning standart talaffuzga muvofiqligini tekshirish jarayonidir. Quyida interaktiv topshiriqlarga namunalar keltirib o‘tamiz.

🌀 Interaktiv Topshiriqlar

Topshiriq 1: Minimal Juftliklar Taqqoslash

Maqsad: O‘quvchilar o‘xshash tovushlarni ajratishni o‘rganadi.

Vazifa: Quyidagi juftliklarni tinglang va talaffuz farqlarini aniqlang. So‘ng, har bir juftlik bilan gap tuzing.

Misollar:

- *ship – sheep*
- *bit – beat*
- *cat – cut*

🗨 **Savol:** Siz uchun qaysi juftlik talaffuzda qiyin bo‘ldi? Nima sababdan?

Topshiriq 2: Shadowing Method

Maqsad: Ravon talaffuz va nutq tezligini rivojlantirish.

Vazifa: 1-2 daqiqalik inglizcha matni (intervyu yoki monolog) tanlang. Uni tinglang va bir vaqtda, ohang, urg‘u va intonatsiyani taqlid qilgan holda, matni yodga olib qayta takrorlang.

 Tavsiya etilgan video: [BBC Learning English – Shadowing Practice](#)

Topshiriq 3: Talaffuz Diagnostikasi (AI orqali)

Maqsad: Sun‘iy intellekt yordamida talaffuzdagi xatolarni aniqlash.

Vazifa: “ELSA Speak” yoki “Speechling” ilovasidan foydalaning. Inglizcha so‘zlar yoki gaplarni talaffuz qiling va natijada berilgan tahlillar asosida o‘zingizni baholang.

Savollar:

1. Sizning kuchli tomonlaringiz qaysilar?
2. Qaysi tovushlar ustida ko‘proq ishlash kerak?

Nazorat savollari

1. Talaffuzni tahlil qilishda interaktiv vositalar qanday rol o‘ynaydi?

2. Praat dasturining talaffuzni tahlil qilishdagi asosiy funksiyalarini tushuntirib bering.

3. Suprasegmental xususiyatlar nima va ular talaffuz tahlilida qanday ahamiyatga ega?

4. Sun‘iy intellekt asosidagi dasturlar talaffuzni yaxshilashda qanday afzalliklar beradi?

5. Speechling va Google Pronunciation Tool kabi ilovalarning farqli jihatlarni taqqoslab bering.

6. Flipgrid yoki Padlet platformalarida talaffuzni mashq qilish qanday amalga oshiriladi?

7. O‘quvchilarning mustaqil mashq qilishlari uchun qanday interaktiv vositalar samarali hisoblanadi?

8. Virtual reallik (VR) texnologiyalari talaffuzni o‘rgatishda qanday imkoniyatlar yaratadi?

9. Peer-review va self-assessment jarayonlari talaffuzni o'rganishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

10. Tadqiqot natijalariga ko'ra interaktiv texnologiyalar orqali o'rgangan o'quvchilar qanday yutuqlarga erishgan?

VI. Leksikani o'qitish texnologiyasi

Reja:

1. Leksikaning nazariy asoslari va o'rgatishning didaktik mohiyati

2. An'anaviy va zamonaviy leksika o'qitish metodlari

3. Leksikani o'rgatishda multimodal texnologiyalar (video, vizual, mobil ilovalar)

4. Leksikani baholashga qo'yilgan CEFR talablari

Tayanch so'zlar: Leksikani egallash,, so'z birikmalari, kontekstual o'rganish, kartochkalar, o'yinlashtirish, spaced repetition – oralig'i bilan takrorlash, word map – so'z xaritasi, semantik maydon, leksik birlik, mobil ilovalar.

1. Leksikaning nazariy asoslari va o'rgatishning didaktik mohiyati.

Leksika — bu tilning so'z birikmalari va ularning o'zaro aloqalarini o'rgatishga qaratilgan fundamental elementdir. Leksikaning asosiy vazifasi, til o'rganishda va kommunikatsiyada samarali ishtirok etish uchun zarur bo'lgan so'zlar, ifodalar va ularning ma'nolarini o'z ichiga oladi. Leksikaning didaktik mohiyati shundan iboratki, o'quvchilarni nafaqat so'zlarni yodlash, balki ularning kontekstual ma'nosini tushunish va amaliyotda ishlatish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu jarayonda o'qituvchilar o'quvchilarga tilni o'rganish jarayonida so'zlarning to'g'ri ishlatilishi, ularning kontekstual ahamiyatini anglash va o'zaro aloqasini o'rgatish orqali yordam beradilar.

Leksikani o'rganish jarayoni til o'rganishda tilning barcha komponentlarini (grammatika, fonetika, pragmatika) o'z ichiga olgan murakkab faoliyat sifatida ko'riladi. Leksikani o'rganish metodologiyasining asosiy maqsadi o'quvchilarni nafaqat so'zlarning

ma'nolarini yodlashga, balki ularni to'g'ri va samarali ishlatishga o'rgatishdir.

Kognitiv yondashuv: Leksikani o'rganishda kognitiv yondashuv asosiy o'rinni egallaydi, chunki u til o'rganuvchilarning so'zlarni eslab qolishi va ularni kontekstda ishlatishi uchun zarur bo'lgan psixologik jarayonlarga e'ti bor qaratadi. So'zlar o'quvchilarning ongida semantik tarmoqlar va xotira orqali saqlanadi. O'qitishning kognitiv aspektlari, o'quvchilarga so'zlarning ma'nolarini aniq anglash, ular orasidagi aloqalarni bilish va amaliyotda ishlatish imkoniyatini beradi. Kognitiv yondashuvning samaradorligi, o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonida o'z-o'zini tushunishga va tilni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Bu yondashuvda o'quvchilar so'zlarni xotiralarida saqlashdan tashqari, ular orasidagi aloqalarni (synonyms, antonyms, collocations) anglashadi. Shuningdek, bu yondashuv o'quvchilarga yangi leksik birliklarni eslab qolish va uni turli vaziyatlarda to'g'ri ishlatish imkoniyatini yaratadi.

Sosial konstruktivizm: Leksikani o'rganishda sosial konstruktivistik yondashuv tilni o'rganishda faqat individual o'rganish jarayonini emas, balki o'quvchilarning guruhdagi o'rganish faoliyatini inobatga oladi. Bu yondashuvda, o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik, so'zlar va ularning ma'nolarini muhokama qilish va real hayotdagi kontekstlarga moslashtirish orqali leksikani o'rganish samarali bo'ladi. Sosial konstruktivizm, bilimning shakllanishi o'quvchilarning birgalikda faoliyat yuritishi va o'zaro munosabatlarida yuzaga keladi. Shunday qilib, leksika o'rgatishda ham o'quvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashish va leksik birliklarni amaliyotga tatbiq etish samarali natijalarga olib keladi. Bu yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, o'quvchilar o'quv jarayonida bir-birlaridan yangi ma'lumotlar olishadi va bilimni real kontekstda qo'llashni o'rganadilar.

Tillararo aloqalar: Leksikani o'rganishda tillararo aloqalar ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar o'z ona tillarini va o'rganilayotgan tilni solishtirib, so'zlarning o'xshashligi yoki farqliliklarini aniqlash orqali tilni tezroq o'zlashtiradilar. Bu, ayniqsa, o'quvchilarning ikki yoki undan ortiq tillarda kommunikatsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'qitish jarayonida tillararo aloqalar orqali o'quvchilarga o'rganilayotgan tilni turli o'lchovlar bo'yicha tushunishga yordam berish mumkin. Masalan, ona tilidagi so'zlarning tarjimai va uning

ma'nosi, o'rganilayotgan tildagi so'zning sinonimlari va antonimlari haqida muhokama qilish orqali, o'quvchilar har bir leksik birligi to'liqroq va aniqroq tushunadilar. Bu metodlar o'quvchilarning bilingvistik (ikki tilda o'rganish) kompetensiyasini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Leksikani o'rgatishning didaktik mohiyati. Leksikaning o'rganilishi til o'rganish jarayonida faqat so'zlar bilan ishlashni emas, balki o'quvchilarning tilni kontekstda va real hayotda samarali qo'llashlarini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Leksika o'rgatishda didaktik metodlarning maqsadi o'quvchilarga tilni amaliyotda samarali ishlatish imkonini yaratishdir. Bunda o'qituvchilar quyidagi didaktik prinsiplarga amal qiladilar:

1. Faoliyat prinsipi: Leksika o'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish muhimdir. O'qituvchilar o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonida o'zaro muloqotda bo'lishlariga yordam berishlari kerak. Bu, ayniqsa, guruhli ishlar va rolli o'yinlar kabi interaktiv faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarni guruhda ishlashga jalb qilish, so'zlarni ishlatishda o'quvchilarning ijtimoiy interaktsiyasini kuchaytiradi va ularning leksik mahoratini oshiradi.

2. Takrorlash prinsipi: Leksikani o'rganishda takrorlashning ahamiyati katta. O'quvchilarni o'rgatishda takrorlash metodlari (spaced repetition) yordamida ularning eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi. Takrorlash orqali so'zlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga erishiladi. Takrorlashning samarali usullaridan biri, o'qituvchining o'quvchilarga yangi leksik birliklarni doimiy ravishda qaytarib turishi, so'zlarning turli vaziyatlarda ishlatilishini ko'rsatishdir.

Kontekstual yondashuv: Leksika o'rgatishda so'zlarni faqatgina yodlash emas, balki ularni kontekstda ishlatishni o'rgatish zarur. O'quvchilarga so'zlarning turli kontekstlardagi ma'nolarini tushunish va ishlatish imkonini berish uchun real vaziyatlar, hikoyalar va mavzular asosida darslar tashkil etiladi. Kontekstual yondashuv yordamida o'quvchilar so'zlarning ma'nolarini yanada chuqurroq tushunib, amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Differensial yondashuv: Har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish, leksikani o'rgatishda muhim omil hisoblanadi. Ba'zi o'quvchilar tez o'zlashtirsa, boshqalari ko'proq vaqt talab etishi mumkin. Shuning uchun, leksika o'qitishda

turli metodlar va materiallardan foydalanish zarur. Differensial yondashuv yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga qarab, darslarni moslashtirish mumkin. Masalan, tez o'rganadigan o'quvchilarga murakkab so'zlarni, sekinroq o'rganadiganlarga esa oddiyroq so'zlarni taqdim etish.

Leksikaning o'rganilishi til o'rganish jarayonida faqat so'zlar bilan ishlashni emas, balki o'quvchilarning tilni kontekstda va real hayotda samarali qo'llashlarini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Leksika o'rgatishda kognitiv, sosial va tillararo aloqalar orqali o'quvchilarning ma'naviy va til kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Shu sababli, leksikaning didaktik mohiyati, o'quvchilarga faqat so'zlarni yodlashni emas, balki ularni amaliyotda ishlatishni ham o'rgatishdan iboratdir.

Leksikaning nazariy asoslari va o'rgatishning didaktik mohiyati. Leksika tilning muhim tarkibiy qismi bo'lib, til o'rganishda uning to'g'ri tushunilishi va qo'llanilishi til o'rgatishning asosiy maqsadidir. Leksika o'rganish jarayonida tilning strukturaviy va semantik jihatlarini tushunish o'quvchilarni so'z boyligini kengaytirishda, kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Shu sababli, leksika o'qitish metodologiyasi doimo o'zgarimoqda, har bir yangi yondashuv va metodlar bilan zamonaviy talablar bilan moslashtirilgan.

Leksika o'rgatishning nazariy asoslarida ko'plab olimlarning ishlari o'rin olgan. Masalan, **Noam Chomsky** ning transformatsion-generativ grammatika kontseptsiyasi, leksikaning sintaktik tuzilishini tushunishga yordam beradi. Chomskyning fikriga ko'ra, tilning murakkab tizimi va uning tashkil topishidagi leksikaning o'rnini tilni mukammal o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Leksikani o'rganish jarayonida uning grammatik va semantik aloqalarini o'rganish o'quvchilarga so'zlarning yanada to'liq ma'nosini tushunishga yordam beradi.

Leksikaning til o'rganishdagi ahamiyati. Leksika nafaqat tilning ayrim elementlarini tashkil etuvchi, balki til o'rganish jarayonining yirik komponentlaridan biridir. O'quvchilarning leksik boyligini oshirish, ularning so'zlarni kontekstda ishlatish qobiliyatini rivojlantirish va amaliy muloqotda foydalanish ko'nikmalarini yaxshilash uchun samarali metodlar ishlab chiqilishi kerak. Merrill Swainning kommunikativ yondashuvi leksikaning til o'rgatishda

ahamiyatini yanada oshirib, soʻzlarni faqat yodlash emas, balki ulardan amaliyotda foydalanishni oʻrganishni taʼkidlaydi.⁴⁹

Bundan tashqari, Paul Nation oʻzining leksikaga doir ishlari orqali, leksikaning oʻrganilishini ikki jihatdan taʼriflaydi: **tashqi** va **ichki** leksikani oʻrganish.⁵⁰ Tashqi leksika – bu soʻzlarning qaysi biri til oʻrganuvchi tomonidan tez-tez ishlatilishini bildiradi, ichki leksika esa soʻzlarning semantik tuzilishini va ularning sintaktik qoʻllanishini tushunishni anglatadi. Michael Lewis esa leksikal yondashuvni taklif etgan holda, soʻzlarni faqat grammatik meʼyorlarga mos ravishda yodlash emas, balki ular bilan muloqotda ishlatishni taʼkidlagan.⁵¹

Leksikani oʻrgatish metodologiyasi. Leksikaning oʻrgatilishida turli metodlar qoʻllanadi. Oʻquvchilarga leksik birliklarni oʻrgatish uchun **interaktiv yondashuvlar** va **praktik metodlar** samarali boʻladi. Ushbu yondashuvlar leksikani oʻrganishning kontekstual usullariga urgʻu beradi va soʻzlar faqat alohida emas, balki toʻliq jumla va muloqotda qoʻllanilishi kerakligini taʼkidlaydi. Interaktiv mashqlar, muloqotga yoʻnaltirilgan oʻquv faoliyatlari leksikani oʻrgatishda samarali natijalarga erishish uchun asos boʻladi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda leksikaning til oʻrgatishda ijtimoiy va madaniy jihatlariga urgʻu berilmoqda. Zamonaviy tilshunoslarning fikriga koʻra, oʻquvchilar tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki madaniyat va kommunikatsiya kontekstida ham oʻrganishlari lozim. Bu yondashuv oʻquvchilarga leksikaning amaliy qoʻllanishi boʻyicha koʻnikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Leksikani oʻrgatishda zamonaviy texnologiyalarni qoʻllash. Leksikani oʻrgatishda zamonaviy texnologiyalar, masalan, **mashinalar yordamida oʻrgatish**, **mobil ilovalar** va **onlayn platformalar** yordamida oʻquvchilarga yangi leksik birliklarni tez va samarali oʻrganishga imkon yaratadi. Michael Lewisning yondashuvida leksikaning kontekstual oʻrganilishi va soʻzlarni amaliyotda ishlatishning ahamiyati koʻrsatilgan. **VR** (Virtual Reality)

⁴⁹ Swain M. Communicative competence: Some roles of comprehensible input and comprehensible output in its development. In S. Gass., C. Madden (Eds.), *Input in Second Language Acquisition*. Newbury House Publishers. pp. 235–253. 1985.

⁵⁰ Nation I.S.P. *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge: Cambridge University Press. 2001.

⁵¹ Lewis M. *The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward*. Hove: Language Teaching Publications. 1993.

texnologiyalarini qo'llash leksikani o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi, chunki o'quvchilar virtual dunyoda o'z til ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kuk va Boersning olib brogan tadqiqotlari esa gamifikatsiya va VR texnologiyalari orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va talaffuzdagi xatoliklarni kamaytirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga so'zlarni o'rganishda motivatsiya berib, ularning faoliyatini interaktiv tarzda olib borishga yordam beradi.

Leksikani o'rgatishdagi jahon va O'zbekiston olimlarining hissasi. O'zbek maktabida leksikani o'rgatish bo'yicha olib borilgan izlanishlar ham ilmiy-amaliy jihatdan muhim o'rin egallaydi. Masalan, Nasim Mamatov o'zbek tili leksikografiyasi va leksikologiyasida asosiy olimlardan biri bo'lib, u tilimiz so'z boyligini sistematik tarzda tajriba asosida tadqiq qilgan. Shuningdek, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan nashr etilgan Leksikografiya asoslari qo'llanmasida leksik materiallarni yaratish va dars jarayonida qo'llash masalalari yoritilgan.⁵² Bu yerda leksikani faqat yodlash emas, balki ularni matnda, kontekstda, tilning zamonaviy oqimida qo'llash ham ta'kidlanadi. Shu tarzda, o'zbek olimlari leksika-o'rgatish metodikasiga milliy til va madaniyatga mos ravishda yondashuv yaratishga harakat qilmoqda: ma'lumotlarni o'zbek tilining struktura va ma'naviy xususiyatlari bilan moslash, lug'at tuzishning metodologiyasini kuchaytirish, so'z-birikmalarini jamlash hamda o'quvchilarning faol til ishlatish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu esa leksikani yodlashdan ko'ra muloqotga yo'naltirilgan, ijtimoiy-madaniy kontekstda qo'llashni rag'batlantirgan murakkab ilmiy-metodik yondashuvni tashkil etadi. Natijada, dars beruvchilar va metodistlar uchun so'z boyligini rivojlantirishga qaratilgan faol, interaktiv va kontekstga asoslangan usullar ishlab chiqilmoqda, bu esa ingliz tilini yoki boshqa tillarni o'rgatishda ham leksika yo'nalishidagi samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Leksikani o'rgatish jarayoni, o'quvchilarga tilning to'g'ri ishlatilishini o'rgatish bilan birga, ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar, yangi pedagogik metodlar va olimlarning tadqiqotlari leksikaning samarali

⁵² Normamatov S. Leksikografiya asoslari. Toshkent. 2021.

o'rganishiga imkoniyat yaratadi. Bu jarayon, o'quvchilarga leksik boylikni kengaytirishda yangi imkoniyatlar ochadi va ularga amaliy til ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

2. An'anaviy va zamonaviy leksika o'qitish metodlari

Leksikani o'rgatish jarayonida an'anaviy va zamonaviy metodlar o'rtasida muhim farqlar mavjud. An'anaviy metodlar asosan so'zlarni yodlash, grammatikada to'g'ri qo'llash va ularni alohida mashqlarda ishlatishga asoslangan bo'lsa, zamonaviy metodlar o'quvchilarni interaktiv faoliyatga jalb qilgan holda, leksikani muloqotda qo'llashga qaratilgan. Har ikkala metodning o'ziga xos yutuqlari va kamchiliklari mavjud. Quyida ularni batafsil ko'rib chiqamiz.

An'anaviy leksika o'qitish metodlari

An'anaviy metodlar tilni o'rganishda ko'pincha so'zlarni yodlash va grammatik qoida asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu metodlar boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilar uchun samarali bo'lishi mumkin. Ushbu metodlar aniq va tizimli bo'lib, o'quvchilarga leksik birikmalarni yodlash orqali tilni o'rganishga yordam beradi.

So'zlarni yodlash: An'anaviy metodlarning asosiy usullaridan biri bu so'zlarni yodlashdir. O'quvchilarga yangi so'zlar berilib, ularni qayta-qayta takrorlash orqali leksikani o'rganish jarayoni amalga oshiriladi. Bu usul bilan o'quvchilar yodlangan so'zlarning talaffuzini va ma'nosini eslab qolishga harakat qilishadi. Biroq, bu metodda o'quvchilar so'zlarning amaliy ishlatilishini yetarlicha o'zlashtira olmaydilar, bu esa ularning tilni haqiqiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini pasaytirishi mumkin.

Grammatik yondashuv: An'anaviy metodlarning yana bir turi grammatik yondashuvdir. Bu yondashuvda o'quvchilar tilni grammatika asosida o'rganadilar. So'zlar grammatik jihatdan to'g'ri ishlatilishi kerakligi o'rgatiladi. Masalan, fe'l, ot, sifat kabi so'z turkumlarini alohida o'rgatish va ularni to'g'ri qo'llashga qaratilgan mashqlar bajariladi. Ushbu metod o'quvchilarga tilning strukturaviy jihatlariga e'tibor qaratishga yordam beradi, ammo o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda kamroq samarali bo'ladi.

So'zlarni turkumlash: An'anaviy metodda leksik birikmalarni turkumlarga ajratish ham keng qo'llaniladi. Masalan, "hayvonlar", "ovqatlar", "ranglar" kabi turkumlar asosida so'zlarni o'rganish. Bu usul o'quvchilarga so'zlarni muayyan kategoriya doirasida o'rganishga

yordam beradi va ular o‘qigan yoki eshitgan ma’lumotlarni osonroq eslab qolishadi. Biroq, bu metodda leksikani real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash imkoniyati cheklangan.

An’anaviy va zamonaviy metodlarning farqlari. An’anaviy va zamonaviy leksika o‘qitish metodlari orasidagi farq shundaki, an’anaviy metodlar asosan so‘zlarni yodlash va grammatik qoida asosida o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy metodlar o‘quvchilarni interaktiv faoliyatlarga jalb qilish va texnologiyalar yordamida muloqotda leksikani qo‘llashga undaydi. An’anaviy metodlar tilni tushunishga asoslanadi, zamonaviy metodlar esa leksikani amaliyotda ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Leksikani o‘qitish metodlari har doim rivojlanib bormoqda. An’anaviy metodlar o‘quvchilarni tilning grammatik asoslarini o‘rganishga yordam bersa, zamonaviy metodlar o‘quvchilarga leksikani amaliyotda qo‘llash imkonini yaratadi. Har ikkala metodni uyg‘unlashtirish va to‘g‘ri tanlash o‘quvchilarning tilni o‘rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

3. Leksikani o‘rgatishda multimodal texnologiyalar (video, vizual, mobil ilovalar)

Leksikani mustahkamlashda o‘yinlar va interaktiv platformalardan foydalanish. Glover ilmiy izlanishlari va tadqiqotida gamifikatsiya metodlarini o‘rganishda o‘quvchilarning ishtiyoqi va motivatsiyasini oshirishda o‘yinlar va interaktiv platformalarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. U o‘zining tadqiqotida o‘yinlarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirganini ko‘rsatadi. Gloverning ishlari, o‘yinlar orqali o‘quvchilarning leksikani eslab qolish va qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini tasdiqlaydi. Gee o‘zining “What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy” kitobida o‘yinlarning til o‘rgatish jarayonidagi rolini tahlil qilgan. U o‘yinlar orqali o‘quvchilarning o‘rganishga faol yondoshuvini rivojlantirish, til ko‘nikmalarini mustahkamlash va yangi leksikani o‘rganishda o‘yinlar samarali vosita ekanligini ta’kidlaydi. Squire tadqiqotlarida interaktiv o‘yinlar va onlayn platformalar yordamida til o‘rganishning samaradorligini ko‘rsatadi. U o‘quvchilarning o‘rganishga nisbatan motivatsiyasini oshirish va leksikani mustahkamlashda o‘yinlarning samarali bo‘lishini

ta'kidlaydi. Squirening ishlari, o'yinlar va interaktiv vositalar orqali til o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qilishga yordam berishini ko'rsatadi. Ushbu olimlarning izlanishlari leksikani o'rgatishda o'yinlar va interaktiv platformalarning o'quvchilarning motivatsiyasi, hamda faol ishtiroki va til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Leksikani o'rganishda vizual vositalar Leksikani o'rgatishda vizual vositalardan foydalanish samarali metod hisoblanadi. Masalan, interaktiv diagrammalar, rasmlil kartochkalar, videolar va slaydlar orqali leksika o'rganishni yanada qulaylashtirish mumkin. Rasm va diagrammalar tilni o'rganishda eslab qolish jarayonini yaxshilaydi, chunki ular o'quvchilarga so'zlar bilan bog'liq tasavvurlarni yaratishga yordam beradi. Vizual vositalar orqali so'zlarning ma'nosi, ishlatilishi va kontekstga moslashuvi aniqroq va tushunarliroq bo'ladi.

O'yinlar va interaktiv vositalarning afzalliklari O'yinlar va interaktiv platformalar leksikani o'rganishning eng yaxshi usullaridan biri bo'lib, ular o'quvchilarga ko'p marta takrorlash imkoniyatini yaratadi, bu esa so'zlarni uzoq vaqt davomida eslab qolishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'yinlar va platformalar o'quvchilarga qiziqarli va motivatsiyali tarzda o'rganish imkoniyatini beradi, bu esa ularning tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Natija va tahlil .O'yinlar va interaktiv platformalar yordamida leksikaning o'rganish jarayoni yanada samarali bo'ladi. O'quvchilar o'rganilayotgan so'zlarni o'yinlar va platformalar orqali takrorlash, so'z boyligini kengaytirish va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatini olishadi. Bu metodlarning o'quvchilarning motivatsiyasi va til ko'nikmalarini oshirishdagi samaradorligi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Misol uchun, Kuk va Boers tadqiqotlarida gamifikatsiya va virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi hamda talaffuzdagi xatoliklarni kamaytirishini ko'rsatgan. Gamifikatsiya orqali o'quvchilar o'rganish jarayoniga yanada faollik bilan kirishib, leksikani ko'proq eslab qolishga muvaffaq bo'ladilar.

Leksikani o'rganishda o'yinlar va interaktiv platformalar foydalanuvchilar uchun qiziqarli va samarali vositalar hisoblanadi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ular leksikani mustahkamlashga, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam

beradi va o'quv jarayonini samarali qiladi. O'yinlar va platformalardan to'g'ri foydalanish, o'quvchilarga tilni o'rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.

4. Leksikani baholashga qo'yilgan CEFR talablari

Zamonaviy til o'qitish metodikasi bugungi kunda faqatgina grammatik qoidalarni yodlatish va fonetik me'yorlarni egallash bilan cheklanmaydi. Til o'rgatishning markazida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, ya'ni o'quvchining haqiqiy hayotiy muloqotlarda samarali ishtirok eta olishini ta'minlash turadi. Bunda eng muhim tarkibiy qismlardan biri bu – **leksik kompetensiyadir**. Chunki, til o'rganuvchi grammatikani bilmasligi mumkin, biroq yetarli leksik zaxiraga ega bo'lsa, fikrini yetkazishda unchalik qiynalmaydi. Aksincha, grammatikani yaxshi bilgan, ammo so'z boyligi kam bo'lgan o'quvchi erkin muloqot qila olmaydi.

Bu nuqtai nazardan, leksikani baholash va uning o'zlashtirilgan darajasini aniqlash til o'rgatish jarayonining ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bu jarayonda **CEFR – Umumiy Yevropa Til Me'yorlari** muhim o'rin egallaydi. CEFR tizimi til o'rganish, o'qitish va baholashda yagona mezonlarni belgilab beruvchi xalqaro standart bo'lib, til o'rganish jarayonini samarali boshqarish va nazorat qilishga xizmat qiladi.

CEFR nafaqat tilni egallash darajalarini (A1 dan C2 gacha) belgilab beradi, balki bu darajalarda o'quvchilar qanday **leksik ko'nikmalarga ega bo'lishi** lozimligini ham aniq tavsiflab beradi. Bunda o'quvchilarning qancha so'z bilishi emas, balki ularni **to'g'ri, mos, aniqlik bilan va muloqot kontekstida ishlata olish qobiliyati** asosiy mezon sifatida e'tiborga olinadi.

Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilar va test tuzuvchilar leksikani baholashda klassik yondashuvlardan foydalanmoqda – bu esa CEFR tizimining mohiyatiga to'liq mos kelmasligi mumkin. Shu sababli, CEFR asosida leksikani baholash talablarini chuqur o'rganish, o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish, ta'limni xalqaro standartlarga mos yo'naltirish uchun zaruriy omil hisoblanadi.

Yevropa kengashining "Chet tillarini o'rganish, o'qitish va baholash uchun Umumiy Yevropa Tavsiyanomasi" (CEFR) talablari til o'rganish jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich rivojlantirishga asoslanadi. Bu hujjatda so'z boyligi (leksika) til bilish darajasining

ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqiladi va har bir darajada o‘quvchining egallashi lozim bo‘lgan leksik bilim va ko‘nikmalar aniq belgilab berilgan.

CEFR darajalarida leksikani egallash ko‘rsatkichlari. CEFR umumiy til kompetensiyasini A1, A2, B1, B2, C1 va C2 kabi oltita asosiy darajaga bo‘ladi. Har bir daraja doirasida leksik bilimlar va ularni kommunikativ faoliyatda qo‘llash malakalari quyidagicha tavsiflanadi:

A1 (Boshlang‘ich): Kundalik hayotdagi asosiy so‘zlar va iboralarni tushunadi va ishlata oladi (masalan, oila a‘zolari, kundalik mashg‘ulotlar, asosiy ob‘ektlar nomlari). Taxminan 500–600 atrofida so‘z biladi.

A2 (Elementar): Tez-tez uchraydigan so‘zlar va iboralarni tushunadi (do‘kon, transport, ish joyi kabi). Leksik zaxirasi taxminan 1000–1500 so‘zni tashkil etadi.

B1 (O‘rta): O‘z sohasi va qiziqish doirasidagi mavzularda erkin fikr bildira oladi. Bir oz murakkab iboralar, sinonimlarni ishlatadi. So‘z boyligi 2500–2750 so‘z atrofida bo‘ladi.

B2 (Yuqori o‘rta): Har xil mavzularda noaniqliksiz fikr yurita oladi. So‘z tanlashda aniqlikka e‘tibor beradi, iboraviy birliklar (collocations) va frazeologik ifodalarni qo‘llaydi. Leksik zaxira 4000–5000 so‘zdan ortiq.

C1 (Ilg‘or): So‘zlarni kontekstdan kelib chiqib noaniqliksiz tanlaydi. Stilistik moslik, sinonimiya va antonimiya darajasida so‘zlar ustida ishlay oladi. So‘z boyligi 8000–9000 so‘zni tashkil etadi.

C2 (Ustalik): Har qanday mavzuda o‘zini erkin va aniq ifodalaydi. So‘zlarni nutq maqsadiga qarab ongli tanlaydi, turli nutq uslublaridan foydalanadi. Leksik zaxirasi 12000–16000 so‘zgacha bo‘lishi mumkin.

Leksik kompetensiyani baholash mezonlari. CEFR leksik kompetensiyani quyidagi komponentlar asosida baholashni taklif qiladi:

✓ **Leksik diapazon (lexical range):** Turli mavzular bo‘yicha so‘zlarni bilish va ishlatish qobiliyati.

✓ **Leksik aniqlik (lexical accuracy):** So‘zlarni kontekstda to‘g‘ri ishlata olish.

✓ **Iboraviy birliklar (collocations) va frazeologiyalarni** ishlata olish.

✓ **Sinonim va antonimlar bilan ishlash**, stilistik o'zgarishlarga moslashish.

Baholash vositalari va shakllari. Leksikani baholashda CEFR tavsiyalariga asoslangan turli shakllar qo'llaniladi:

Testlar: Multiple choice, gapni to'ldirish, sinonim/antonim tanlash, kontekstga mos so'z tanlash.

Yozma topshiriqlar: Erkin insho, tavsif, xat yozish – so'z boyligini aniqlash uchun.

Og'zaki topshiriqlar: Muloqotli savol-javoblar, mavzuli suhbatlar, monologlar.

Baholashda nafaqat qancha so'z bilishi, balki ularni **to'g'ri, aniq va kontekstda mos ravishda ishlata olish** darajasi asosiy mezon sifatida olinadi. Leksikani baholashda kommunikativ yondashuvning o'rni alohida ro'l o'ynaydi. CEFR baholashga kommunikativ yondashuvni asos qilib oladi. Bu esa o'quvchilarning leksik zaxirasini **amaliy muloqotda ishlata olish** qobiliyatini aniqlashni talab qiladi. Ya'ni, o'quvchi grammatik to'g'rilikdan tashqari, muloqotdagi mos so'z tanlash, iboralar ishlatish, uslubga moslashish kabi ko'nikmalarni namoyon qilishi kerak.

CEFR asosida baholashda metodik tavsiyalar

➤ O'quvchilarning til darajasi aniq belgilanishi uchun **diagnostik testlar** o'tkazish lozim.

➤ So'z boyligini rivojlantirish uchun **korpus asosidagi** leksik testlar qo'llanilishi mumkin.

➤ Baholash natijalari **reflektiv yondashuv** bilan qayta tahlil qilinib, o'quvchiga shaxsiy til rivoji uchun tavsiyalar berilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Leksikaning o'qitilishining nazariy asoslarini tushuntirib bering.
2. Zamonaviy leksika o'qitish metodlari qanday farq qiladi va ulardan qaysi biri samaraliroq hisoblanadi?

3. Multimodal texnologiyalar (video, vizual, mobil ilovalar) leksikani o'rgatishda qanday rol o'ynaydi?

4. O'quvchilarning leksikani eslab qolish va amaliyotda qo'llashdagi muvaffaqiyatlarini qanday o'lchash mumkin?

5. O'quvchilar leksikani faqat yodlash orqali emas, balki qanday yo'llar bilan o'zlashtirishi kerak?

6. Til o'rgatishda madaniy kontekst va leksika o'zaro qanday bog'liq?

7. Leksikani baholashda test topshiriqlari qanday tuziladi?

8. CEFR talablariga mos baholovchi mashqlar turlari nimalardan iborat?

9. Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar qanday leksikani baholaydi?

10. CEFR asosida leksikani baholashda qanday kamchiliklar yoki qiyinchiliklar uchrashi mumkin?

VII. Grammatikani o'rgatish texnologiyalari

Reja:

1. Grammatik kompetensiyaning lingvodidaktik mohiyati va uning til o'rganishdagi roli.

2. An'anaviy grammatika o'rgatish metodlarining zamonaviy ta'lim konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirilishi.

3. Elektron ta'lim muhitida grammatika o'rgatish: Grammatikani mustahkamlashda kollaborativ va reflektiv metodlar

4. Grammatika bilimlarini mustahkamlashda interaktiv metodlar va gamifikatsiya vositalarining amaliy ahamiyati.

Tayanch so'zlar: Grammatik kompetensiya, lingvodidaktika, zamonaviy yondashuvlar, kollaborativ metodlar, reflektiv ta'lim, elektron o'quv muhit, interaktiv usullar, gamifikatsiya, mustahkamlovchi faoliyatlar, kommunikativ ko'nikmalar.

1. Grammatik kompetensiyaning lingvodidaktik mohiyati va uning til o'rganishdagi roli.


Grammatika, bir tomondan, "tilda so'zlarni o'zgartirish, so'z shakllarini shakllantirish va so'zlarni ibora va jumalarga birlashtirish uchun ob'ektiv ishlaydigan qoidalar tizimi" va boshqa tomondan, tilshunoslikning ushbu tizimni o'rganadigan bo'limi sifatida tushuniladi. Agar grammatikaning funktsiyalarini lingvistik nuqtai nazardan ko'rib chiqsak, rus va sovet tilshunosi L.V. Shcherbe, grammatikaning ikkita asosiy funktsiyasi mavjud: 1. voqelik

predmetlari va hodisalarini ifodalangan grammatik ma'nolar orqali eng to'g'ri belgilash. Masalan, otning soni yoki fe'lning mayli va zamoni muhim rol o'ynaydi; 2. mumkin bo'lgan noaniqliklarga yo'l qo'ymaslik uchun jumladagi so'zlar orasidagi semantik munosabatlarni ifodalash. Shunday qilib, grammatika iboralarni malakali shakllantirish modellarini belgilaydigan lingvistik tuzilmadir. Binobarin, chet tillarini o'qitishda grammatika muhim o'rin tutadi. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy ta'limning maqsadi kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish bo'lib, u mahalliy metodologiyada til, nutq, ijtimoiy madaniy, kompensatsiya va ta'lim-kognitiv kompetentsiyani o'z ichiga oladi. O'z navbatida, atrofdagi voqelik va muloqot to'g'risidagi bilimlar asosidagi lingvistik kompetentsiyaning rivojlanishi uning tarkibiy qismlaridan biri sifatida grammatik kompetentsiyani rivojlantirishga asoslanadi, uning shakllanish darajasi grammatik vositalardan foydalanish qobiliyatiga asoslanadi. Til, grammatik tuzilish, aniq strukturaviy bilimga asoslangan, bu nafaqat reseptiv, balki produktiv ko'nikmalarga ham to'g'ridan to'g'ri hissa qo'shadi. Bundan kelib chiqadiki, grammatik kompetensiya tilni amaliy nuqtai nazardan, muloqot vositasi sifatida egallashning zarur shartlaridan biridir. Grammatikani o'rganish va o'rgatish zamonaviy pedagogik voqelikdagi munozarali masalalardan biri bo'lishiga qaramay, ko'pgina ilmiy tadqiqotlar grammatikani o'rganish chet tilini o'qitish jarayonining bir qismi bo'lib qolishi kerak, ammo uning maqsadi sifatida emas, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

Samarali madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida, shu nuqtai nazardan, shuni ta'kidlash kerakki, grammatik ko'nikmalarni rivojlantirish chet tillarini o'rganishga asos bo'lgan to'rtta ko'nikmalar: tinglash, o'qish, gapirish va yozishni parallel ravishda takomillashtirish bilan birga keladi. Bu o'rganilayotgan tilning tizimli tuzilishini o'zlashtirish chet tili nutqini chuqurroq tushunishga xizmat qilishi, bu esa, tilni bilishning umumiy darajasini oshirishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, grammatikani o'rganishning afzalliklarini tasdiqlovchi olimlardan biri ingliz tilini o'qitish sohasida xalqaro miqyosda tan olingan ta'lim murabbiyi Skott Tornberry bo'lib, u tilning grammatik tuzilishini bilish talabalarga foydalanish uchun sezilarli darajada ko'proq joy beradi, deb ta'kidladi.⁵³ Lingvistik birliklar, bu sizga

⁵³ Thornbury S. How to Teach Grammar. Pearson Education Limited. 1999.

minimal miqdordagi semantik bayonotlarni yaratishga imkon beradigan cheklangan grammatik tuzilmalar bilan solishtirganda individual til ijodkorligini samarali kengaytiradi. Shunday qilib, grammatik ko'nikmalarning rivojlanishi nafaqat til, balki nutq kompetensiyalarining shakllanishi va yanada rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, psixolog B.V. Belyaev "chet tilidagi jummalarni qurish qoidalarini bilish uchun emas, balki o'z nutqida turli grammatik konstruktsiyalarni amalda o'zlashtirishi kerak". Ushbu fikrni 1956 yilda ishlab chiqilgan va 2001 yilda o'zgartirilgan "Blum taksonomiyasi" qo'llab-quvvatlashi mumkin, bu eng oddiydan murakkabroqgacha tasniflangan ta'lim maqsadlari tizimidir.



3- rasm. Bloom taksonomiyasi

Bloom taksonomiyasi 6 darajani o'z ichiga oladi: eslash, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish.

Umuman olganda, har bir daraja avvalgisining davomidir, shuning uchun olingan material mustahkam mustahkamlanadi va uni ongli ravishda ishlab chiqish sodir bo'ladi, chunki murakkab bilimlar shakllanadi, uning yordamida chet tilini o'rganish qoidalarini yodlashdan aylanadi. Bu muloqotning rivojlanish sharoitlariga qarab nutqning moslashuvchanlik darajasini oshiradi. Grammatikani o'rganishning boshqa afzalliklari orasida o'quvchilarning madaniyatlararo muloqotga bo'lgan ishonchi ortishi kiradi, chunki ular o'z fikrlari va his-tuyg'ularini samarali ifoda eta oladilar, bu esa ularning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi. Shuni hisobga olish kerakki, grammatik ko'nikmalarning rivojlanishi bilan birga nutq kompetensiyasi yanada mustahkam shakllanadi, bu "ma'lum bir tilda

nutqni ravon amaliy o‘zlashtirish, dialogda ham, to‘g‘ri, ravon va dinamik gapirish qobiliyati deb ta’riflanadi. Monolog shaklida, eshitiladigan va o‘qilishi mumkin bo‘lgan nutqni yaxshi tushunish, shu jumladan, har qanday funksional uslubda nutqni ishlab chiqish va tushunish qobiliyatidir”.⁵⁴ Natijada, to‘g‘ri grammatikani egallash o‘quvchilarga o‘z fikrlarini aniq va aniq ifodalash imkonini beradi, bu esa ularni yanada yaxshi muloqot qilish imkonini beradi, deb ta’kidlash mumkin. Xulosa qilib shuni qo‘shimcha qilishimiz mumkinki, ko‘p komponentlilik va o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklariga qaramay, grammatika chet tilini o‘rganishning ajralmas jihati hisoblanadi.

Grammatik kompetensiya – bu o‘rganilayotgan tilda grammatik tizimni tushunish, undan to‘g‘ri va mantiqiy foydalanish qobiliyatidir. U til o‘rganishning asosiy komponentlaridan biri sifatida til egallovchining nutqini tuzishda va muloqotni aniq ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Chet tilini o‘rganishda grammatika o‘quvchining lisoniy bilimlarini strukturaviy asosda shakllantiradi va kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Lingvodidaktik yondashuvda grammatik kompetensiyaning o‘rni. Lingvodidaktika fanida grammatik kompetensiya – bu faqat grammatik qoidalarni yod olish emas, balki ularni kontekstda qo‘llay olish ko‘nikmasi deb qaraladi. Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan "lingvistik kompetensiya" tushunchasi asosida bu kompetensiya o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan didaktik jihatdan qayta talqin qilinmoqda. Xususan, Mahmudov⁵⁵ va Nazarova⁵⁶ o‘z tadqiqotlarida grammatik bilimlar kommunikativ faoliyatga xizmat qilishi kerakligini ta’kidlaydilar.

Psixolingvistik va sotsiokognitiv qarashlar. Grammatika o‘rganish faqat sintaktik va morfologik bilimlarni egallash emas, balki kognitiv jarayonlar, xotira, fikrlash va diqqat bilan uzviy bog‘liqdir. Vygotskiy fikricha, til o‘zlashtirish jarayonida grammatika ijtimoiy-madaniy kontekst orqali shakllanadi. Bu fikr zamonaviy psixolingvistik yondashuvlarda aks etgan bo‘lib, grammatikani o‘rgatishda vizual, eshitish va kinestetik kanallar orqali multimodal ta’lim taklif etiladi.

⁵⁴ Jalolov J. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, “O‘qituvchi” nashriyoti. 2010

⁵⁵ Mahmudov N. Tilshunoslik va til o‘rgatish metodikasi asoslari. Toshkent: Fan. 2020

⁵⁶ Nazarova D. Chet tilini o‘qitishda grammatika va kommunikativ yondashuvlar uyg‘unligi. Toshkent: Ilm Ziyosiyoti. 2022

CEFR doirasida grammatik kompetensiya. Yevropa til portfeli (CEFR) hujjatlarida grammatik kompetensiya "lingvistik kompetensiya" tarkibida keltirilgan. Unda aytilishicha, til egallovchi grammatik birliklar, ularning kombinatsiyasi va funksiyasini to'g'ri ishlata olish darajasiga qarab A1 dan C2 gacha bo'lgan darajalarda baholanadi. Bu esa ta'lim jarayonida grammatik ko'nikmalarni tizimli va bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. O'rganuvchi grammatika bilimlarini o'zlashtirgach, ular asosida turli ijtimoiy muloqot vaziyatlarida grammatik jihatdan to'g'ri va ravon fikr bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hymes tomonidan ilgari surilgan "communicative competence" modeli grammatik kompetensiyani mazmunli muloqot qilishning ajralmas elementi sifatida ko'rsatadi. Shu sababli, til o'rgatishda grammatikani kontekstual yondashuvda, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar orqali o'rgatish tavsiya etiladi.

Grammatik kompetensiyani rivojlantirish til o'rganishda zaruriyat bo'lib, u lisoniy ifodaning aniqligi va muloqot samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Lingvodidaktik, psixolingvistik va sotsiokognitiv qarashlar asosida grammatikani o'rgatish til o'rganuvchining chuqur va barqaror bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababdan, grammatika o'rgatish texnologiyalari zamonaviy, multimodal va individual yondashuvlarga asoslangan bo'lishi kerak.

2. An'anaviy grammatika o'rgatish metodlarining zamonaviy ta'lim konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirilishi

Til o'rgatish metodikasida grammatika o'rgatishning an'anaviy yondashuvlari uzoq yillardan beri ta'lim tizimida qo'llanib kelinmoqda. Biroq XXI asrning o'zgaruvchan axborot makonida bu metodlarni zamonaviy ta'lim konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirish zarurati tobora oshmoqda. Bugungi kunda metodikaga integratsiyalashgan, interaktiv va kommunikativ yondashuvlar singdirilmoqda.

An'anaviy metodlarning asosiy jihatlari. An'anaviy grammatika o'rgatish metodlari asosan:

1. Qoidaga asoslangan o'rgatish (rule-based instruction) – o'quvchilarga grammatik qoidalar bevosita tushuntiriladi.

2. Mashq qilishga asoslangan yondashuv (drilling) – ma'lum bir grammatik struktura ustida takroriy mashqlar bajariladi.

3. Tarjimaga tayangan metod (grammar-translation method) – grammatika yodda saqlanadi va tarjima orqali mustahkamlanadi.

Bu yondashuvlar XX asrda o‘z davrida samarali bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kunda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda yetarli emasligi sababli ularni zamonaviy konsepsiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Hozirgi ta‘lim paradigmasi **o‘quvchi markazli yondashuv(student-centered), kommunikativ til o‘rgatish, konstruktivistik pedagogika, multimodal va kollaborativ ta‘lim** asosida shakllanmoqda. Bu konsepsiyalar grammar-focused o‘rgatishni kontekstda qo‘llash, muloqot orqali o‘rganish va axborot texnologiyalariga tayangan o‘qitishni talab qiladi. Kognitiv yondashuvlar (Anderson, 1983) til o‘rgatishda o‘quvchining aqliy faoliyatini inobatga oladi. Grammatikani o‘rgatishda bu yondashuv o‘quvchining mustaqil ravishda qoida kashf etishiga yo‘l ochadi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi bevosita qoida berish o‘rniga, misollar orqali o‘quvchini tahlilga jalb etadi.

Masalan, **Task-based learning (TBL)** va **Content and Language Integrated Learning (CLIL)** yondashuvlarida grammatika kontekstda beriladi. Grammatika maqsad emas, vosita sifatida taqdim etiladi. Bu esa an’anaviy metodlar va zamonaviy konsepsiyalar uyg‘unlashuvining amaliy ifodasidir. Ellis o‘z tadqiqotlarida “explicit vs. implicit grammar instruction” masalasini o‘rganib, an’anaviy (qoidaga asoslangan) va zamonaviy (kontekstga asoslangan) yondashuvlarning integratsiyasi orqali eng yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatgan.

Uyg‘unlashtirishning amaliy usullari:

1. Qoidani kontekst orqali ochish: An’anaviy qoida bevosita berilmaydi, balki o‘quvchilar real vaziyatdagi matnlardan qoida chiqarib olishga undaladi.

2. Aralash metodlar (blended methods): Qoidani izohlash – muloqot – mustahkamlash bosqichlarini o‘z ichiga olgan metodik model qo‘llaniladi.

3. Gamifikatsiya: Qoidalarni o‘rganish va mashq qilishni o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirish.

An’anaviy grammatika o‘rgatish usullari hali ham pedagogik ahamiyatga ega. Ularni zamonaviy ta‘lim konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki motivatsiyasini, kreativ tafakkurini va kommunikativ qobiliyatini ham

rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, didaktik metodlar orasida uyg'unlik va yangilikni izlash har bir zamonaviy til o'qituvchisining ustuvor vazifasiga aylangan.

3. Elektron ta'lim muhitida grammatika o'rgatish: Grammatikani mustahkamlashda kollaborativ va reflektiv metodlar

Zamonaviy til o'rgatish jarayoni har qachongidan ko'ra ko'proq texnologik vositalar, innovatsion metodlar va multimodal yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Ayniqsa, grammatika kabi murakkab til unsurlarini o'rgatishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish tilni o'rganish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi va o'quvchilar uchun jozibador qiladi. **Grammatikani o'rganishda texnologik yondashuvlarning roli.** An'anaviy yondashuvlarda grammatika ko'proq yozma va og'zaki mashqlar asosida mustahkamlanar edi. Biroq zamonaviy metodlar bu yondashuvni quyidagi vositalar bilan kengaytirmoqda:

- Vizual (rasm, grafik, video)
- Audio (podkast, interaktiv nutq misollari)
- Raqamli (onlayn platformalar, simulyatsiyalar)
- Mobil (ilovalar orqali mashqlar)
- AR/VR (kengaytirilgan va virtual haqiqatda grammatika mashqlari)

Innovatsion interaktiv metodlar. Zamonaviy metodlar orasida quyidagilar samaradorligi bilan ajralib turadi:

Grammatikani o'rgatishda o'yin elementlaridan foydalanish (masalan, "kahoot", "wordwall", "quizizz") o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi. Kuk tadqiqotlariga ko'ra, gamifikatsiya asosidagi darslar o'quvchilarning grammatik xatolarini 30% gacha kamaytiradi.

Flipped classroom (teskari sinf) modeli. O'quvchilar grammatikani oldindan video darslar orqali o'rganadi, sinfda esa amaliy vazifalarni bajariladi. Bu metod Grigoryeva tomonidan Rossiyada testdan o'tkazilib, grammatika o'rganishda mustaqil fikrlash va faol ishtirokni kuchaytirgan.

Mobil ilovalar. Duolingo, Grammarly, LingQ kabi ilovalar o'quvchilarga har kuni qisqa mashqlar bilan grammatika o'rganishga yordam beradi. Bu yondashuv "microlearning" (mikro-o'rganish) deb atalib, qisqa, ammo samarali bo'laklarda bilim berishni maqsad qiladi.

Konseptual grammatik xaritalar. Grammatika qoidalarini vizual diagramma yoki xarita shaklida tushuntirish. Bu yondashuv Buzan (2005) tomonidan “aqliy xaritalar” usuli asosida taklif etilgan. Grammatika qoidalarini daraxt ko‘rinishida tuzish o‘quvchilarga mantiqiy aloqalarni yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Zamonaviy o‘qituvchilar uchun grammatika o‘rgatishda quyidagi texnologik vositalar ayniqsa muhim:

Platforma	Funksiyasi	Afzalliklari
Moodle / Google Classroom	Topshiriq berish, izohlash, test sinovlari	Raqamli kuzatuv va hisobotlar
Kahoot / Quizizz	O‘yin asosida testlar	Rag‘batlantiruvchi, musobaqalashuv elementi
Nearpod / Edpuzzle	Interaktiv video darslar	Video asosida grammatika tahlili
Grammarly	Real vaqtli grammatik tuzatish	Avtomatik tekshiruv va taklif
Duolingo	Qadam-baqadam grammar mashqlari	Mobil qulaylik va gamifikatsiya

🌀 Metodik tavsiyalar

1. Grammatika darslariga texnologik vositalarni rejalashtirib kiritish.

2. Har bir grammatika qoidasi uchun interaktiv mashq yoki o‘yin yaratilgan bo‘lishi.

3. O‘quvchilarni o‘zlari mobil vositalar orqali grammatika loyihalari yaratishga jalb qilish.

4. O‘quvchilarning qiziqishini saqlab qolish uchun darslarni vizual va tinglab o‘rganishga mos formatda tashkil etish.

Grammatikani o‘rgatishda texnologik hamda interaktiv yondashuvlar an’anaviy metodikani samarali tarzda to‘ldiradi. O‘qituvchilar uchun asosiy vazifa – texnologik vositalarni dars jarayoniga moslashtirish, o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari asosida individual yondashuvni yaratishdir. Texnologiyalar yordamida grammatika darslari zerikarli emas, balki qiziqarli va mazmunli bo‘lishi mumkin.

Grammatikani mustahkamlashda kollaborativ va reflektiv metodlar. Zamonaviy til o‘qitish amaliyotida grammatikani mustahkamlashga doir kollaborativ (hamkorlikda o‘rganish) va reflektiv (fikir-mulohaza asosidagi) yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot ko‘nikmalarini va chuqur til tahlilini rivojlantiradi.

Kollaborativ yondashuv mohiyati. Kollaborativ o‘rganish – bu o‘quvchilar bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan holda bilim olishga yo‘naltirilgan metod. Grammatikani o‘rganishda ushbu metod orqali o‘quvchilar murakkab qoidalarni tushuntirish, muhokama qilish, amaliy mashqlarni birgalikda bajarish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi. Slavin tomonidan taklif etilgan kollaborativ o‘rganish modeli til o‘rganishda o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. M. Qosimova⁵⁷ o‘zining “Kollaborativ metodlar orqali chet tilini o‘rgatish samaradorligi” nomli maqolasida grammatik qoidalarni jamoaviy muhokama qilish orqali o‘zlashtirish 40% ga samaraliroq bo‘lishini ta’kidlaydi.

Reflektiv metodlar mohiyati. Refleksiya — bu o‘quvchi o‘z o‘rganish jarayonini tahlil qilishi, xatolarini anglab yetishi va ularni tuzatish yo‘llarini aniqlashi. Grammatikani o‘rganishda refleksiya quyidagicha qo‘llaniladi:

- ✓ Grammatika kundaligi yuritish
- ✓ Mashqlardan so‘ng “men nimani o‘rgandim?” savoliga javob yozish
- ✓ O‘quvchi o‘zining yozgan matnini grammatik jihatdan tahlil qilishi

Interaktiv reflektiv mashg‘ulotlar misollari:

- ❖ “Think-Pair-Share”: Avval o‘quvchi mustaqil grammatik tahlil qiladi, so‘ng juftlikda almashadi, keyin esa sinf bilan fikr almashadi.
- ❖ “Error Hunt”: O‘quvchilar kichik matnda xatolarni topadi va ularni tuzatib, qanday qoidalar asosida tuzatganini izohlaydi.
- ❖ “Grammar Blog”: Talabalar dars davomida grammatik xatolari va ularni tuzatish yo‘llarini yozib boradigan onlayn blog yuritadilar.

⁵⁷ Qosimova M. Kollaborativ metodlar orqali chet tilini o‘rgatish samaradorligi. O‘zbekistonda xorijiy tillar, №2(46), 2022. Pp 65–70.

Metodik tavsiyalar

1. Dars yakunida o'quvchilarga qisqa reflektiv savollar berish: "Qaysi grammatik qoidani yaxshi tushunmadim?", "Qanday mashq menga yordam berdi?"

2. Kollaborativ guruhlar tashkil qilib, har bir guruhga grammatik topshiriqlar berish va taqdimot qilish.

3. "Peer-review" (juftlikdagi tekshiruv): o'quvchilar bir-birining ishini tahlil qilishi va xatolarini izohlashi.

Kollaborativ va reflektiv metodlar grammatikani chuqurroq tushunish, ko'nikmalarni mustahkamlash hamda xatolardan o'rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi va o'z fikrini tahlil qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

4. Grammatika bilimlarini mustahkamlashda interaktiv metodlar va gamifikatsiya vositalarining amaliy ahamiyati.

Chet tillarini o'qitish metodikasida interaktiv yondashuvlar grammatikani o'zlashtirishda chuqur va samarali ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi. An'anaviy yondashuvlarda o'qituvchi markazli darslar hukmron bo'lib, o'quvchi ko'proq tinglovchi va yozuvchi sifatida ishtirok etgan bo'lsa, interaktiv metodlar bu vaziyatni tubdan o'zgartiradi. Ular o'quvchini passiv eshituvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi va mustaqil fikrlash, muloqot qilish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu fikrni tasdiqlovchi muhim nazariy asoslardan biri bu Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan sotsiokultural nazariya hisoblanadi. Vygotsky o'zining izlanishlarida inson ongining shakllanishi ijtimoiy faoliyatlar va muloqotlar orqali yuzaga chiqishini, o'quvchilar esa o'z atrofida bilan hamkorlikda o'rganish orqali chuqurroq bilimga ega bo'lishlarini ta'kidlaydi. Grammatika kabi tilning murakkab qoidalari aynan muloqot orqali va interaktiv faoliyatlar doirasida o'zlashtirilganda samaraliroq o'rganiladi.

Interaktiv metodlar doirasida eng samarali shakllardan biri bu – **juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash orqali grammatik topshiriqlarni bajarishdir.** Masalan, o'quvchilar bir-biri bilan fikr almashish orqali grammatik tuzilmalarni real kontekstda qo'llashadi: gap tuzish, jumladagi xatolarni aniqlash, fikrni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish. Bunday jarayonda o'qituvchi faqat ma'lumot

manbai emas, balki ko‘proq yo‘naltiruvchi va faoliyatni muvofiqlashtiruvchi sifatida ham ishtirok etadi.

Yana bir samarali metod bu – **rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali grammatika o‘rganish**dir. Masalan, “savdo qilish”, “kasalxonaga borish” yoki “suhbatga tayyorlanish” kabi vaziyatlar yaratilib, o‘quvchilarga berilgan vazifalarni bajarish davomida tegishli grammatik strukturalarni qo‘llash topshiriladi. Bunday faoliyatlar o‘quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini mustahkamlash, balki ularni real hayotiy kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Shuningdek, **Muammoga asoslangan o‘rganish** (Problem-Based Learning) usuli ham grammatika o‘rgatishda keng qo‘llaniladi. Bu yondashuvda o‘quvchilar grammatik muammoga duch kelishadi va uni hal qilish jarayonida grammatika qoidalarini faol o‘rganishadi. Bu usul o‘quvchining tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi va grammatik bilimlarni amaliy faoliyatga bog‘laydi.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv metodlar nafaqat grammatika o‘rgatishda samarali vosita, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiruvchi, ularning bilimni chuqurlashtiruvchi, real muloqotga tayyorlovchi pedagogik yondashuvdir. Shu bois, bugungi ta‘lim tizimida interaktiv metodlardan foydalanish zamon talabi hisoblanadi.

Gamifikatsiya vositalarining afzalliklari. Zamonaviy til o‘qitish jarayonida **gamifikatsiya**, ya‘ni o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga qo‘shish, grammatika ta‘limining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida ko‘rilmog‘da. Gamifikatsiya o‘quvchilarni jarayonga faol jalb etadi, ularni rag‘batlantiradi, bellashuv muhiti orqali motivatsiyasini oshiradi va eng muhimi, quruq nazariyani jonli amaliyotga aylantiradi. Ayniqsa, grammatika kabi murakkab va ko‘pincha o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘diradigan sohada o‘yin texnologiyalari orqali o‘rganish jarayoni ancha qulay va qiziqarli kechadi. Gamifikatsiya vositalariga quyidagilar kiradi: **raqobatga asoslangan testlar** (Quizizz, Kahoot!), **ball to‘plash tizimlari**, **virtual mukofotlar**, **missiyalar** va **topshiriq darajalari**, shuningdek **rolga asoslangan o‘yinlar**. Masalan, o‘quvchilarga “grammar detective” roli berilib, ular noto‘g‘ri ishlatilgan grammatik strukturalarni aniqlashga topshiriq beriladi. Yoki, “grammar quest” usulida o‘rganuvchilar bosqichma-bosqich grammatik sarguzasht orqali kerakli bilimlarga ega

bo'ladilar. Bu o'yin shaklidagi metodlar orqali nafaqat bilim, balki fikrlash, tahlil qilish, va jamoada ishlash ko'nikmalari ham rivojlanadi.

Shuningdek, **mobil ilovalar** (masalan, Duolingo, LingQ) va **onlayn platformalar** (Edmodo, Classcraft) orqali ham gamifikatsiyalashgan topshiriqlarni berish mumkin. Bu vositalar orqali o'quvchilar istalgan joyda va vaqtda mustaqil o'rganish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa grammatik bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Gamifikatsiya yondashuvi o'quvchilarning psixologik ehtiyojlariga mos ravishda tuzilganligi sababli ham o'rganuvchilar uchun ta'sirchan: u'quvchilarning mukofot olish, tengdoshlari va ustoz tomonidan tan olinishi, yangi bilimlarga qiziqish va darslarda tanqidiy fikr yuritish va ijodkorlik bilan yondashuv kabi elementlarni uyg'otadi. Shu bois, zamonaviy grammatika ta'limida gamifikatsiya usullarini kiritish, o'qituvchilardan yangicha metodik yondashuvni talab qiladi, ammo o'z navbatida yuqori natijalar bilan ta'minlaydi.

Nazorat savollar:

1. Grammatika o'rgatishda interaktiv metodlarning afzalliklarini qanday tushuntirishingiz mumkin?

2. Gamifikatsiya qanday usullar orqali grammatikani o'rgatishda samaradorlikni oshiradi?

3. Grammatika o'rgatishning an'anaviy va zamonaviy metodlari orasidagi asosiy farqlarni qanday izohlaysiz?

4. Vygotskyning sotsiokultural nazariyasi grammatikani o'rgatishda qanday ahamiyat kasb etadi?

5. Grammatikani o'rgatishda mobil ilovalar va onlayn platformalarning roli nima?

6. Grammatika o'rgatishda reflektiv va kollaborativ yondashuvlarning afzalliklari nimalardan iborat?

7. Grammatika o'rgatishda o'yin va o'yinboshlash usullari qanday motivatsiya va o'quvchilarni qanday rag'batlantiradi?

8. Interaktiv metodlar grammatikani o'rgatishda o'quvchining faolligini qanday oshiradi?

9. O'quvchilarning grammatika bilimlarini mustahkamlashda rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlarning o'rni qanday?

10. Zamonaviy til o'qitish metodikasida gamifikatsiya va interaktiv vositalardan foydalanishning ilmiy asoslarini qanday tushuntirasiz?

VIII. Tinglab tushunishni o‘rgatish texnologiyalari

Reja:

1. Chet tilini amaliy egallashda tinglab tushunishning ahamiyati
2. O‘quvchilarga tinglab tushunishni o‘rgatishning maqsadi va vazifalari
3. Tinglab tushunishning asosiy mexanizmlari va ularni shakllantirish
4. Tinglab tushunishni o‘rgatishga qo‘yilgan CEFR talablari va baholash

Tayanch so‘zlar: Tinglab tushunish, chet tili ko‘nikmalari, eshitish mexanizmlari, o‘rgatish maqsadi, CEFR talablari, baholash mezonlari, lisoniy idrok, eshituv materiali, tinglab tahlil qilish, amaliy kommunikatsiya.

1. Chet tilini amaliy egallashda tinglab tushunishning ahamiyati

Chet tilini o‘rgatishda to‘rt asosiy til ko‘nikmalari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘zaro uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldirib boradi. Ular orasida **tinglab tushunish** ko‘nikmasi til o‘rganish jarayonining boshlang‘ich va eng tabiiy bosqichi sifatida ajralib turadi. Chunki har qanday ona tilini o‘rganishda ham bola avvalo atrofdagi nutqni tinglaydi, tovushlar, so‘zlar va gaplarni eshitish orqali tilga oid dastlabki bilim va tajribani egallaydi. Chet tilini o‘zlashtirishda ham xuddi shu tamoyil amal qiladi: o‘quvchi yangi tilni eshitish, uni tushunishga harakat qilish orqali tilning fonetik, leksik, grammatik va pragmatik jihatlarini ongli va bevosita ravishda o‘zlashtiradi.

Tinglab tushunish — bu **reseptiv ko‘nikma** bo‘lib, o‘quvchidan faol e‘tibor, tez tahlil qilish, eshitilgan ma‘lumotni xotirada saqlab qolish va tushunish kabi murakkab kognitiv jarayonlarni talab qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda chet tilini o‘qitish sohasida kommunikativ yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etar ekan, bu yondashuvda tinglab tushunish asosiy kompetensiyalardan biri sifatida alohida o‘rin egallaydi.

Jamol Jalolov o‘zining “Chet tillarni o‘qitish metodikasi” asarida ta’kidlaganidek, tinglab tushunish o‘quvchining **tilga xos tovushlarni**

farqlash, so‘z birikmalarining intonatsion ranglarini ilg‘ash, umumiy mazmuni anglash va kerakli axborotni ajratib olish kabi qobiliyatlarini shakllantiradi.⁵⁸ Shu boisdan, chet tilini o‘qitishda bu ko‘nikmani shakllantirish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, Yevropa umumiy til kompetensiyalari (CEFR) standarti ham tinglab tushunish kompetensiyasini til bilimining asosiy indikatorlaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Har bir daraja (A1 dan C2 gacha) uchun aniq tinglab tushunish qobiliyatlari belgilangan bo‘lib, bu esa o‘qituvchilar uchun til darslarini rejalashtirish va baholashda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tinglab tushunishni o‘rgatishda foydalaniladigan texnologiyalar esa o‘quvchilarning eshitish jarayonini yanada samarali tashkil qilish, ularni muloqotga tayyorlash va til muhitida mustaqil harakat qilish imkonini yaratadi. Audio materiallar, video podkastlar, interaktiv mashqlar, real hayotiy muloqotga asoslangan topshiriqlar, autentik matnlar — bularning barchasi o‘quvchining faolligini oshiradi, qiziqishini kuchaytiradi va eshitilgan nutqni tushunish salohiyatini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, ushbu mavzuda tinglab tushunishning nazariy asoslari, uni shakllantirish mexanizmlari, o‘quvchilarda ushbu ko‘nikmani rivojlantirishdagi muammolar, CEFR mezonlari asosidagi baholash usullari va zamonaviy o‘qitish texnologiyalari keng ko‘lamda ko‘rib chiqiladi. Bu esa o‘qituvchilar uchun nafaqat nazariy bilim, balki amaliy qo‘llanma sifatida ham xizmat qiladi. Chet tilini o‘rganish jarayonida tinglab tushunish — bu til egallashning muhim, hatto boshlang‘ich bosqichdagi zaruriy komponentidir. Chunki tilni tabiiy tarzda o‘zlashtirishda inson avvalo eshitish orqali til birliklarini qabul qiladi, ular asosida so‘z boyligi va grammatik tuzilmalarga ega bo‘ladi. Shunday qilib, tinglab tushunish boshqa ko‘nikmalar — gapirish, o‘qish, yozish — uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Jamol Jalolov (2010) ta’kidlaganidek, tinglab tushunish — bu muloqotning reseptiv turi bo‘lib, o‘quvchining til materialini qabul qilishi, tushunishi va fikr shakllantirishga tayyorlanishidir. Ayniqsa, zamonaviy kommunikativ yondashuvda bu ko‘nikma tilni amaliy

⁵⁸ Jalolov J. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2020.– B. 184.

jihatdan qo'llashda ajralmas bo'g'in hisoblanadi. Tinglab tushunish orqali o'quvchilar nutqning tovush xususiyatlariga, urg'u va intonatsiyalarga, matnning umumiy mazmuniga va kontekstga e'tibor berishni o'rganadilar. Bu ularning tilni chuqur tushunishiga, kommunikatsiyada faol qatnashishiga xizmat qiladi.

2. O'quvchilarga tinglab tushunishni o'rgatishning maqsadi va vazifalari

Tinglab tushunish chet tilini o'rganish jarayonining ajralmas qismidir. U o'quvchining tilni faqat bilim darajasida emas, balki kommunikativ jihatdan o'zlashtirishi uchun xizmat qiladi. Tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish orqali o'quvchilar real hayotiy muloqotda qatnashish, axborotni qabul qilish va unga mos ravishda javob berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jamol Jalolov (2020) ta'kidlaganidek, tinglab tushunish o'quvchining tovush tizimini anglash, ohang, urg'u, pauza va intonatsiyani sezish, turli nutq uslublarini farqlay olish, umumiy mazmuni ilg'ash va kerakli axborotni ajrata olish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu boisdan, tinglab tushunishni o'rgatish faqatgina eshitish organi orqali tilni qabul qilish emas, balki aqliy, hissiy va kommunikativ faoliyatni uyg'un holda boshqarishni ham o'z ichiga oladi.

Tinglab tushunish darslarining asosiy **maqsadi** — o'quvchilarda eshitilgan nutqni tushunish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdan iborat. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kontekst asosida og'zaki nutqni tushunish;
- Asosiy va ikkilamchi ma'nolarni farqlay olish;
- Gapiruvchining niyatini, hissiy ohangini va muloqotdagi pozitsiyasini sezish;
- Har xil uslubdagi nutq matnlarini (informativ, ekspressiv, bahslovchi) tinglab, anglash.

Tinglab tushunishni o'rgatishda quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish muhim:

1. **Fonetik eshitish malakalarini shakllantirish** – tovushlarni, urg'u va intonatsiyani farqlash;

2. **Kontekstda so'z va iboralarni anglash** – yangi so'zlarni matndagi umumiy ma'noga tayangan holda tushunish;

3. **Matnning umumiy mazmunini anglash** – batafsil eshitishsiz, asosiy g'oyani tushunishga o'rgatish;

4. **Maxsus axborotni topa olish** – topshiriq asosida zarur ma'lumotni ajratib olish;

5. **Tinglangan nutqni qayta ifodalash** – eshitilgan matn mazmunini qayta hikoya qilish orqali faol til ko'nikmalarini shakllantirish;

6. **Tinglab tahlil qilish** – o'quvchilarni eshitilgan nutq ustida fikr yuritishga, tanqidiy yondashishga o'rgatish.

Bu vazifalar orqali o'quvchilar o'zlarining tinglash faoliyatini maqsadli, ongli va izchil boshqarishga o'rgatiladi. Ayniqsa, autentik audio materiallar bilan ishlash, real hayotiy muloqot namunalari eshitish, suhbatdoshning ohangiga qarab munosabat bildirish — bularning barchasi samarali eshitish kompetensiyasini shakllantirishda muhim omillar hisoblanadi. Tinglab tushunishni o'rgatish vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishi o'quvchining umumiy til kompetensiyasini kuchaytiradi va uni faol kommunikativ faoliyatga tayyorlaydi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini o'rgatishning asosiy maqsadi — o'quvchilarning og'zaki nutqni kontekstda tushunish, asosiy va ikkilamchi ma'nolarni ajrata olish, shuningdek, muallif niyatini ilg'ay olish salohiyatini shakllantirishdir.

Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- 1) Turli kontekstlardagi og'zaki matnlarni tushunishni o'rgatish;
- 2) Fikrni eshitib aniqlash, asosiy g'oyani ajratib olish;
- 3) Turli aksentlar, urg'ular va nutq uslublarini farqlashga o'rgatish;
- 4) Interaktiv topshiriqlar orqali faol eshituvchini shakllantirish;
- 5) Eshitilgan matn asosida fikr bildirish, savollarga javob berish, muhokama qilish kompetensiyasini shakllantirish.

Dars jarayonida bu vazifalar turli mashqlar (pre-listening, while-listening, post-listening) orqali amalga oshiriladi. Shu tariqa o'quvchi passiv tinglovchidan faol eshituvchiga aylanadi.

3. Tinglab tushunishning asosiy mexanizmlari va ularni shakllantirish

Tinglab tushunish til o'rganishning eng murakkab va ko'p qirrali faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Bu ko'nikma tilning fonetik, leksik, grammatik, semantik, pragmatik va kognitiv jihatlarini bir vaqtning o'zida faollashtirishni talab qiladi. Shuning uchun tinglab tushunishni rivojlantirish o'ziga xos didaktik va metodik yondashuvni zarur etadi.

Tinglab tushunish ko'nikmasining shakllanishi o'quvchining psixolingvistik, eshitish va fikrlash faoliyatining uyg'unligiga bevosita bog'liqdir.

Fonetik dekodlash. Fonetik dekodlash — bu eshitilgan nutqdagi tovushlar, urg'u, intonatsiya va pauzalarni farqlab, ularni tahlil qilish va mazmuni anglash qobiliyatidir. O'quvchi og'zaki nutqni qabul qilayotganda, tilga xos segment (tovushlar) va suprasegment (intonatsiya, urg'u) elementlarni idrok qilishi kerak. Bu bosqichda fonetik sezgirlik asosan muhim rol o'ynaydi. Shakllantirish usullari eshitilgan matn asosida so'zlar orasini aniqlash, intonatsiyani farqlashga doir mashqlar, minimal juftliklarni (masalan: ship—sheep) eshitib, farqni aniqlash hisoblanadi.

Leksik va grammatik aniqlash. Tinglab tushunishda leksik va grammatik bilimlar asosida eshitilgan matndagi so'zlar va tuzilmalarning mazmunini aniqlash muhim. O'quvchilar til birliklarini avtomatik tarzda tanib olishlari uchun takroriy mashqlar va kontekst asosidagi topshiriqlar muhim rol o'ynaydi. Shakllantirish usullari, matndan yangi so'zlarni kontekst asosida anglash mashqlari, grammatik strukturalarni tinglab aniqlash (masalan, zamonlar, modallik), eshitilgan matn asosida to'g'ri-teskari gaplar tuzish.

Semantik ishlov. Semantik ishlov — bu so'z, ibora va gaplarning umumiy ma'nosini aniqlash, asosiy g'oyani tushunish, mavzuni anglash jarayonidir. Eshitilgan ma'lumotni semantik jihatdan tahlil qilish o'quvchidan faqat lug'aviy bilimni emas, balki mantiqiy tafakkurni ham talab qiladi. Shakllantirish usullariga matnning asosiy g'oyasini aniqlash, eshitilgan nutqqa asoslangan savol-javoblar, nutqni qisqacha mazmunlab berish kiradi.

Pragmatik kontekstda tushunish. Bu bosqichda o'quvchi faqat so'zlarning bevosita ma'nosini emas, balki gapiruvchining maqsadi, niyati, hissiy holati va muloqotdagi vaziyatni ham ilg'ay olishi kerak. Pragmatik tushunish kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismidir. Shakllantirish usullari, muqobil niyatlarni tushunishga qaratilgan mashqlar (masalan, tanqid, tavsiya, rad qilish), rol o'ynash orqali muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, dialoglardagi pragmatik ishoralarni anglashdir.

Xotira orqali eslab qolish. Eshitilgan axborotni vaqtincha eslab qolish, ya'ni tinglash davomida axborotni qayta ishlash va uni ma'lum

vaqtga saqlash qobiliyati kognitiv jarayonlar orqali amalga oshadi. Xotira orqali eslab qolish orqali o‘quvchilar eshitgan matnni tahlil qilishi, asosiy va ikkilamchi axborotni ajratib olishi mumkin.

Quyidagi mashq turlari yuqoridagi mexanizmlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega:

- **Qisqa audio matnlar asosida gapirib berish** – bu mashq semantik ishlov va xotirani rivojlantiradi.

- **Noto‘liq matnni to‘ldirish** – bu mashq leksik va grammatik aniqlashga xizmat qiladi.

- **Vizual vositalar bilan tinglash** – kontekst asosida matnni tushunish va semantik tahlilni kuchaytiradi.

- **Roliklar, podkastlar, intervyular** – pragmatik tushunish va real nutq tajribasini beradi.

- **Matn asosida savol-javob** – xotira va analitik fikrlashni rivojlantiradi.

Ushbu mexanizmlarning har biri o‘zaro bog‘liq va integrallashgan holda faoliyat yuritadi. Shu sababdan tinglab tushunishni o‘rgatish jarayonida ularni kompleks holda rivojlantirish zarur. Faqatgina tovush darajasida emas, balki mazmun, niyat va kontekst darajasida ham tushunishga o‘rgatilgan o‘quvchi haqiqiy kommunikativ muhitga tayyor bo‘ladi.

4. Tinglab tushunishni o‘rgatishga qo‘yilgan CEFR talablari va baholash

Chet tilini o‘qitish bosqichlarida tinglab tushunishning o‘rni. CEFR (Common European Framework of Reference) — Yevropa Kengashining til o‘rgatish va baholashga oid universal mezonlar tizimidir. Unda tinglab tushunish bo‘yicha aniq kompetensiya darajalari belgilangan:

A) Maktabgacha va boshlang‘ich bosqich:

- Oddiy so‘zlar, ranglar, buyum nomlari, qisqa gaplar
- Ko‘proq rasmi kitoblar, qo‘shiqlar, ertaklar asosida

B) Umumiy o‘rta ta‘lim:

- Asosiy mavzular, kundalik vaziyatlar, qisqa hikoyalar
- Leksik birliklarni eshitish orqali o‘zlashtirish

C) Litsey va kollej bosqichi:

- Kasbiy matnlar, reportajlar, video ma‘ruzalar
- Analitik tinglash: fakt va fikrni farqlash

D) Oliy ta'lim bosqichi:

➤ Akademik tinglab tushunish: ma'ruzalar, intervyular, simulyatsiyalar

➤ CEFR darajalariga mos mashg'ulotlar (B2–C1)

Yevropa umumiy til mezonlari (CEFR) tinglab tushunishga alohida e'tibor qaratadi. Har bir til darajasi uchun aniq ko'nikmalar belgilangan:

•**A1-A2 (Boshlang'ich)**: Oddiy, sekin aytilgan, tanish mavzudagi gaplarni tushunish.

•**B1-B2 (O'rta)**: Nutqning asosiy g'oyasini tushunish, muntazam matnlarni idrok etish, fikr almashish.

•**C1-C2 (Yuqori)**: Murakkab, akademik va professional matnlarni to'liq anglash, tahlil qilish va sharhlash.

CEFR doirasida baholash ham uch bosqichda olib boriladi:

1) **Diagnostik baholash**: o'quvchining boshlang'ich darajadagi eshitish salohiyatini aniqlash;

2) **Formativ baholash**: o'quv jarayonidagi o'zgarish va yutuqlarni aniqlash;

3) **Summativ baholash**: yakuniy testlar orqali egallangan bilim va ko'nikmalarni baholash.

Baholashda quyidagi usullar ishlatiladi; multiple-choice (variantli savollar), matnga mos rasm tanlash, fakt va tafsilotlarni aniqlash, tinglab tushunganini og'zaki/yozma ifoda qilish.

Shu asosda o'quvchilar mustaqil eshitish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa ularni real hayotdagi muloqotga tayyorlaydi. Tinglab tushunish chet tilini egallashda **asosiy, determinant** kompetensiyalardan biridir. U boshqa ko'nikmalar (gapirish, yozish, o'qish)ning rivojlanishiga asos yaratadi. Har bir bosqichda ushbu ko'nikmani metodik yondashuv bilan, CEFR talablari asosida, raqamli texnologiyalarni jalb qilgan holda o'rgatish — chet tili ta'limining ajralmas vazifasidir.

Nazorat savollari

1. Tinglab tushunish nima uchun tilni o'rganishda muhim?
2. CEFRda tinglab tushunishning nechta darajasi bor?
3. Tinglashdagi asosiy psixolingvistik bosqichlarni ayting
4. Qaysi texnologiyalar tinglab tushunishni interaktiv qiladi?

5. O‘quvchilar qanday muammolarga duch keladi va ularni qanday yengish mumkin?

6. Tinglab tushunish ko‘nikmasining asosiy psixolingvistik mexanizmlari qaysilar?

7. Jamol Jalolovning fikricha, tinglab tushunish ko‘nikmasi o‘quvchida qanday til qobiliyatlarini shakllantiradi?

8. Tinglab tushunishni rivojlantirish uchun qanday mashq turlaridan foydalaniladi?

9. CEFR bo‘yicha tinglab tushunishga doir qanday talablar qo‘yiladi?

10. Pragmatik kontekstni anglash nima va u qanday shakllantiriladi?

IX. Gapirishni o‘rgatish texnologiyalari

Reja:

1. Gapirish – ta’limning maqsadi va vositasi sifatida. Gapirishning turlari va asosiy mexanizmlari

2. Gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish usullari

3. Gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda mashqlar tizimi

4. CEFR talablariga muvofiq gapirishni o‘rgatish va baholash tizimi

Tayanch so‘zlar: Gapirish ko‘nikmasi, og‘zaki nutq, kommunikativ maqsad, gapirish turlari, mashq turlari, interaktiv metodlar, rivojlantirish bosqichlari, CEFR talablari, baholash mezonlari, til o‘rganish strategiyalari.

1. Gapirish – ta’limning maqsadi va vositasi sifatida.

Gapirishning turlari va asosiy mexanizmlari

Gapirish har doim ham bir xil vazifani bajarmaydi. Ba’zida bu — ma’lumot yetkazish bo‘lsa, ba’zida — savol berish, o‘z fikrini bildirish, norozilik bildirish, hazillashish yoki tanqid qilish shakllarida bo‘ladi. Tilshunoslikda bu holat gapirishning funksional turlari bilan bog‘liqdir. Til o‘rgatishda gapirishni samarali o‘rgatish uchun, o‘qituvchi uning turlarini bilishi, ularning kommunikativ vazifalarini anglab, mos ravishda topshiriqlar tuzishi lozim. Bugungi globallashtirilgan dunyoda

tilni bilish yetarli emas — uni **erkin, aniq va maqsadga yo'naltirilgan tarzda ishlata olish** talabi kun sayin kuchaymoqda. Ayniqsa, xorijiy tilni o'rganishda **gapirish** (ya'ni og'zaki nutqni shakllantirish) bu faqat yakuniy bosqich emas, balki butun ta'lim jarayonining **harakatlantiruvchi vositasi** hisoblanadi.

Gapirish — bu o'quvchining til orqali **fikr bildirish, o'zini ifoda qilish, muloqot qilish** va madaniy muhitga kirishish vositasi. Shu boisdan ham uni o'rgatish texnologiyalari faqat grammatika va so'z boyligini o'rgatish bilan cheklanmasligi, balki **interaktiv, funksional, madaniy va individual** omillarni ham qamrab olishi zarur. Gapirish — bu chet tilini o'rganishdagi asosiy kommunikativ kompetensiyalardan biri bo'lib, u nafaqat ta'limning maqsadi, balki o'qitishning asosiy vositasi sifatida ham qaraladi. Gapirish orqali o'quvchi tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay oladi, bu esa uning tilga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Gapirishning asosiy turlari. Tilshunoslar gapirishning bir nechta asosiy turlarini ajratib ko'rsatadilar. Ular til o'rganish darajasiga, kommunikativ vazifaga, matn shakliga va muloqot kontekstiga bog'liqdir.

Turi	Tavsifi	Qo'llanishi
Monolog	Bitta kishining uzluksiz nutqi	Nutq so'zlash, taqdimot, hikoya
Dialog	Ikki tomonlama muloqot	Savol-javob, suhbat
Polilog	Ko'p tomonlama muloqot	Guruh bahslari, interaktiv muhokamalar
Reproduktiv gapirish	Eshitgan yoki o'qigan matn asosida gapirish	Hikoya qilish, qayta aytib berish
Produktiv gapirish	Fikrni mustaqil shakllantirish	Fikr bildirish, munozara, bahs
Interaktiv gapirish	Javob berish, savol berish, nuqtai nazarni o'zgartirish	Telefon suhbatlari, real muloqot

Psixolingvistik mexanizmlarga leksik va grammatik birliklarni tezkor eslab qolish va faollashtirish, nutqiy niyatni shakllantirish va uni

mos sintaktik tuzilmalarda ifodalash, fikrni mantiqiy tartibda ifoda etish, intonatsiya va talaffuzni to‘g‘ri qo‘llash kiradi. Gapirishni o‘rgatishda ushbu mexanizmlarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Gapirish funksiyalari (kommunikativ vazifalari), gapirish faqat so‘z aytish emas, u **aniq kommunikativ niyatni** bildiradi. CEFRda va pragmalingvistik tahlillarda quyidagi funksiyalar ko‘rsatib o‘tiladi:

- ✓ **Axborot berish** (e.g., “Bu xonada besh kishi bor.”)
- ✓ **Savol berish** (e.g., “Siz qayerdansiz?”)
- ✓ **Buyruq berish / iltimos qilish** (e.g., “Eshikni yoping, iltimos.”)
- ✓ **Fikr bildirish** (e.g., “Menimcha, bu yechim to‘g‘ri.”)
- ✓ **Bahslashish / tanqid qilish** (e.g., “Bu fikr bilan rozi emasman.”)
- ✓ **His-tuyg‘ularni ifodalash** (e.g., “Men juda xursandman.”)

O‘quvchilar ushbu funksiyalarni o‘zlashtirish orqali tilni kommunikativ jihatdan to‘g‘ri ishlatishni o‘rganadilar.

Gapirish turlari bo‘yicha darsdagi yondashuvlar. Til o‘rgatish darslarida gapirish turlarini samarali shakllantirish uchun maxsus metodik yondashuvlar qo‘llaniladi. Masalan:

a) Monologik nutq uchun — mavzu asosida tayyorlanadigan *taqdimotlar, hikoyalar, fikr bildirish topshiriqlari*

b) Dialogik nutq uchun — *rol o‘ynash, savol-javob, simulyatsiyalar*

c) Interaktiv nutq uchun — *debatlar, guruh ishlari, rolli suhbatlar*

Bu yondashuvlar orqali o‘quvchilar har xil gapirish kontekstlarida tilni faol ishlatishga o‘rganadilar. Haqiqiy hayotda gapirish har doim ham “faqat monolog” yoki “faqat dialog” tarzida sodir bo‘lmaydi. Aksincha, ular **kombinatsiyalashgan shaklda** amalga oshadi. Masalan:

- Nutq so‘zlash (monolog) → savollar (dialog) → bahs (polilog)
- Telefon orqali so‘rovnoma (interaktiv gapirish)
- Video blog yoki prezentatsiya (reproduktiv + produktiv nutq)

Shuning uchun o‘quvchilarni har xil nutq shakllarida mashq qildirish hayotiy kompetensiyani shakllantirishning kaliti hisoblanadi.

2. Gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish usullari

Chet tilini o‘rganishda gapirish ko‘nikmasi yetakchi kommunikativ kompetensiya hisoblanadi. Bu ko‘nikmani shakllantirish uchun o‘quv jarayonida o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish, ular orasida fikr almashinuvi, mustaqil nutqiy ifoda, ijtimoiy va tilshunoslik kontekstini tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish juda muhimdir. Shunday ekan, zamonaviy chet tilini o‘qitish metodikasi doirasida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan samarali uslublar, yondashuvlar hamda topshiriq turlari taklif qilinadi.

Gapirishni rivojlantirishning metod va usullari

1. Rol o‘ynash (Role-play). Bu usul o‘quvchilarning hayotiy muloqot vaziyatlarida ishtirok etishlarini ta‘minlaydi. Masalan, "mehmonxonada xona band qilish", "do‘konda xarid qilish", "kasalxonaga murojaat qilish" kabi rolli o‘yinlar orqali talabalar o‘z nutqiy kompetensiyalarini amaliyotda qo‘llashga o‘rganadilar. Bu jarayon tilni situatsion kontekstdan kelib chiqib o‘zlashtirishni kuchaytiradi va grammatik-matn tuzish xatoliklarini kamaytiradi.

2. Suhbatlar (Pair-work, Interviews). Juftlikda ishlash yoki savol-javob asosida intervyular tashkil etish orqali o‘quvchilar bir-birlari bilan o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga o‘rganadilar. Bu metod nafaqat kommunikativ kompetensiyani, balki faol tinglash, savol tuzish va mos ravishda javob bera olish kabi yondosh ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

3. Fikr almashish va bahs-munozara (Discussion, Debate). Guruhda yoki sinfda ma‘lum bir dolzarb yoki bahsli mavzu ustida munozara tashkil qilish talabalarni o‘z fikrini dalillash, mantiqiy izchillikda nutq qurish, boshqalarning fikriga nisbatan hurmat bilan yondashish kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi. Bu uslub ayniqsa B1 darajadan boshlab samarali qo‘llaniladi.

4. Nutqiy reja asosida gapirish (Planned Speech). O‘quvchilar mavzuga oid qisqacha reja asosida monologik nutq tayyorlaydi. Bu mashq turida ular gapirishdan oldin o‘ylash, asosiy fikrlarni ketma-ketlikda tuzish va nutq strukturasi (kirish – asosiy qism – xulosa)ga amal qilishni o‘rganadilar. Reja asosida gapirish shuningdek og‘zaki prezentatsiyalarni tayyorlashda ham qo‘llaniladi.

5. Topshiriqqa asoslangan ta'lim (Task-based Learning). Task-based Learning modeli (Nunan, Ellis, Willis) o'quvchilarni real hayotga yaqin bo'lgan kommunikativ topshiriqlar orqali til o'rganishga undaydi. Masalan, "biror joyni tavsiflab berish", "yo'l tarifini tushuntirish", "ma'lumot so'rash" kabi topshiriqlar orqali o'quvchilar so'z boyligini faollashtiradi, grammatik strukturalarni ongli ravishda qo'llashga odatlanadi.

Gapirishni o'rgatishdagi yondashuvlar.

1. Kommunikativ yondashuv (Communicative Approach). Bu yondashuv asoschilaridan biri M. Canale va M. Swain bo'lib, ular til o'rganishda grammatik to'g'rilikdan ko'ra kommunikativ samaradorlikni ustun qo'yishni ilgari surganlar.⁵⁹ Bu yondashuvga ko'ra, til – bu muloqot vositasi, demak, o'quvchi uni faqat o'rganmasligi, balki amalda qo'llashi zarur. Darslar davomida to'g'ridan to'g'ri muloqot vazifalarini bajarish orqaligina o'quvchi tilni faol o'zlashtiradi.

2. Konstruktivistik yondashuv (Constructivist Approach). Bu yondashuv Lev Vygotsky tomonidan asoslangan bo'lib, ta'limda hamkorlikka asoslangan, ijtimoiy-interaktiv muhit yaratishni taklif etadi. Bu usulda o'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro muloqotda bo'lib, yangi bilim va ko'nikmalarni o'z tajribasi asosida shakllantiradi. Guruhli ishlar, loyiha asosidagi topshiriqlar, kollaborativ suhbatlar bu yondashuvga kiradi.

3. Ko'p kompetensiyali yondashuv (Multi-competence Approach). Bu yondashuvga ko'ra, til o'rgatish jarayonida nafaqat lingvistik (grammatika, lug'at), balki sotsiolingvistik (kontekstga mos ifoda), pragmatik (niyatni to'g'ri yetkazish), madaniy (interkultural) va strategik kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Bu esa o'quvchining turli kommunikativ vaziyatlarda o'zini erkin tutishini ta'minlaydi.

Gapirish ko'nikmasini shakllantirishda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki jarayonni yo'naltiruvchi, ishtirokchilarga fikr bildirish, savollar berish, muhokama qilish imkoniyatlarini yaratib beruvchi rolini bajaradi. Har bir mashq o'quvchining real hayotdagi muloqotga tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek,

⁵⁹ Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1980. p 47.

zamonaviy texnologiyalar, vizual materiallar va multimediya vositalaridan foydalanish gapirishni rivojlantirishda muhim omildir.

Gapirish mexanizmlarini rivojlantirishga oid usullar

A) Fonologik tayyorgarlik. Tovushlar va urg'uni mashq qilish (tongue twisters, intonatsiya mashqlari)

B) Kontekstli gapirish. Reproduktiv (takrorlash), produktiv (ijodiy) va interaktiv mashqlar

C) Metakognitiv yondashuv. O'quvchi gapirishdagi o'z fikr jarayonini kuzatadi va baholaydi

D) Kognitiv strategiyalar. Kalit so'zlar orqali gapirish, xotiraga tayanmasdan fikr chiqarish

E) Vokal mashqlar va dramatisatsiya. Rol ijro etish, bahs, intervyu, ssenariy asosida gapirish. Gapirish — inson miyasi, psixik tizimlari va fiziologik organlarining sinxron ishlashi natijasi bo'lib, uni o'rgatishda nafaqat til, balki **ong, idrok, xotira, artikulyatsiya, emotsiya** va **psixologik muhit** e'tiborga olinishi lozim. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonni **kompleks yondashuv bilan** tashkil qilishi va har bir mexanizmni asta-sekin rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanishi zarur.

3. Gapirish ko'nikmasini shakllantirishda mashqlar tizimi

Chet tilini o'rganish jarayonida gapirish ko'nikmasini shakllantirish – bu nafaqat lingvistik bilimlarni amaliyotda qo'llash, balki real muloqotga tayyor bo'lishni ta'minlovchi jarayondir. Gapirishni o'rgatishda foydalaniladigan mashqlar tizimi o'quvchilarning psixolingvistik xususiyatlariga, bosqichli o'zlashtirishiga va kommunikativ ehtiyojlariga mos ravishda tanlanishi kerak.

Gapirishni shakllantiruvchi mashqlar turlari va ularning o'rnini. Gapirishni shakllantiruvchi mashqlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ular quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

a) **Reproduktiv mashqlar** – o'quvchilar eshitgan yoki o'qigan matn asosida gapiradi

b) **Produktiv mashqlar** – o'quvchi mustaqil fikr bildiradi, o'z matnini yaratadi

c) **Dialogik mashqlar** – ikki yoki undan ortiq ishtirokchining savol-javob, suhbat orqali fikr almashuvi

d) **Monologik mashqlar** – o'quvchining uzluksiz va mantiqiy nutq qurishi

e) **Situatsion mashqlar** – hayotiy holatlarda nutqiy vazifalarni bajarish

f) **Rol o‘ynash mashqlari** – ssenariy asosida real vaziyatni takrorlash orqali nutq shakllantirish

Gapirishni shakllantiruvchi mashqlarni tanlash tamoyillari. Mashqlar quyidagi mezonlarga asoslangan holda tanlanadi:

- O‘quvchilarning yosh va daraja xususiyatlari
- Til ko‘nikmasining bosqichma-bosqich rivojlanishi
- Kommunikativ vazifalarning turli-tumanligi
- Interaktivlik va o‘zaro aloqadorlik darajasi

Gapirishni shakllantiruvchi mashqlarni tashkil qilish bosqichlari. Mashqlar quyidagi tartibda bosqichma-bosqich tashkil etilishi mumkin:

A) Tayyorlov bosqichi:

- Kalit so‘z va iboralar bilan ishlash
- Tematik so‘zlashuvlar asosida lug‘at boyligini faollashtirish

B) Mashq bosqichi:

- Model asosidagi gapirish (e.g., "Describe this picture")
- Jadvallar asosida suhbat qurish

C) Rivojlantiruvchi bosqich:

- Munozara, debat, intervyu, ijodiy taqdimot
- Real hayotiy vaziyatlarda erkin nutq

Task-Based Learning (TBL) texnologiyasidan foydalanish. TBL – bu maqsadli topshiriqlar asosida til o‘rgatish metodikasi bo‘lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- **Pre-task** – mavzu tanishtiriladi, zarur lug‘at beriladi
- **Task** – guruhlar topshiriqni bajaradi (masalan, muammo yechish)
- **Post-task** – taqdimot, fikr almashish, xatolarni tahlil qilish

Gapirishni shakllantiruvchi mashqlar tizimi orqali gapirishda erishiladigan natijalar: erkin va mantiqiy fikr bildirish, kommunikativ strategiyalardan foydalanish, muammoli vaziyatlarda gapirish qobiliyatining shakllanishi, tilni real vaziyatlarda faol qo‘llash ko‘nikmasi demakdir.

Gapirish mashqlari – bu o‘quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy metodik vositadir. Turli tipdagi mashqlar orqali o‘quvchi nafaqat tilni biladi, balki undan foydalanishni ham o‘rganadi.

Darsda mashqlarning turli formatlardan foydalanilishi – natijaviy til o‘rgatishga olib keladi. Mashqlar tizimi orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy nutq qurish, ijtimoiy va madaniy muhitga mos ravishda fikr bildirish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Shuningdek, vaziyatli mashqlar va interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchi o‘zini turli real holatlarda sinab ko‘rishga imkon topadi.

Shu boisdan, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida mashqlar tizimini kompetensiyaviy, kommunikativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida shakllantirish ayniqsa muhimdir. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning til bilimini oshirish bilan birga, ularning shaxsiy faolligi, ijtimoiy ishtiroki va mustaqil fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutqiy kompetensiya — bu faqat grammatik va leksik bilimlar yig‘indisi emas, balki o‘quvchining turli kommunikativ vaziyatlarda o‘z fikrini mantiqiy, ravon va adabiy norma asosida yetkazish qobiliyatidir. Shu bois gapirish mashqlari nafaqat til materialini takrorlashni, balki mazmun yaratishni, fikrni tashkillashtirishni va muloqot jarayonida strategik qaror qabul qilishni ham talab etadi. Kommunikativ yondashuv shuni taqozo etadiki, mashqlar real hayotga yaqin kontekstlarda tashkil etiladi, vazifalar esa maqsadga yo‘naltirilgan, mazmunli va ma‘no yaratishga qaratilgan bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa o‘quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va til o‘rganish sur‘atini hisobga olib, mashqlarni moslashtirishni taqozo qiladi.

4. CEFR talablariga muvofiq gapirishni o‘rgatish va baholash tizimi

Baholashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

A) Funktsional mezonlar: O‘quvchi fikrini **aniq, mantiqiy, izchil** tarzda ifoda qila oladimi? Nutq maqsadga yo‘naltirilganmi? Auditoriya ehtiyojiga mosmi?

B) Til vositalaridan foydalanish: Lug‘at boyligi va mosligi, Grammatik tuzilmalarni to‘g‘ri ishlatish, Talaffuz, urg‘u, intonatsiya aniqligi

C) Kommunikativ strategiyalar: So‘z topishda muqobil iboralardan foydalanish. Muqobil iboralarga sinonim va antonim so‘zlarni qo‘llay olish. Pausa va xatolarni to‘g‘rilay olish qobiliyati. Auditoriyaga mos ravishda javob qaytarish va muloqot davom ettirish

Gapirish ko‘nikmasiga darajalar bo‘yicha qisqacha tavsif (CEFR):

Daraja	O‘quvchi nima qila oladi?
A1	Salomlashish, tanishtirish, o‘z ismi, manzili haqida gapira oladi.
A2	Oddiy ijtimoiy mavzular (oila, ish, kundalik faoliyat) haqida suhbat quradi.
B1	O‘z fikrini bayon qilish, voqealarni izohlash, oddiy bahs yuritish.
B2	Dalil va misollar bilan murakkab mavzularni izohlash, munozara.
C1	Rasmiy, ilmiy, madaniy mavzularni mantiqiy va mazmunli ifodalash.
C2	Har qanday murakkab vaziyatda erkin, aniqlik bilan, ohang va uslubni saqlab gapira oladi.

Baholash usullari. Intervyu yakka tartibda savol-javob asosida, rol o‘ynash: Real vaziyat simulyatsiyasi orqali, Dialog/Monolog: Erkin yoki ssenariy asosida, Taqdimot: Akademik yoki kundalik mavzuda og‘zaki chiqish, Baholash varaqasi (rubrik): Til boyligi, grammatik to‘g‘rilik, kommunikativlik, mantiqiy izchillik asosida ball qo‘yish kabilardir.

Nazorat savollari

1. Gapirish nima va u ta’limda qanday vazifani bajaradi?
2. Gapirish ko‘nikmasi nega chet tilini o‘rganishdagi asosiy maqsad sifatida qaraladi?
3. Gapirishning qanday turlari mavjud va ular bir-biridan qanday farq qiladi?
4. Gapirishda monolog va dialog ko‘nikmalari qanday rivojlantiriladi?
5. Gapirishning fiziologik mexanizmlari nimalardan iborat?
6. Kommunikativ yondashuv asosida gapirish qanday shakllantiriladi?
7. Mashqlar tizimi gapirish ko‘nikmasiga qanday ta’sir qiladi?

8. Reproduktiv va produktiv mashqlar o'rtasidagi farqni tushuntiring.

9. Task-Based Learning (TBL) metodining afzalliklari nimalarda?

10. CEFRga ko'ra gapirish kompetensiyasining baholash mezonlari qanday?

X. O'qishni o'rgatish texnologiyalari

Reja:

- 1. O'qish – chet til o'rgatishning maqsadi va vositasi sifatida**
- 2. O'qitish bosqichlari (Pre-reading, While-reading, Post-reading)**
- 3. O'qish turlari va ularni shakllantirishga mo'ljallangan mashqlar tizimi**
- 4. Nazorat turlari va shakllari (test, savol-javob, portfolio, yondashuvlar)**
- 5. Grafik organayzerlarning ahamiyati (Venn diagram, Cluster, KWL)**
- 6. O'quvchilar o'qish malakasiga qo'yilgan CEFR talablari va baholash mezonlari**

Tayanch so'zlar: o'qish ko'nikmasi, kommunikativ kompetensiya, reseptiv ko'nikma, til o'rganish vositasi, matn tahlili, leksik bilimlar, grammatik kompetensiya, kognitiv jarayonlar, madaniy kontekst, axborot olish.

1. O'qish – chet til o'rgatishning maqsadi va vositasi sifatida

Chet til o'qitishda o'qish (reading) – nafaqat tilni o'rganish jarayonining ajralmas qismi, balki kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda rivojlantirishda ham muhim vositadir. O'qish jarayoni nafaqat matnni idrok etish va uning mazmunini tushunishga qaratilgan bo'lib, balki o'rganuvchining til bilimlarini mustahkamlash, lug'at va grammatikani o'zlashtirish, madaniy kontekstni anglash hamda fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Chet tilida o'qishning maqsadi. Chet til o'rgatishda o'qishning birinchi maqsadi – tilni tushunish va undan samarali foydalanishni o'rgatishdir. Tilni o'rganish jarayonida o'qish nafaqat yozma matnni

o'zlashtirish, balki eshitilgan va o'qilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv faoliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, o'qish chet tilida mustaqil bilim olish va axborot manbalaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmadir. Zamonaviy dunyoda chet tilini bilish nafaqat kommunikatsiya uchun, balki ilmiy, texnik, madaniy va kasbiy sohalarda ham keng qo'llaniladi. Shu bois, o'qish ko'nikmasi o'rganuvchilarni til orqali dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqil o'rganishga tayyorlashga xizmat qiladi.

O'qishning vosita sifatida roli. O'qish nafaqat o'rganish maqsadi, balki tilni o'rganish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qish til o'rganuvchiga yangi so'zlar, iboralar, grammatik tuzilmalar va madaniy kontekstlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, o'qish orqali o'rganuvchi til modellarini ko'rib chiqadi, ularni o'z nutqiga tatbiq etishni o'rganadi. Bu esa o'z navbatida yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tilni o'rganishda o'qish jarayoni interaktiv xarakterga ega bo'lib, o'rganuvchilar matnni faqat pasiv ravishda qabul qilmay, balki uning mazmunini tahlil qiladi, savollar beradi, taxmin fikrlar yuritadi va muallifning fikrini anglashga harakat qiladi. Shu tariqa, o'qish til o'rgatuvchi faoliyatning vositasi sifatida tilni ichki darajada qabul qilish va uning elementlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, o'qish chet tilini o'rganishda nafaqat mustaqil maqsad, balki til o'rganish jarayonining samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'rganuvchilar tilni nafaqat qabul qiluvchi, balki faol foydalanuvchiga aylanishlari mumkin. Shu sababli, chet tilini o'rgatishda o'qishga alohida e'tibor qaratish, o'rganuvchilarni o'qish jarayoniga qiziqtirish va uni samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qishni o'rgatish bosqichlari. Chet tilini o'qishni o'rgatish – murakkab va tizimli jarayon bo'lib, unda o'rganuvchining til ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. O'qishni o'rgatish jarayoni odatda bir nechta bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich ma'lum maqsad va vazifalarga xizmat qiladi. Quyida o'qishni o'rgatishning asosiy bosqichlari keltirilgan:

1. Tayyorlov bosqichi (Oldindan tayyorlash). Ushbu bosqichda o'rganuvchilar o'qilajak matnga tayyorlanadi. Ularning oldingi

bilimlari, soʻz boyligi va mavzuga oid tushunchalari aniqlanadi. Oʻrgatuvchi matnning mavzusini, asosiy soʻzlar va iboralarni tushuntiradi, zarur boʻlsa, mavzuga oid qisqa tushuntirishlar yoki motivatsion savollar yordamida oʻquvchilarni faoliyatga jalb qiladi.

Maqsad: Matnga qiziqish uygʻotish, oldin asosiy tushunchalarni shakllantirish, motivatsiyani oshirish.

2. Oʻqish jarayoni (Matnni tushunish va oʻzlashtirish). Bu bosqichda oʻrganuvchilar matnni bevosita oʻqiy boshlaydi. Oʻqishning birinchi bosqichlarida ular koʻpincha matnni sekin, toʻliq tushunishga qaratilgan usulda oʻqiydi (soʻzma-soʻz yoki jumla boʻyicha). Keyinchalik, oʻqish tezligi va samaradorligi oshiriladi, matnning umumiy mazmunini anglashga oʻtishadi.

Bu bosqich oʻz ichiga quyidagi turlari olishi mumkin:

- **Skimming (tezkor oʻqish)** – matnning umumiy mazmuni va asosiy fikrlarini tezda anglashga qaratilgan.

- **Scanning (aniq maʼlumotni izlash)** – matndan muayyan maʼlumotlarni topishga yoʻnaltirilgan oʻqish.

Maqsad: Matnni tushunish, asosiy va yordamchi maʼlumotlarni ajratib olish.

3. Matnni tahlil qilish va izohlash bosqichi

Oʻqish jarayonidan keyin oʻrganuvchilar oʻqigan matnni tahlil qiladi, uning mazmuni, tuzilishi, asosiy fikrlari va muallifning nuqtai nazari haqida fikr yuritadi. Bu bosqichda matn boʻyicha savollar berish, muhokama qilish, qisqacha mazmunini yozish yoki gapirish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Maqsad: Matn mazmunini chuqurroq anglash, fikrlarni mustahkamlash, tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish.

4. Lugʻat va grammatik elementlarni oʻzlashtirish. Oʻqish jarayonida yangi soʻzlar, frazeologik birikmalar va grammatik qoidalar paydo boʻladi. Ushbu bosqichda ular qayta koʻrib chiqiladi, yodlash va amaliyot uchun mashqlar bajariladi. Bu oʻrganuvchilarga oʻqigan matndan til elementlarini oʻzlashtirishga yordam beradi.

Maqsad: Lugʻat boyligini oshirish, grammatik qoidalarni mustahkamlash.

5. Oʻqish koʻnikmalarini mustahkamlash va kengaytirish. Ushbu bosqichda oʻrganuvchilar oʻqish koʻnikmalarini turli matn turlari va murakkablik darajalarida qoʻllashni oʻrganadilar. Ularga turli

janrlardagi matnlar berilib, ularni tushunish, tahlil qilish va muhokama qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan birga, o'qish jarayonida mustaqil ishlash, yangi ma'lumotlarni izlash va integratsiyalash qobiliyati rivojlantiriladi.

Maqsad: O'qish madaniyatini rivojlantirish, mustaqil o'rganish uchun poydevor yaratish.

O'qishni o'rgatish bosqichlari o'quvchining tilga bo'lgan tayyorgarligi, didaktik vazifalar va o'rganilayotgan matn turiga qarab o'zgarishi mumkin. Biroq, umumiy tamoyil shuki, har bir bosqich o'qish jarayonini samarali va maqsadli tashkil etish uchun muhimdir. O'qishning har bir bosqichi o'rganuvchining nafaqat matnni tushunish, balki til ko'nikmalarini kengaytirishiga xizmat qilishi zarur.

Pre-reading, While-reading, Post-reading deb ham nomlanishi yanada tushunarli bo'lishi mumkin. Chet tilini o'qitish jarayonida o'qish ko'nikmasini shakllantirish — murakkab, ko'p bosqichli hamda tizimli yondashuvni talab etuvchi jarayon hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik metodikalarda o'qishni o'rgatish quyidagi uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi: **Pre-reading (o'qishdan oldingi bosqich)**, **While-reading (o'qish jarayonida)**, va **Post-reading (o'qishdan keyingi bosqich)**. Ushbu bosqichlar har biri o'ziga xos maqsad va metodik yondashuvlarga ega bo'lib, o'quvchining matnni chuqur tushunishi, tafakkur qilishga undash va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularning qo'llanishi uchun metodik usullardan misollar keltiramiz.

1. Pre-reading bosqichi (O'qishdan oldingi bosqich):

Metodik usullar:

- 1) "Brainstorming" (fikir chaqmoqlari);
- 2) "KWL Chart" (Know – Want to Know – Learned jadvali);
- 3) Matn mavzusi bo'yicha savol-javoblar;
- 4) Kalit so'zlar asosida matn mazmunini taxmin qilish;
- 5) Rasm, sarlavha yoki muqova asosida taxmin qilish faoliyatlari.

Misol: O'quvchilarga matnning sarlavhasi va asosiy kalit so'zlari beriladi, ular esa ushbu ma'lumotlarga asoslanib matn nimadan bahs yuritishini taxmin qiladilar.⁶⁰

⁶⁰ Jalolov J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2012.

2. While-reading bosqichi (O‘qish jarayonida bajariladigan bosqich). Bu bosqichda asosiy diqqat matnning mazmunini tushunish, asosiy g‘oya va tafsilotlarni aniqlashga qaratiladi. O‘quvchilar faol o‘qish strategiyalarini qo‘llagan holda matnni izchil tahlil qiladilar.

Metodik usullar:

- 1) "Skimming" (umumiy mazmuni tushunish uchun tez o‘qish);
- 2) "Scanning" (ma'lum bir axborotni topish uchun o‘qish);
- 3) Savol-javob asosida matn tahlili (literal, inferensial va interpretativ savollar);
- 4) "True/False", "Multiple Choice", "Matching" kabi mashqlar;
- 5) Matnni parchalab o‘qish va har bir qism ustida ishlash.

Misol: O‘quvchilarga matnga oid "True/False" mashqlari beriladi yoki har bir paragrafiga mos savollar tuziladi. Bu ularning matnni faol kuzatishiga yordam beradi.

3. Post-reading bosqichi (O‘qishdan keyingi bosqich). Bu bosqichda o‘quvchilar matn asosida o‘z fikrini bildirish, munozara qilish va o‘rganilgan ma’lumotlarni shaxsiy hayoti bilan bog‘lash orqali chuqur tahlil qilishga o‘rgatiladi.

Metodik usullar:

- 1) Munozara va debatlar tashkil etish;
- 2) Rol o‘ynash (role play) mashqlari;
- 3) Matn asosida insho yoki xat yozish;
- 4) Matnga alternativ yakun yozish;
- 5) Shaxsiy hayot bilan bog‘liq fikrlar yozish.

Misol: O‘quvchilar matndagi voqeani boshqa nuqtai nazardan davom ettiradilar yoki “Agar siz bosh qahramon bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lardingiz?” kabi savollarga javob beradilar. Bu orqali o‘rganuvchilarda ma’lumotlar orqali o‘rganilgan matndan xulosa chiqarish va gapirib so‘zlab berish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Uch bosqichli o‘qitish yondashuvi (Pre-reading, While-reading, Post-reading) chet tilini o‘rganishda o‘quvchilarning nafaqat matnni tushunishini, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu bosqichlar orqali o‘qish faoliyati passiv jarayondan faol, interaktiv o‘rganish jarayoniga aylantiriladi. Har bir bosqich izchil, metodik asosda tashkil etilganda, o‘quvchilar chet tilida o‘qish ko‘nikmasini samarali egallaydilar.

2. O‘qish turlari va ularni shakllantirishga mo‘ljallangan mashqlar tizimi

O‘qish turlari. Chet tilini o‘rganishda o‘qish – til o‘rganishning asosiy va ajralmas komponentlaridan biri hisoblanadi. O‘qish nafaqat yangi so‘zlar, grammatik tuzilmalar va matn mazmunini tushunishga xizmat qiladi, balki tilning umumiy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Tilshunoslik va metodika sohasidagi mutaxassislar fikriga ko‘ra, samarali o‘qish faoliyati tilni faol o‘zlashtirishning asosiy vositalaridan biridir.⁶¹

O‘qishning o‘zi turli maqsadlarda va kontekstlarda amalga oshiriladi. Shu sababli, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ehtiyojlari, til darajalari va o‘rganish kontekstiga mos holda o‘qish turlarini aniqlash, farqlash va ularni samarali o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qish turlari o‘z navbatida o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan yondashuvi, matni qay darajada chuqur tahlil qilishi yoki umumiy ma‘noni ilg‘ab olishi bilan farqlanadi. Pedagogik va metodik adabiyotlarda o‘qishning asosiy turlari sifatida **intensiv o‘qish, ekstensiv o‘qish, skimming (tez ko‘z yugurtirib o‘qish), scanning (zarur ma‘lumotni izlab o‘qish), silent reading (jim o‘qish) va oral reading (ovoz chiqarib o‘qish)** kabi shakllari ko‘rsatiladi.⁶² Har bir o‘qish turi o‘ziga xos maqsad, strategiya va metodik yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun chet tilini o‘rgatishda bu turlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri qo‘llash o‘quvchining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur qismda o‘qish turlarining nazariy asoslari, ularning farqlari, amaliyotdagi qo‘llanilishi hamda o‘rgatish metodikalari tahlil qilinadi. Shuningdek, har bir turga mos topshiriq va strategiyalar keltirilib, ularning samaradorligi yoritib beriladi.

Skimming (tezkor o‘qish). Skimming usuli matnning asosiy mazmunini tezda anglashga qaratilgan. Bu turdagi o‘qishda o‘quvchi matni so‘zma-so‘z o‘qimay, tezda umumiy g‘oyani, mavzuni yoki asosiy fikrlarni topishga harakat qiladi. Skimming kundalik hayotda, testlarda, ish jarayonida va ilmiy tadqiqotlarda tezkor qaror qabul qilish uchun juda muhim. Matni qisqa muddatda o‘qib, asosiy g‘oyani aniqlash, sarlavha, kirish va xulosa qismlaridan tezda ma‘lumot olish,

⁶¹ Harmer J. The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Pearson Longman.2007.

⁶² Hedge T. Teaching and Learning in the Language Classroom. Oxford: Oxford University Press. 2002.

matndan asosiy soʻz va iboralarni ajratib olish bu oʻqish turning asosiy vazifalari sanaladi.

Scanning (aniq maʼlumot uchun oʻqish). Scanning usuli matndan aniq faktlarni, raqamlarni, sanalarni yoki boshqa belgilangan maʼlumotlarni tezda izlashga qaratilgan. Bu usul ayniqsa testlarda, telefon roʻyxatlarida yoki ilmiy maʼlumotnomalarda keng qoʻllaniladi. Mashqlar tizimi quyidagilar bilan olib boriladi: matndan muayyan soʻz yoki raqamni tez topish va test savollariga aniq javob topish uchun kalit soʻzlarga eʼtibor qaratish.

Detalʼli oʻqish (toʻliq tushunish uchun oʻqish). Detalʼli oʻqishda oʻquvchi matnni chuqur va puxta tushunishga intiladi. Har bir jumla, soʻz va kontekst tahlil qilinadi. Bu oʻqish turi ilmiy, texnik va murakkab matnlarni oʻrganishda muhim. Matnni boʻlaklarga boʻlib, har bir qismini tushuntirish, soʻz boyligini oshirish uchun murakkab soʻzlarni kontekstda oʻrganish, matnga oid savollarga toʻliq va batafsil javob berish mashq tizimidir.

Kritikal oʻqish (tanqidiy oʻqish). Tanqidiy oʻqish muallifning fikrlarini tahlil qilish, baholash va oʻz qarorini bildirishga qaratilgan. Bu oʻqish turi talabalarga matnni qiyoslash, dalillarni tahlil qilish va oʻz fikrini asoslashga yordam beradi. Mashqlar tizimi muallif fikrini baholash va tanqidiy tahlil qilish, qarama-qarshi fikrlarni koʻrib chiqish, matn boʻyicha oʻz nuqtai nazarini yozma yoki ogʻzaki ifoda etishga qaratilgan.

Oʻqish koʻnikmalarini shakllantirishga moʻljallangan mashqlar tizimi. Oʻqish koʻnikmalarini samarali rivojlantirish uchun quyidagi mashqlar tizimi tavsiya etiladi. **Lugʻat boyligini oshirish mashqlari** - til oʻrganishda soʻz boyligini kengaytirish juda muhim. Lugʻat mashqlari oʻquvchilarga yangi soʻzlarni kontekstda tushunish va qoʻllashni oʻrgatadi. Bu mashqlar soʻzlarni sinonim, antonimlar bilan taqqoslash, ularning turli maʼnolarini oʻrganishdan iborat. **Matn mazmunini tushunish mashqlari** - matnni tushunishni oshirish uchun oʻquvchilarga savol-javob, matnni qisqacha qayta hikoya qilish, matndagi asosiy fikrlarni ajratib olish mashqlari beriladi. Bu mashqlar oʻquvchining diqqatini jalb qiladi va matn mazmunini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. **Tahliliy va tanqidiy fikrlash mashqlari** - matnni tahlil qilish va oʻrganilgan maʼlumotlar asosida fikr yuritish til oʻrganishda muhim koʻnikmadir. Bu turdagi mashqlar

matn mazmunini taqqoslash, dalillarni baholash va o'z fikrini asoslashni o'rgatadi. Muhokama, debatlar va yozma ishlanmalar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

O'qish ko'nikmasini rivojlantirishda o'qishning har bir turi o'ziga xos metod va mashqlarni talab qiladi. Skimming va scanning kabi tezkor o'qish usullari kundalik hayot va akademik faoliyatda samarali bo'lsa, detal'li va tanqidiy o'qish esa chuqur bilim olish va mustaqil fikrlash uchun zarur. Shuning uchun o'qituvchilar har bir o'quvchining til darajasiga, maqsad va ehtiyojlariga mos mashqlarni tizimli ravishda qo'llashlari kerak.

Yaxshi tashkil etilgan mashqlar tizimi o'quvchining lug'at boyligini kengaytiradi, matnni tushunish ko'nikmasini oshiradi, hamda tahliliy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Natijada, o'quvchilar chet tilida o'qishni samarali bajarib, bilimlarini yanada mustahkamlaydi hamda tilni amaliy hayotda qo'llashda ishonch hosil qiladi.

Pedagoglar uchun tavsiya qilinadi:

- ✓ O'qish turlarini o'quvchilarga bosqichma-bosqich o'rgatish.
- ✓ Har bir o'qish turiga mos mashqlarni muntazam o'tkazish.
- ✓ Mashqlarni individual va guruh shaklida tashkil qilish.
- ✓ O'quvchilarning o'qish natijalarini baholab borish.

Shunday qilib, o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun tizimli yondashuv va samarali mashqlar tizimi til o'rganishda muvaffaqiyat kalitidir.

3. O'qishni o'rgatishda nazorat turlari va shakllari

Til o'rgatishda o'qish nazorati — bu o'quv jarayonida o'quvchilarning o'qish ko'nikmalari, tushunish darajasi va o'rganish natijalarini muntazam va tizimli ravishda baholash jarayonidir. Bu nazorat o'qituvchi va o'quvchiga o'qish jarayonining samaradorligini aniqlash, xatolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishda yordam beradi.

1. Testlar. Testlar o'quvchining o'qish ko'nikmalarini tez va aniq baholash uchun samarali vositadir. Testlar quyidagi turlarga bo'linadi:

➤ **Yopiq testlar:** tanlov, to'ldirish, moslashtirish kabi variantlar mavjud.

➤ **Ochik testlar:** qisqa javob berish yoki insho yozish shaklida.

Testlarning roli va ahamiyati. Katta guruhlarni bir vaqtda baholash imkoniyatini beradi, o'quvchilarning ma'lum bir mavzu yoki

matnni tushunish darajasini o‘lchashda aniq natijalar beradi, o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlashda qulay vosita, o‘quvchilarda o‘z bilimini mustahkamlashga yordam beruvchi motivatsiya uyg‘otadi.

2. Savol-javob usuli. Savol-javob usuli o‘quvchilarning faolligini oshirish, matnni chuqurroq tushunish va til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim. Savollar matn mazmuniga, leksik va grammatik tuzilmalarga yo‘naltirilishi mumkin.

Savol-javobning o‘quv jarayonidagi afzalliklari:

✓ O‘quvchilar o‘qiganlarini so‘zlab berish orqali yaxshiroq anglaydi.

✓ Interaktivlikni oshiradi, o‘quvchilar orasida dialogni rag‘batlantiradi.

✓ O‘qituvchiga o‘quvchilarning tushunishini tezda aniqlash imkonini beradi.

✓ Matn bo‘yicha tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

3. Portfolio. Portfolio usuli o‘quvchining o‘quv jarayonidagi ishlarini va natijalarini to‘plab borish va baholash tizimidir. Bu usul o‘quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish uchun juda muhim.

Portfolio tuzishning foydalari:

✓ O‘quvchi o‘z ishlarini tizimli ravishda saqlaydi va ularni tahlil qiladi.

✓ Mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

✓ O‘qituvchi uchun o‘quvchining o‘sish jarayonini yaxshiroq ko‘rish imkoniyatini yaratadi.

✓ O‘quvchilarni o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatadi, bu esa o‘rganish motivatsiyasini oshiradi.

4. Baholash yondashuvlari va shakllari:

a) Formativ baholash (jarayoniy nazorat). Formativ baholash dars jarayonida doimiy ravishda o‘quvchining ko‘nikmalarini va bilimlarini baholab borishdir. Bu usul o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘qishdagi qiyinchiliklarini erta aniqlash va o‘quv jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Masalan: kichik testlar, so‘rovlar, dars oxiridagi muhokamalar, o‘quvchilarning og‘zaki yoki yozma fikrlarini tinglash.

b) Sumativ baholash (yakuniy nazorat). Sumativ baholash dars yoki o‘quv kursi yakunida o‘quvchilarning o‘rganish natijalarini

baholash uchun o'tkaziladi. Bu baholash usuli o'quvchilarning umumiy bilim darajasini ko'rsatadi. Misol uchun: yakuniy testlar, imtihonlar, yakuniy insho yoki taqdimotlar.


c) O'z-o'zini baholash. O'quvchining o'z o'qish jarayonini va natijalarini mustaqil baholashi. Bu yondashuv o'quvchining o'zining kuchli va zaif tomonlarini anglashiga yordam beradiva uning afzalliklari mustaqillikni rivojlantiradi, shaxsiy mas'uliyatni oshiradi, o'quvchilarda o'z-o'zini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

d) Hamkasblar baholashi (peer-assessment). O'quvchilar bir-birining ishlarini baholaydi. Bu usul kooperativ o'qishni rag'batlantiradi va o'quvchilar o'rtasida tahliliy fikrlashni oshiradi.

4. Grafik organayzerlarning o'qishni o'rgatishda ahamiyati

Chet tilini o'rganishda o'qish ko'nikmasi o'ta muhim rol o'ynaydi. Chunki o'qish orqali til o'rganuvchi yangi so'zlar, grammatik tuzilmalar, madaniy va mantiqiy kontekstlar bilan tanishadi. Bunda matnni nafaqat o'qish, balki uni **tushunish, tahlil qilish, mazmunini anglash** va **unga nisbatan fikr bildirish** ko'nikmalarini rivojlantirish talab etiladi. Ayni shu jarayonda grafik organayzerlar o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham qulay va samarali vositaga aylanadi. Grafik organayzerlar — bu ma'lumotni vizual tarzda tuzib beruvchi vositalar bo'lib, ular o'quvchining o'qigan matni asosida mantiqiy bog'lanishlarni tuzish, asosiy va ikkilamchi fikrlarni ajratish, voqealar ketma-ketligini anglash hamda o'z fikrini tizimli ifodalashiga yordam beradi. Chet tilini o'rganayotgan o'quvchi ko'pincha matndagi barcha so'zlarni tushunmasligi mumkin. Biroq grafik organayzerlar orqali u matnning umumiy mazmunini, asosiy fikrni tushunish, shuningdek, kontekst asosida noaniq bo'lgan ma'nolarni aniqlashga muvaffaq bo'ladi. Masalan, **Venn diagrammalari, kontseptual xaritalar, jadval va tarmoqlar, sabab-oqibat diagrammalari** o'quvchining matnni o'zlashtirish, solishtirish, xulosa chiqarish va til elementlarini amaliy qo'llash darajasini oshiradi. Bu esa o'z navbatida, o'qish orqali til o'rganishni yanada samarali qiladi.

Shu bois grafik organayzerlardan foydalanish chet tilini o'qish orqali o'rganish jarayonida o'quvchilarning **kognitiv, lingvistik** va **metakognitiv** salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.



Venn diagram. Bu diagramma ikki yoki undan ortiq to‘plamdagi elementlarning o‘xshashlik va farqlarini ko‘rsatadi. Ko‘pincha ikki doira shaklida tasvirlanadi, o‘rtadagi qism umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. O‘qishni o‘rgatishda qo‘llanilishi: matnlarni taqqoslash va kontrast qilishda, leksik birliklar yoki tushunchalarni guruhlashda, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali usul sifatida. Quyida Cluster diagrammasining ko‘rinishi:



Cluster diagram (Klasterlash). Markaziy tushuncha atrofida unga bog‘liq fikrlar yoki so‘zlar joylashtiriladi. Bu turdagi diagramma matnning asosiy mavzularini vizual ravishda tashkil etadi. Matnning strukturaviy tahlilini o‘sonlashtiradi, o‘quvchilarni asosiy va qo‘shimcha ma‘lumotlarni ajratishga o‘rgatadi, kontseptual fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

KWL diagram (What I Know, What I Want to know, What I Learned) Uch qismdan tashkil topgan jadval bo‘lib, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonidagi bilimlarini faollashtirishga xizmat qiladi.

K (What I Know): O‘quvchining oldindan bilgan ma‘lumotlari.

W (What I Want to know): O‘quvchining o‘rganishni xohlagan narsalari.

L (What I Learned): O‘quvchining o‘rgangan yangi ma‘lumotlari.

Bu o'quvchilar o'z bilimlarini faollashtiradi va o'rganish uchun aniq maqsad qo'yadi, dars oxirida o'z natijalarini tahlil qilishga yordam beradi., mustaqil o'rganish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qishni o'rgatishda nazorat usullarining xilma-xilligi o'quvchilarning til ko'nikmalarini turli qirralardan baholash imkonini beradi. Test, savol-javob, portfolio, formativ va sumativ baholash yondashuvlari o'qituvchilarga o'quv jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Shu bilan birga, o'z-o'zini baholash va hamkasblar baholashi o'quvchilarda mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantiradi.

Grafik organayzerlar esa o'qish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va tushunarli qiladi. Ular o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini, mantiqiy bog'lanishlarini rivojlantiradi va matni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shu sababli o'qituvchilar ushbu vositalarni darsda faol qo'llashlari tavsiya etiladi.

5. O'quvchilarning o'qish malakasiga qo'yilgan CEFR talablari va baholash

Til o'rganishda o'qish ko'nikmasi muhim o'rin tutadi. Chunki o'qish orqali nafaqat yangi ma'lumotlar olish, balki tilni chuqurroq anglash, so'z boyligini oshirish va grammatika qoidalarini mustahkamlash mumkin. Xalqaro miqyosda til o'rgatuvchi va baholovchi tizim sifatida keng qo'llanilayotgan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) doirasida o'qish malakasining aniq talablari va baholash mezonlari ishlab chiqilgan. CEFR til o'rganish jarayonini bosqichlarga bo'lib, har bir darajadagi o'quvchidan kutiladigan o'qish ko'nikmalarini belgilaydi.

CEFR asosida o'qish malakasini baholash nafaqat o'quvchining bilim darajasini aniqlashga, balki uning qaysi sohalarda kuchli yoki zaif ekanligini ko'rsatishga ham xizmat qiladi. Shunday ekan, CEFR talablari va baholash usullarini to'g'ri tushunish va qo'llash til o'qituvchilari va o'quvchilari uchun samarali o'quv jarayonini tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada CEFRning o'qish ko'nikmasiga qo'ygan talablari, ularning asosiy mezonlari va o'quvchilarning o'qish malakasini baholash usullari batafsil tahlil qilinadi. CEFR doirasida o'qish malakasi — o'quvchining yozma matnlarni tushunish, ma'lumotlarni izlash, matn asosida fikr yuritish, matnning asosiy mazmunini aniqlash va unga oid vazifalarni bajarish qobiliyatidir.

O‘qish malakasi quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- A. Matn mazmunini tushunish (global, detallarga oid).
- B. Matndan kerakli ma’lumotlarni topish.
- C. Matnning mantiqiy tuzilishini anglash.
- D. So‘z boyligini va grammatikani matn kontekstida tushunish.
- E. Turli turdagi matnlarni (ilmiy, badiiy, amaliy) o‘qish.

CEFR bo‘yicha o‘qish malakasining bosqichlari va talablari.

Yevropa tillari umumiy referens doirasi (CEFR – Common European Framework of Reference for Languages) bo‘yicha o‘qish ko‘nikmasi 6 ta bosqichda aniqlanadi: A1, A2, B1, B2, C1 va C2. Har bir bosqichda o‘quvchining matnni tushunish, asosiy ma’lumotni ajrata olish, fikrni tahlil qilish va anglash qobiliyatlari bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Quyida har bir daraja uchun o‘qish malakalariga qo‘yilgan asosiy talablar keltiriladi:

Daraja	O‘qish malakasi xususiyatlari	Baholash mezonlari
A1	Juda oddiy va qisqa matnlarni tushunadi (oddiy reklama, e’lon).	Oddiy so‘zlar va iboralarni tanib, qisqa va sodda matnlarni o‘qish.
A2	Kundalik hayotga oid matnlarni (ta’rif, jadval, menyu) tushunadi.	Matnning asosiy ma’lumotlarini aniqlay oladi, qisqa ma’lumotlarni o‘qiy oladi.
B1	Oddiy matnlarni (maqola, hikoya, tavsif) tushunadi.	Matnning asosiy mazmunini tushunadi, tafsilotlarni aniqlaydi.
B2	Murakkab matnlarni (professional, akademik) tushunadi.	Matn tuzilishini tahlil qiladi, qarama-qarshi fikrlarni aniqlaydi.
C1	Ko‘p jihatdan murakkab va uzun matnlarni yaxshi tushunadi.	Muammoli va murakkab matnlarni tahlil qilishi va baholashi mumkin.
C2	Har qanday yozma matnni o‘qib, uning ma’nosini chuqur tushunadi.	Yozma matn mazmunini mukammal anglaydi va tahlil qiladi.

O‘quvchilarning o‘qish malakasini baholash usullari CEFR asosida amalga oshiriladi. CEFR standartlariga mos baholash o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini aniq va ob‘ektiv baholash uchun zarur.

a) Matnni tushunishni baholash: Global tushunish: Matnning asosiy g‘oyasini qisqacha bayon etish. **Detalga oid tushunish:** Muayyan faktlar, raqamlar yoki tafsilotlarni topish. **Matn tuzilishini tushunish:** Paragraflar, mavzu gaplar va bog‘lovchilarni aniqlash.

b) So‘z boyligi va grammatika kontekstida baholash: Matn ichidagi yangi so‘zlarni tushunish va izohlash. Matnda ishlatilgan grammatik strukturalarni aniqlash va tahlil qilish.

c) Turli matn turlarini o‘qish. Kundalik (xabar, e‘lon), ilmiy-ommabop, badiiy va professional matnlarni tushunish. Matn turiga qarab mos baholash kriteriyalarini qo‘llash.

CEFRga mos o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun baholash shakllari. Bugungi kunda baholash tizimining ham isloh qilinganligi hisobga olsak , ta‘lim jarayonlarida talab darajasida o‘qitilgan o‘quvchilarni mos ravishda baholash, ularning chet tilini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini yanada sof va shaffof holda baholashni taqazo etadi. Bu maqsadda quyidagi mos shakllar alohida ahamiyatga egadir.

1) Testlar

- Matnni o‘qib, keyin tanlovli savollarga javob berish.
- Matn bo‘yicha qisqa yozma javoblar yozish.
- Matndagi so‘zlar yoki iboralarni izohlash.

2) Savol-javob va muhokama

- O‘qilgan matn bo‘yicha og‘zaki savollarga javob berish.
- Matnda berilgan fikrlarni baholash va muhokama qilish.

3) Rejalar va qisqacha bayonotlar tayyorlash

- Matn mazmuniga asoslanib qisqacha reja tuzish.
- Matn asosidagi asosiy fikrlarni og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalash.

4) Portfoliolar

- O‘quvchining o‘qishdagi yutuqlari, tahlillari va tahrirlarini yig‘ish.

- O‘z-o‘zini baholash va o‘qishdagi kamchiliklarni ko‘rsatish.

CEFR asosida o‘qish malakasini baholashda e‘tibor beriladigan mezonlar

Aniqlik: Matn mazmunini to'g'ri va tushunarli ravishda tushunishi.

Chuqurlik: Matnni tahlil qilish va asosiy g'oyalarni ajratib olish qobiliyati.

Moslashuvchanlik: Turli matn turlarini o'qishdagi ko'nikmalar darajasi.

Leksik va grammatik bilim: Matnda uchraydigan yangi so'z va grammatik tuzilmalarni tushunish.

Muloqotga tayyorlik: O'qilgan matn haqida fikr yuritish va bahslashish qobiliyati.

Xulosa qilib aytganda, CEFR tizimi til o'rganish jarayonida o'qish malakasini rivojlantirish va baholash uchun mukammal asos yaratadi. CEFR darajalari o'quvchining tilni qanchalik chuqur va samarali o'rganayotganini aniqlashda yordam beradi hamda o'qish ko'nikmalarining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bu tizim o'qituvchilarga o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularning ehtiyojlariga moslashgan o'quv materiallari va metodlarni tanlash imkonini beradi.

CEFR asosida o'qish malakasini baholashda turli baholash shakllari — testlar, savol-javoblar, portfoliolar va boshqalar qo'llaniladi, bu esa baholashning to'liq va ob'ektiv bo'lishini ta'minlaydi. Grafik organayzerlar kabi vizual vositalar esa o'quvchilarning matnlarni tushunish jarayonini yanada samarali qiluvchi vosita hisoblanadi. Shuning uchun til o'qitishda CEFR talablari va baholash usullarini puxta o'rganish, ularni amaliyotda samarali qo'llash nafaqat o'quvchilarning o'qish malakasini oshirish, balki ularning umumiy til bilimlarini yuqori darajaga olib chiqish uchun muhimdir. Bu esa natijada o'quvchilarning tilni erkin va samarali foydalanishiga xizmat qiladi, til o'rganish jarayonining sifatini yaxshilaydi.

Nazorat savollari :

1) O'qish ko'nikmasining asosiy turlari nimalardan iborat? Ular bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?

2) CEFR bo'yicha o'qish malakasining darajalari qanday belgilangan va har bir darajaga qanday talablar qo'yiladi?

3) Skimming va scanning strategiyalarining mazmuni nima? Ularni qanday hollarda qo‘llash maqsadga muvofiq?

4) Chet tilida o‘qishni o‘rgatishda kontekst asosida so‘z ma’nosini aniqlash qanday mashqlar orqali amalga oshiriladi?

5) Chet tilidagi matn bilan ishlash jarayonida qanday oldingi, asosiy va keyingi bosqich mashqlari qo‘llaniladi?

6) O‘qish orqali lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan texnologiyalar va metodlar qaysilar?

7) O‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda grafik organayzerlar qanday vazifani bajaradi? Misollar bilan izohlang.

8) O‘qish matnlari tanlashda o‘quvchilarning til darajasi va yosh xususiyatlari qanday hisobga olinadi?

9) Chet tilida o‘qish ko‘nikmasini baholashda qanday mezon va baholash vositalari qo‘llaniladi?

10) Zamonaviy axborot texnologiyalarining (masalan, onlayn platformalar, elektron kitoblar, interaktiv ilovalar) o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishdagi o‘rni qanday?

XI. Yozuvni o‘rgatish texnologiyalari

Reja:

1) Yozuvni o‘rgatishning maqsad va vazifalari

2) Yozish texnikasi va yozma nutqni o‘rgatish

3) Yozma nutqni o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar

4) Ta’limning turli bosqichlarida yozma nutq malakasiga ega bo‘lishga qo‘yilgan CEFR talablari va baholash)

Tayanch so‘zlar: yozuv kompetensiyasi, yozma nutq faoliyati, didaktik yondashuv, metodik kompetensiya, yozuvni baholash mezonlari, integratsiyalashgan o‘qitish, reflektiv tahlil, orfografiya va punktuatsiya, til kompetensiyalarini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

1. Yozuvni o‘rgatishning maqsad va vazifalari.

Til o‘rganishda yozma nutq o‘qish va tinglash ko‘nikmalaridan keyin alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuv til o‘rganuvchilarga fikrlarini aniq, izchil va rasmiy ravishda ifodalash imkonini beradi. Bugungi kunda yozuvni o‘rgatish nafaqat qalam bilan yozishni, balki to‘g‘ri va

lo'nda ifoda qilish, grammatika va orfografiya qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli yozuvni o'rgatish texnologiyalari til o'rgatish jarayonining asosiy elementlaridan biriga aylangan.

Yozuvni o'rgatish texnologiyalari til o'rganuvchilarning tilni amaliy qo'llash doirasini kengaytirish, ularning yozma nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan usul va vositalarni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilar fikrlarini aniq va lo'nda yozishga, matn tuzishga va orfografik qoidalarga rioya qilishga o'rgatiladi. Yozuvni o'rgatishning maqsadi o'quvchilarda yozma nutqni shakllantirish va rivojlantirish, to'g'ri, aniq va lo'nda ifodali yozishni o'rgatish, yozuv madaniyatini va orfografik qoidalarga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish, tilning grammatika qoidalarini amaliy yozuvda to'g'ri qo'llashni o'rgatish va yozma nutqda fikrlarni izchil, mantiqiy va tushunarli tarzda bayon etish qobiliyatini rivojlantirishlardan iborat.

Yozuvni o'rgatishning vazifalariga keladigan bo'lsak, bosqichma-bosqich yozishni o'rgatish ya'ni harflarni tanishdan matn yozishga qadar, yozma nutqning turli shakllarini o'rgatish - insho, xat, izoh, tavsif, taqriz va boshqalar, orfografiya va punktuatsiya qoidalarini o'rgatish va muntazam mustahkamlash, yozuv mashqlari orqali o'quvchilarning xatoliklarini aniqlash va ularni tuzatish, yozma ishlarni baholash, konstruktiv fikr berish va o'quvchilarni motivatsiya qilishdan iborat.

2. Yozish texnikasi va yozma nutqni o'rgatish

Yozish texnikasi va yozma nutqni o'rgatishda o'rgatish obyekti qilib, tovush-harf munosabati, harflar, imlo singari til hodisalari tanlanadi, ular, ta'kidlab o'tilgani-dek, yozuvning texnik jihatidir. Yozish texnikasi (texnikaviy ko'nikmalar) asosida yozma fikr bayon etiladi - nutqiy malakalar hosil qilinadi. Qisqasi, „yozuv” va „yozish” lingvodi-daktik termin-tushunchalari doirasi bir-biridan albatta, farq qiladi.⁶³ O'rgatiladigan G'arbiy Yevropa tillari va o'zbek tili ham lotin grafikasidan foydalanadi. Ikkala grafikaning tafovutlari va o'xshashliklarini hisobga olib, yozish texnikasini o'rgatishga kirishiladi.

⁶³ Jalolov J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2012. 184-b.

Tovush-harf munosabatlaridagi qiyinchilik darajasiga qarab, ularni yozuvda (va o‘qishda) o‘zlashtirish tartiboti belgilanadi. Masalan: tovush va harf muvofiq kelsa va ona tili bilan chalkashtirish kuzatilmasa, eshituv-tovush idroki, ko‘ruv tasavvuri va yozish amallari orgali grafika nisbatan oson o‘rganiladi. (D. N. Bogoyavlenskiy tavsiyasi). Bir tovush bir necha harf orqali ifodalanishi yoki bir harf birdan ortiq tovushni bildi-rishi mushkul vaziyat hisoblanadi: tovush-harf yoki bo‘g‘in tahlili yordamida o‘rgatishga majbur bo‘lamiz. Tahlil, bu o‘rinda, chuqur nazariy mulohazalar yuritish emas, balki ushbu hodisaga xos xususiyatni sodda tilda aytishdir. Agar transkripsiya (tovushning yozuvdagi belgisi) kiritilgan bo‘lsa, undan me‘yorida foydalanish mumkin. O‘qilish qoidasini namoyish etuvchi misollar kifoya qilsa, mavhumlik umumlashtiriladi. Harflarni alifbodagi nomi o‘rganilishi so‘zni og‘zaki harflab aytish (ingl. *spelling*, nem. *buchstabieren*, fr. *epellation*) mashqini bajarishga zamin tayyorlaydi.

Bosh va kichik harflarni chalkashtirmaslik magsadida ingliz tili bo‘yicha ularni zamon va makonda ajratib o‘rgatish tajribasi o‘zini oqlagan. Yozma va bosma harflar darsda muvoziy tarzda beriladi. Qirqma alifbodan ko‘p foydalanish dastlabki bosqichda samarali natijalar beradi. O‘quvchi til tajribasini inobatga olib, chet tilida husnixat o‘rgatiladi. Qiyin o‘zlashtiriladigan harflar sinf doskasi va o‘quvchilar daftarlarida bo‘lib-bo‘lib yozib ko‘rsatiladi. Ko‘rgazmali qurolni namoyish etishning o‘zi kifoya qilmaydi.

Chiroyli va to‘g‘ri yozishni muallim amalda yozib ko‘rsatgani ma‘qul. Binobarin, yozishni o‘rgatuvchi muallimning yozish husnixati avvalo yuksak bo‘lmog‘i kerak. Og‘zaki nutqda o‘zlashtirilgan so‘zlarning yozilishi orfografik (imlo) minimum(i)ni tashkil etadi. Faqat o‘qish va tinglashdagina uchraydigan leksika imlo minimumiga kirmaydi. Demak, maktabda o‘rganilmish barcha leksik-grammatik hodisalarning orfogrammali (imlo birliklari⁶⁴)ni yozish shart emas, ya‘ni imlo minimumiga rioya qilinadi, xolos. Orfografik hodisalar alohida e‘tibor talab qiladi. Qoidalar mohiyatida, xuddi grammatika va o‘qish texnikasida bo‘lganidek, amaliy yo‘nalganlik mezoni hukm suradi. Qoidaga tushmaydigan imlo birligi (orfogramma) (mas. ingl.

⁶⁴ „Imlo birligi“ qamroviga kiradi: harf, harf birikmasi, so‘z, so‘z yasash unsuri, shakl yasash unsuri, gap tuzilish shakli, so‘z-ning ichki o‘zgarishi va o‘zgarmasligi kabilar. Qarang: Д. Д. Джалалов. Проблемы содержания обучения иностранному языку. — Ташкент: Фан, 1987. - 100-bet.

eight, are, you kabilar)ni ideogramma (yaxlit birlik) tarzida yozilishi o'rganiladi.

Ingliz tili orfografiyasi juda murakkabdir, chunki u o'zning uzoq tarixi (VI-XX asrlar) davomida boshqa tillardan ko'plab so'zlarni o'zlashtirgan. Bu so'zlarning aksariyati o'z talaffuz va yozuv me'yorini saqlab qolgan, ba'zilari esa ingliz tili talaffuz qoidasiga binoan o'zgargan. Ingliz tili imlo birliklarini o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga ko'ra uch turga bo'lish mumkin:

- 1) qiyinchiligi kamroq imlo birliklari;
- 2) o'rtacha qiyinchilik tug'diradigan birliklar;
- 3) o'ta qiyin imlo birliklari.

Birinchi toifaga ingliz imlosining ko'p hodisalari, chunonchi, otlarda ko'plik sonning odatiy yasalishi, hozirgi noaniq zamonda fe'lning 3-shaxs birlik shakli, sifat darajalari va h.k.

O'rtacha qiyin imlo birliklariga quyidagilar kiradi: bir bo'g'inli so'zlar (ingl. *pen, bed, cat*), so'zlarning bosh harf bilan yozilishi (*English, Russian, Uzbek, TV*), hafta kunlari va oylar nomlari va ingliz realiyarlari (*Monday, March, O.K.*), ko'cha nomlarining (*Amir Temur Street, Shirin Street*) yozilishi.

Uchinchi – o'ta qiyin imlo birliklari qatoriga bir qancha hodisalar jamlanadi, masalan: omo nimlar (ingl. *sea-see, meat—meet, week—weak, new-knew*), bir fonemaning birdan ortiq, grafemalar yordamida ifodalanishi ([s]-receive, cinema; say, most; [i:]—me, Pete; teacher; street); otlarda ko'plik son-ning qoidadan mustasno hollari (man—men, woman - women; child-children, sheep-sheep); gerundiyning yasalishida undosh harfning geminatsiyasi (ikkilanishi) hodisasi (sit-sitting, begin - beginning); so'z boshidagi undosh harfning o'qilmasligi (know; write; hour; who).

Dastlabki turdagi hodisalar morfologik, ikkinchisi fonetik va uchinchisi esa tarixiy (an'anaviy) yozilish mezonini bo'yicha o'rgatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Morfologik prinsip bo'yicha yoziladigan imlo birliklariga, asosan, qoidalar yordam beradi. Fonetik prinsipga binoan yoziladigan, orfografik birliklar uchun esa ko'rish va eshitish mashqlari ko'proq qo'llaniladi. An'anaviy yoziladigan birliklar uchun eslab qolish va ko'rish qobiliyati rivojlantirilishi zarur. Yozma nutqni o'rgatishda yozuv materialini, yozuv ta'lim vositasi ekanligi, yozma ishlar kabi masalalar hal etiladi. O'quvchilarning o'zlashtirgan til

materiali va og‘zaki nutq mavzulari asosida yozma fikr bayon etishlari amalda tatbiq qilingan. Yuqori sinflar til materialini va o‘qish mavzularini qo‘llab ko‘pincha o‘quvchilar yozma nutq bajarmaydilar. Yozuv til materialini puxta o‘zlashtirish, og‘zaki nutq va o‘qish malakalarini o‘stirish hamda o‘quv materialining o‘zlashtirish darajasini tekshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Yozma ishlarni bajarish oqibatida o‘quvchilar chet mamlakatdagi tengdoshlariga xat yoza olish malakasini egallaydilar. Zamonaviy til bilish testlari va sinovlarining ajralmas bo‘lagi yozish kompetensiyasining yaxshi o‘zlashtirilishi chet tili o‘rganuvchilarining yuqori natija ko‘rsatishlarini ta‘minlaydi.

Yozma nutqni o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar quyidagi asosiy yondashuvlar va usullar orqali amalga oshiriladi. Bosqichma-bosqich yondashuv:

Boshlang‘ich bosqich: Harflarni tanish, imlo qoidalarini o‘rganish, oddiy so‘zlar yozish.

O‘rta bosqich: Gap va jummalarni yozish, oddiy matnlarni tuzish.

Yuqori bosqich: Murakkab matnlar yozish, fikrlarni mantiqiy tartibda bayon etish, matnlarni tahrirlash.

Differensial yondashuv asosida o‘quvchilarning til bilish darajasi, yoshiga va qobiliyatiga qarab yozuv mashqlari va topshiriqlarni individual tarzda berishni belgilaydi. Integratsiyalashgan yondashuvda esa, yozma nutqni o‘rgatishda o‘qish, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini ham bir vaqtning o‘zida rivojlantirish amalga oshiriladi. Masalan, o‘qilgan matn asosida yozma insho yozish.

Texnologiyalardan foydalanish - kompyuter, planshet va interaktiv ta‘lim vositalari yordamida yozuv mashqlarini o‘tkazish, grammatik va imlo qoidalarini mustahkamlash uchun maxsus dasturlar va ilovalardan foydalanish.

Reflektiv yondashuv - o‘quvchilarni o‘z yozuvlarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tuzatish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish. Reflektiv yondashuv — bu o‘quvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini chuqur anglab, o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayoniga asoslangan pedagogik usuldir. Bu yondashuvda o‘quvchilar o‘z yozuvlarini qayta ko‘rib chiqib, xatolarini aniqlash va ularni tuzatishga o‘rgatiladi. Natijada, ular nafaqat bilimni qabul qiluvchi, balki faol ishtirokchi, tanqidiy fikrlovchi va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi shaxsga

aylanadi. Reflektiv yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchining o‘z ishini tahlil qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish, xatolarni mustaqil ravishda aniqlash va tuzatish qobiliyatini shakllantirish, o‘rganish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni tushunish va ulardan saboq olish sanaladi.

4. Ta’limning turli bosqichlarida yozma nutq malakasiga ega bo‘lishga qo‘yilgan CEFR talablari va baholash)

Yozuv til o‘rganish jarayonining muhim qismidir va uni baholash orqali o‘quvchining til ko‘nikmalari darajasini aniqlash, kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatish mumkin. Zamonaviy ta’lim jarayonida yozma nutqni baholash tizimi o‘quvchilarning yozuv malakasini yaxshilashga qaratilgan aniq, adolatli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, yozuvni baholash jarayoni nafaqat xatolarni topish, balki til foydalanuvchisining yozuv orqali o‘z fikrini qanchalik ravon, mantiqiy va aniq ifodalay olishini o‘lchashga qaratilgan. Yozuvni baholashda ko‘plab mezonlar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchining til darajasi, yozuvning mavzuga mosligi, grammatik va leksik to‘g‘riligi, matnning mantiqiy tuzilishi, uslubiy to‘g‘riligi hamda yozuvning o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi kabi jihatlarni qamrab oladi. Ayniqsa, **Yevropa umumiy til ko‘nikmalari referent freymvorki (CEFR)** yozuv ko‘nikmalarini baholashda aniq va standart talablarga ega bo‘lib, har bir daraja uchun yozuv vazifalari va natijalarini belgilaydi. Yozuvni baholash jarayoni nafaqat o‘quvchining grammatik, imlo yoki uslubiy xatolarini aniqlash va ularni tuzatishga qaratilgan bo‘lishi kerak, balki uning yozish jarayonidagi kognitiv faoliyatini chuqur tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Yozma nutqni baholashning zamonaviy yondashuvlari shuni ko‘rsatadiki, samarali baholash tizimi o‘quvchini o‘z fikrini mustaqil ravishda rejalashtirish, mantiqan izchil bayon qilish, dalillarni asoslash va matndan maqsadli foydalanish kabi jarayonlarga yo‘naltiradi. Bunda o‘quvchining metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish — ya’ni o‘z yozuvidagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash, ularni tahlil qilish va takomillashtirish bo‘yicha strategiya ishlab chiqish — muhim ahamiyat kasb etadi.

CEFR darajalari bo'yicha yozuv malakasi

Daraja	Yozuv malakasi xususiyatlari	Baholash mezonlari
A1	Oddiy va qisqa jumlar yozadi, shaxsiy ma'lumotlarni ifodalaydi.	To'g'ri harflarni yozish, oddiy so'zlar va oddiy gaplarni ifodalash.
A2	Oddiy matnlarni yozadi: oddiy yozma ko'rsatmalar, xat va tavsiflar.	Matn mazmuni asosiy fikrlarni o'z ichiga olishi, orfografik xatolar kamroq bo'lishi.
B1	O'z fikrlarini aniq va izchil bayon eta oladi, qisqa insho va yozma izoh yozadi.	Yozma nutq mantiqiy, grammatik jihatdan to'g'ri, murakkabroq gap tuzilmalari ishlatiladi.
B2	Murakkab matnlar yozadi, fikrlarni mustaqil ravishda bayon eta oladi.	Yozma ishda grammatik va leksik jihatdan aniq, orfografik xatolar kam, matn tartibli va mantiqiy.
C1	Yuqori darajada yozma nutqni erkin qo'llaydi, tahrir va professional matnlar yozadi.	Yozma nutqda murakkab g'oyalarni ifodalash, matnni tahrir qilish va moslashtirish qobiliyati.
C2	Har qanday yozma ishni mukammal darajada yozadi, yozma muloqotda erkin va aniq.	To'liq va mukammal grammatik va orfografik qoidalarga amal qilish, har qanday yozma vazifani bajarish.

Yozuv malakasini baholash shakllari. Imtihon va testlar: Grammatik, orfografik va yozma nutqni baholash uchun yozma topshiriqlarni o'z ichiga oladi, Insho va referatlar esa mustaqil yozma ishlarni baholash ga yordam beradi. Portfoliolar- keng qo'llanilmoqda unda o'quvchining yozma ishlar to'plamini tahlil qilish mumkin. Auto- va peer-assessment- o'z-o'zini va sinfdoshlarini baholash usullari.

Orfografiya va to'g'ri yozishni rivojlantirish. Orfografik qoidalarning o'qitilishi integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi, yozma mashqlar orqali mustahkamlanadi. Xatolarni aniqlash va tuzatish faoliyati yozuv malakasini oshirishda eng muhim o'rin tutadi.

Interaktiv dasturlar va o‘yinlar yordamida to‘g‘ri yozishni o‘rgatish samaradorligi oshiriladi.

Yozuvni o‘rgatish til o‘rgatish jarayonining eng muhim va murakkab jihatlaridan biridir. Zamonaviy yozuvni o‘rgatish texnologiyalari o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, orfografik va grammatik qoidalarga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. CEFR talablari yozuv malakasining bosqichma-bosqich rivojlanishini aniq belgilab beradi va o‘qituvchilarga baholashda yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning yozma nutqini yanada mukammallashtirishga, ularning tilni samarali va to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, yozuvni o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar, metodik yondashuvlar va CEFR talablari asosida olib boriladigan baholash tizimi til o‘rganishda muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Nazorat savollari:

1. Yozuvni o‘rgatishning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Yozma nutqni o‘rgatish texnologiyasi qanday bosqichlardan tashkil topadi?
3. Ta’limning turli bosqichlarida yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda qanday metodlar qo‘llaniladi?
4. Orfografiya va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qanday yondashuvlar samarali hisoblanadi?
5. CEFR standartlari yozuv malakasiga qanday talablar qo‘yadi?
6. Yozuvni o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar qanday rol o‘ynaydi?
7. Yozma nutqni baholashda qaysi mezonlar va vositalar ishlatiladi?
8. Yozuv jarayonida xatoliklarni aniqlash va tuzatish uchun qanday metodlar qo‘llanadi?
9. Yozma nutqni rivojlantirish uchun qanday mashqlar va topshiriqlar samarali hisoblanadi?
10. Yozuvni o‘rgatishda mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini baholashning ahamiyati nimada?

XII. O‘quv jarayonida mustaqil ta’limni va darsdan tashqari ishlarni tashkil etish texnologiyalari

Reja:

1) Mustaqil ta’limni turlari. Mustaqil ta’limni nazorat qilish xususiyatlari.

2) Mustaqil ta’limning turli bosqichlarida tayyorlash va o‘tkazish texnologiyalari.

3) Chet til darsi bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni tashkillashtirish va rejalashtirish tamoyillari.

4) Ta’limning turli bosqichlarida chet til bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni tayyorlash va o‘tkazish texnologiyalari.

Tayanch so‘zlar: darsdan tashqari faoliyat, til muhitini yaratish, muloqot kompetensiyasi, interfaol usullar, til klubi, ijodiy loyihalar, madaniyatlararo muloqot, o‘quv motivatsiyasi, rivojlantiruvchi o‘yinlar, mustaqil o‘rganish.

1. Mustaqil ta’lim turlari. Mustaqil ta’limni nazorat qilish xususiyatlari.

Bugungi ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim va darsdan tashqari ishlar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Ularning samarali tashkil etilishi o‘quvchilarning shaxsiy faolligini oshiradi, o‘rganish jarayonida mas’uliyatni va mustaqillikni rivojlantiradi. Shu sababli, pedagogik jarayonda mustaqil ta’lim va darsdan tashqari ishlarga zamonaviy texnologiyalar va metodik yondashuvlar tatbiq etish katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. **Mustaqil ta’lim** — bu o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish, bilimlarni chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash va shaxsiy intellektual salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Bu faoliyat, bir tomondan, o‘quv dasturining tabiiy davomchisi bo‘lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ta’lim oluvchining individual ehtiyojlari va qiziqishlari asosida shakllanadi. Mustaqil ta’lim zamonaviy o‘quvchilarning faol, mas’uliyatli va kompetent shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim bir necha turga bo'linadi, ular o'quvchining faollik darajasi, erkinlik darajasi va bilim manbalaridan foydalanish shakliga qarab farqlanadi:

1. **Rejalashtirilgan mustaqil ta'lim** — bu turdagi ta'lim o'qituvchi tomonidan aniq maqsad, mavzu, muddat va bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar rejalashtirilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quv darsturida belgilangan bo'lib, barcha fanlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqlar belgilanadi. Bunday ta'lim turi o'quv jarayoniga integratsiyalashgan holda olib boriladi va uni muvofiqlashtirish o'qituvchining pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv, ayniqsa, akademik fanlarni chuqur o'zlashtirishda samarali hisoblanadi.

2. **Erkin mustaqil ta'lim** — bu o'quvchi tomonidan o'zining qiziqishlari, ehtiyojlari va kasbiy rivojlanish rejalari asosida amalga oshiriladi. Bu turdagi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni aks ettiradi hamda o'quvchining o'zini anglash va tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. **Axborot-ma'lumotli mustaqil ta'lim** — bu turda o'quvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan (internet, kutubxonalar, multimedia platformalar) foydalanib, kerakli bilimlarni mustaqil ravishda izlaydi va tahlil qiladi. Bu tur, ayniqsa, axborot olish tezligi va ko'lamining muhim bo'lgan zamonaviy davrda alohida ahamiyat kasb etadi.

4. **Amaliy mustaqil ta'lim** — o'quvchi laboratoriya ishlari, loyihalar, amaliyotlar yoki mustaqil tadqiqotlar orqali o'zlashtirgan nazariy bilimlarini real faoliyatda sinab ko'radi. Bu usul kasb-hunar ta'limida, texnik yo'nalishlarda va ESP (English for Specific Purposes) darslarida keng qo'llaniladi.

5. **Innovatsion mustaqil ta'lim** — bu turdagi ta'limda zamonaviy raqamli vositalar (mobil ilovalar, LMS platformalari, interaktiv dasturlar) yordamida bilimlar mustaqil ravishda egallanadi. O'quvchi o'z o'quv trayektoriyasini mustaqil ravishda belgilaydi, resurslarni o'zi tanlaydi, va o'z bilim darajasini o'zi baholaydi. Bu model zamonaviy raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi turlar o'zaro bog'liq bo'lib, ko'p hollarda ular bir-birini to'ldiradi va integratsiyalashgan shaklda tatbiq etiladi. Mustaqil

ta'limning turli shakllari o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, yosh xususiyatlari, fanga bo'lgan qiziqishi va o'zlashtirish darajasiga qarab tanlanadi.

Mustaqil ta'limni nazorat qilish xususiyatlari. Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda uning sifatini nazorat qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Nazorat — bu faqat baho qo'yish emas, balki ta'lim jarayonini monitoring qilish, rivojlanish dinamikasini aniqlash, muammolarni yuzaga chiqarish va ularni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish vositasidir.

Monitoring va baholash mezonlarining aniq belgilanishi — bu mustaqil ta'limda oraliq va yakuniy baholashni tashkil etishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarga aniq va tushunarli mezonlar taqdim etilishi ularning faoliyatini yo'naltirish va rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Oraliq va yakuniy baholash tizimi — mustaqil ta'limda o'quvchining faoliyati bosqichma-bosqich nazorat qilinadi. Oraliq baholash orqali o'zlashtirish darajasi aniqlanadi, yakuniy baholash esa umumiy natijani tahlil qiladi.

Reflektiv yondashuv — bu yondashuv o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, hamda keyingi ta'lim bosqichlari uchun individual strategiya ishlab chiqishini nazarda tutadi. D. Kolbning tajriba asosidagi o'qitish modeli (Experiential Learning Theory) refleksiya orqali o'rganishni samaraliroq deb hisoblaydi.⁶⁵

Portfolio yuritish — o'quvchining mustaqil ishlari, erishgan natijalari, reflektiv yozuvlari, topshiriqlar va baholarini o'z ichiga olgan hujjat to'plami orqali o'zlashtirish darajasi tizimli tarzda kuzatib boriladi. Portfolio nafaqat nazorat, balki o'quvchining o'ziga baho berish vositasi hamdir. Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim o'quvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun turli shakllar va texnologiyalarni mos ravishda qo'llash hamda sifatli monitoring va baholash tizimini joriy etish lozim. Bu jarayon nafaqat o'quvchining bilimni oshiradi, balki uni mustaqil, tanqidiy fikrlovchi va faol shaxs sifatida shakllantiradi.

⁶⁵ Kolb D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. 1984.

2. Mustaqil ta'limning turli bosqichlarida tayyorlash va o'tkazish texnologiyalari.

Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ 2909-sonli, 2017-yil 11-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillar o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 29 oktabrdagi PF 6097 sonli Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, ushbu konsepsiyaga ko‘ra 2030-fyilgacha O‘zbekiston Respublikasining 85% OTM lari ECTS kredit modul tizimiga bosqichma-bosqich o‘tishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2020-2021 o‘quv yilida 33 dan ortiq OTMlarida kredit-modul tizimi joriy qilindi. Shuningdek, 2021-yil 6-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga va xalqimizga qilgan Murojaatnomasida 2021-yilda chet tillari fanlarini o‘qitish ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilandi. Shuningdek, 2021-yil 6-maydagi chet tillar o‘qitish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli [3] va ushbu qarorga muvofiq, PQ-312 sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida xorijiy tillarni o‘rgatishning zamonaviy tendensiyalari asosida yangi tizim yo‘lga qo‘yildi. Mazkur qarorlar mamlakatimizda chet tillar shu jumladan, ingliz tilini o‘qitish tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ijobiy natijalarga erishishni ta’minlaydi. Bugungi kundagi oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan talabalarni o‘zlashtirayotgan fanni chuqur bilishi va zamonaviy bozor talablariga javob beruvchi aqobatbardosh mutaxassis bo‘lishi uchun zaruriy bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantira olishi, qolaversa, ularda kompetensiyalarni rivojlantirishda kelgusida Pedagog olim B. Muqimovning tadqiqot ishi o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda darslarda o‘quvchilarning

ogʻzaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Zero, maʼnaviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish oʻz oʻzidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil fikrlay olmaydigan oʻquvchi ijodkor boʻla olmaydi, mustaqil faoliyat yuritilmaydi. Mustaqil taʼlimni tashkil etish jarayonini faollashtirish masalasini pedagog olimlarning aksariyat qismi umumiy muammo sifatida qarashlari mavjud boʻlib, bu boradagi ishlarining bir qismida talabalarning mustaqil taʼlim olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtai nazaridan yondashish koʻzga tashlanadi. Mustaqil taʼlim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud boʻlishi ham talab etiladi. Mustaqil taʼlim jarayonida oʻquvchi yoki talabaning erkin faoliyat olib borishi natijasida ushbu faoliyatning samaradorligi yuqori boʻlishini alohida isbotlash shart emas. Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-oʻqitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi taʼsir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir. Mustaqil ish, bir tomondan, talaba bajarishi lozim boʻlgan vazifani, uning faoliyatining obʻektini, ikkinchi tomondan esa – xotira, tafakkur, ijodiy tasavvur tegishli faoliyatining namoyon boʻlish shaklini oʻzida namoyon etadi, bu talabaning yangi bilimning olishiga yoki olingan bilim va koʻnikmalarni amal qilish sohasining chuqurlashuviga va kengayishiga yohud muayyan koʻnikmalarning shakllanishiga va oʻzlashtirish usullarining ishlab chiqilishiga olib keladi.

Oʻquv jarayonida mustaqil ishning ulushi sinfdan sinfga ortib boradi: boshlangʻich sinflarda unga oʻquv vaqtining 20 foizidan kami, oʻrta sinflarda 50 foizigachasi, katta sinflarda esa 70 foizigachasi ajratiladi. Mustaqil ishni tashkil qilish tegishli shart-sharoitlarni: didaktik qoʻllanmalar (kichik va oʻrta sinf oʻquvchilari uchun ish daftarlari; oʻqish kitobi, maʼlumotnomalar, lugʻatlar, ensiklopediyalar – katta sinf oʻquvchilari uchun), ixtisoslashgan xonalar (katta va kichik guruhlar ishlashi, individual ish va h.k. uchun), alohida dars jadvali (ikki va uch marta oshirilgan darslar, kutubxonada ishlash uchun boʻsh kun va h.k.) ni talab qiladi. Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari va AQSH da oʻquvchilarning mustaqilligi muammosi asosan oʻqitishni individuallashtirish doirasida hal etiladi. Asosiy eʼtibor frontal mashgʻulotlardan individual yoki guruhiy ishga qaratiladi. Amerikalik

va ingliz didaktlarining fikriga ko‘ra mustaqil ish (independent study, shuningdek, self directed learning, yoki self-instruction) – bu mustaqil o‘quv faoliyati, boshqalar tomonidan boshqariladigan o‘quv faoliyatining turlari esa uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri teskarisi hisoblanadi. Mustaqil ish hajmi turlicha (qisqa muddatli topshiriqni bajarishdan tortib to butun bir fakultativ kursni o‘zlashtirishgacha) bo‘lishi mumkin. Amaliyotda bilimlarni maktabdan tashqarida to‘ldirishning turli manbalaridan mustaqil foydalanish (muzeylarga, suratlar galereyalariga borish, uzoq safarlarni uyushtirish) qo‘llaniladi. Ayrim holatlarda o‘quvchilar “loyiha” topshirig‘ini mustaqil bajarish uchun 6 haftagacha muddatga darslardan ozod etiladi. Bunday ish natijasida hisobotlar tuzilib, pedagoglarga taqdim etiladi. Topshiriqlar tipologiyasi turli xil bo‘lib, lekin ularning barchasi o‘quvchilar tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadga erishilishini nazarda tutadi. Tanlab ishlash, yakka tartibda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatiladigan ish (directing study), tayyorgarlik, seminar (o‘quvchilar o‘z ishining natijalari bilan tanishtiriladi) va maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha “qidiruv” ishi (o‘z rejasi bo‘yicha ishlash) ustunlik qiladi.

“Mustaqil ta’lim”, “mustaqil faoliyat”, “mustaqil ish” tushunchalarining mohiyatini tushunishda o‘quv-tarbiya jarayonida bilishning mohiyati bilan hamohang sifatida so‘nggi yillarda qarashlar mavjud bo‘lib, bilishning ikkita funksiyasini aks ettiradi ya’ni: aks ettirish va haqiqatni o‘zgartirish bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqilmoqda. Shunga muvofiq o‘qitishda faoliyatning ikkita turi ajratiladi bular: takrorlovchi (reproduktiv) va o‘zgartiruvchi (produktiv). Tadqiqotchi B.Muqimov tomonidan faoliyat va bilimlar darajalarining soni turlicha ajratiladi. Ularning ayrimlari, yangi o‘quv materialini o‘qitishni tashkil etishda o‘quvchilar o‘zlashtirishning uchta bosqichidan o‘tadi deb hisoblagan holda, ularga muvofiq bilimlarning uchta darajasini ajratishni tavsiya etadi: - bilimlarni ongli ravishda qabul qilish va xotirada qayd etish darajasi; - bilimlarni o‘xshash sharoitlarda, namuna bo‘yicha qo‘llashga tayyorlik darajasi; - bilimlarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo‘llashga tayyorlik darajasi. Ananev va boshqalari esa, ularning fikriga ko‘ra, tashqi jihatdan quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladigan bilimlarning 4 ta darajasini ajratishni taklif qilishadi: – tushunchalarni (ob’ektni) bilib olish, aniqlash, o‘xshashlikni farqlash va aniqlash uchun harakatlar; – o‘quvchining

bilish faoliyatida ko‘pincha nutqiy qayta ifodalashda, bilish ob‘ektini hayolan eslashda, uni tiklashda namoyon bo‘ladigan o‘rganish ob‘ekti bilan bo‘lgan harakatlarni yoritish va tahlil qilishga doir o‘rganilayotgan material tarkibini anglab yetish bo‘yicha harakatlarda; – o‘zgargan vaziyatda bilish mumkin bo‘lgan ob‘ekt, mantiqiy bilish topshiriqlarini yechishda fanning shakllangan tushunchalari bilan mustaqil ishlash uchun material va topshiriqlar shartlarining xususiyatlari, belgilari tizimini variantlash bo‘yicha harakatlar; – bilimlarni faollashtirish, ichki his, vaziyatdan tezda chiqib ketish, bilimlarning keng doirasidan faqat faoliyatning yangi usularini tuzish, ijodiy vazifalarni hal etishning yangi original faraziyalari va rejalarini topish imkonini beruvchi bilimlarni tanlab olish va qo‘llash qobiliyati orqali o‘zlashtirilgan bilimlarni (faoliyat usullarini) topshiriqlarning yangi doirasini yechishga ko‘chirish bo‘yicha harakatlarda.

Mustaqil ta‘lim turlarining tasnifi G.A.Lofovskaya tomonidan eng to‘liq holda taqdim etilgan bo‘lib, u mustaqil ishlarni ta‘lim maqsadi bo‘yicha tabaqalagan holda namoyon etagan.⁶⁶

1) Ma‘ruza jarayonida ishlash. Ta‘lim maqsadini – ishlab chiqish, anglab yetish, aniqlash va tasniflash darajasida yangi bilimlarni o‘zlashtirish; mustaqil o‘zlashtirishlarni chuqurlashtirish yoki materialni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rish.

2) O‘quv adabiyoti bilan ishlash (shu jumladan ma‘ruzalarni konspekt qilish). Ta‘lim maqsadi – materialni o‘rganishni chuqurlashtirish, materialni o‘quv dasturida belgilangan darajada o‘zlashtirish, amaliy mashg‘ulotga tayyorgarlik, navbatdagi ma‘ruza materialini qabul qilishga tayyorgarlik.

3) Amaliy mashg‘ulotlarda ishlash. Ta‘lim maqsadi – bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish, ko‘nikmalarni shakllantirish.

4) Uy vazifasini bajarish. Ta‘lim maqsadi – ko‘nikmalarni mustahkamlash, nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, navbatdagi amaliy mashg‘ulotlarga, ma‘ruzadagi keyingi materialni qabul qilishga tayyorgarlik.

5) Nazorat ishiga, kollokviumga tayyorgarlik. Ta‘lim maqsadi – bilimlar va ko‘nikmalarni mustahkamlash, ularga mustaqil tuzatishlar kiritish.

⁶⁶ Лозовская Г.А. Организация самостоятельной работы студентов в процессе обучения. Москва: Просвещение. 1981

6) Nazorat ishini bajarish, kollokviumda javob berish. Ta'lim maqsadi o'zlashtirishni nazorat qilish va o'zini o'zi nazorat qilish.

7) Individual topshiriqlarni bajarish. Ta'lim maqsadi – bilimlar va ko'nikmalarni mustahkamlash. Bilimlarni sub'ektiv yangi vaziyatga ko'chirish, individual qobiliyatlarni rivojlantirish.

8) Kollokviumga, imtihonga tayyorgarlik. Ta'lim maqsadi – bilimlar va ko'nikmalarni mustahkamlash, ularga mustaqil tuzatishlar kiritish.

Rejalashtirish va tashkil etish. Mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun o'quvchilar uchun aniq va lo'nda o'rganish maqsadlari va vazifalari belgilanadi. O'quvchilarga o'z vaqtlarini rejalashtirishni o'rgatish va darsdan tashqari faoliyatlar uchun aniq yo'nalishlar berish muhimdir. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Onlayn platformalar, interaktiv dasturlar, videodarslar, elektron resurslar o'quvchilarga qaysi joyda bo'lishidan qat'i nazar, o'z ustida ishlash imkonini beradi.

Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini baholashga o'rgatiladi. Bu ularning kamchiliklarini aniqlash va to'g'rilashga yordam beradi. Reflektiv yondashuv o'quvchilarning o'z o'rganish jarayonini tahlil qilishga, samarali strategiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Muammoli va loyiha asosidagi o'rganish. Muammoli o'rganish (problem-based learning) va loyiha asosidagi o'rganish texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil izlanish va tadqiqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu usullar mustaqil ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

3. Chet til darsi bo'yicha darsdan tashqari ishlarni tashkillashtirish va rejalashtirish tamoyillari.

Chet til darsi bo'yicha darsdan tashqari ishlar o'zining maqsad va mazmuniga ko'ra turli shakllarda bo'ladi. Ular, asosan, uch ko'rinishda tashkil qilinadi, ya'ni ommaviy, guruhiy va yakkama-yakka o'tkaziladi. Maktab tajribasida uchalasi, o'z navbatida, yana kichik turlarga bo'linishi ma'lum.

Chet til o'qituvchisi ta'lim jarayonlarida darsdan tashqari ishlarning turlarini o'quvchilarga tavsiya qiladi, material tayyorlaydi va ularni o'tkazish metodikasini ishlab chiqadi (mavjud adabiyotdan keng

foydalanadi). Ayrim tadbirlarni u maktab, litsey, kollej va texnikum, oliy ta'lim dargohlari miqyosida muvofiqlashtiradi. Ish turlari bo'yicha o'quvchilarni safarbar etadi, guruhlarga ajratib vazifalarni belgilaydi, topshiriladigan yumushlarning ijrosini nazorat ostiga oladi. O'quvchilar qatnashadigan darsdan tashqari ishlarning uch toifasini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Ommaviy ishlar. Darsdan tashqari ommaviy ishlarda nisbatan ko'pchilik qatnashadi va kollaborativ yondashuv yaxshi samara beradi. Maktab, litsey va kollejda joriy etilgan ommaviy tadbirlar sirasiga quyidagilar kiradi: mavzuiy kecha, viktorina (savol-javob bahsi), tanlov, olimpiada, kinofilm namoyish qilish, chet til haftaligi (kuni), ko'rgazma, badiiy havaskorlik, turli xalq vakillarining farzandlari uchun do'stlik klubi va h.k. Badiiy kechalar darsdan keyin tashkillashtiriladigan ommaviy ishlar orasida mazmunan va shaklan turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Quyidagi kechalar pedagogik amaliyotda keng tarqalgan. Unutilmas sanalarga bag'ishlangan mavzuiy kechalar; atoqli kishilar bilan uchrashuv; chet tilda gapiruvchilar (yurtdoshlar, xorijiy talabalar, mehmonlar) bilan uchrashuv; maktab, litsey, kollejda bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot (to'garak a'zolari) kechalari; madaniyat, san'at, adabiyot, fan-texnika arboblari (yozuvchi, shoir, san'atkor, olim, kashfiyotchi) ijodiga bag'ishlangan kechalar; badiiy havaskorlik hisoboti; chet tilda o'rganilgan asarlar muhokamasiga doir kechalar shular jumlasidandir. Har qanday tashkil etilgan kecha aniq ssenariy asosida olib boriladi. Kechaning ssenariysi (dasturi)ga ko'ra tantanali, bayramona sharoitda chiqishlar rejalashtiriladi.

4. Ta'limning turli bosqichlarida chet til bo'yicha darsdan tashqari ishlarni tayyorlash va o'tkazish texnologiyalari.

Darsdan tashqari mustaqil ta'limga yo'naltirilgan kechani o'tkazish to'rt bosqichni o'z ichiga oladi:

1) dastlabki tayyorgarlik bosqichi - mavzu tanlanadi, o'tadigan vaqti va joyi belgilanadi, material to'planadi, ssenariy tuziladi va bezash ishlari qilinadi;

2) ijrochilar tayyorgarligi bosqichi - dasturga binoan kechaning ijro qismlari maqomida tayyorgarlik (repetitsiya), yakkama-yakka ishlash, kecha haqida e'lon tayyorlash kabilar;

3) kechani o‘tkazish bosqichi ssenariyga ko‘ra nomerlar ijro etiladi, kechaga yakun yasaladi, mukofotlar beriladi;

4) o‘quvchilar umumiy yig‘ilishida kecha yuzasidan muhokama o‘tkaziladi, devoriy matbuotda xabar beriladi, alohida o‘rnak ko‘rsatganlar ma‘muriyat rahmatnomasi va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlanadilar.

Ko‘rik tanlovlari chet tilda tashkil qilinadigan darsdan tashqari muhim ish turlaridandir. Unda yakka holda, guruh bolib va sinf bilan qatnashishga ruxsat beriladi. Ko‘rikning quyidagi turlari tavsiya etiladi:

1) darslikka kirgan, o‘g‘ish kitobidan yoki muallim tanlagan she‘r yoki parchani ifodali o‘qish;

2) o‘quv dasturi mavzusi bo‘yicha hikoya qilish;

3) lavha (kadr)ni so‘z bilan tasvirlash, diafilmga ovoz berish;

4) og‘zaki tarjima;

5) yozma tarjima;

6) chet tilida ashula aytish va boshqalar .

Mazkur tadbirni maktab miqyosida va maktablararo tashkil qilish mumkin. Hakamlar hay‘ati shaxsiy va guruhiy ijrochilik istedodlarini baholab, g‘olib o‘quvchi yoki sinf, guruhni taqdirlaydi.

Olimpiada shaklida o‘tkaziladigan ommaviy ish o‘quvchilarni kasbga yo naltiruvchi omillardan bo‘lib qolmasdan, chet tili o‘rganuvchilar uchun haqiqiy bilimlar kurash maydoniga aylanadi. Shahar/ tuman maorif bo‘limlarida saqlanadigan maxsus nizomga ko‘ra ushbu ta‘limiy tadbir o‘tkaziladi. Chet til olimpiadasi ishtirokchilariga qo‘yiladigan o‘quv talablari matbuotda e‘lon qilinadi. Odatda olimpiada sinf/maktab/litsey/kollej doirasida, viloyat va, nihoyat, so‘ngi bosqichda respublika miqyosida o‘tkaziladi. Olimpiada talablarini quyidagicha umumlashtirib ifodalash mumkin: chet til matnini tez va to‘g‘ri o‘qish; ravon talaffuz qilish; savolga tezkorlik bilan javob berish; tabiiy nutq tezligini namoyish etish; savolga berilgan javob mazmunining mavzuga mos tushishi; leksik, grammatik va talaffuzdagi kamchiliklar bor yoki yo‘qligi. J. Jalolov chet tilidan O‘zbekistonda (Olmaliq shahrida) 1974-yil ilk dafa respublika olimpiadasi o‘tkazilganligini takidlab, biror bir viloyatda har yili ushbu respublika ommaviy o‘quv tadbirini o‘tkazish odat tusiga kiritilgani haqida yozib qoldirgan.

Chet til olimpiadasi g'oliblari orasidan chet til oliy o'quv yurti talabasi bo'lish huquqini olgan va keyinchalik chet tilidan mutaxassis bo'lib yetishib chiqqanlar o'quvchilar ko'p. Olimpiada ishtirokchilariga kelgusida o'qishga maxsus tavsiyanoma berilishi kafolatlangan. Chet tili haftaligi yoki kuni katta tayyorgarlik bilan o'tkaziladigan ommaviy ish turlaridandir. Maktablarda „Haftalik“ o'quy yili mobaynida bir marta, belgilangan vaqtda o'tkaziladi. Haftalik oldidan uzoq muddat hozirlik ko'riladi: tashkiliy guruh tuziladi; muallimlar vazifalarni bo'lib olishadi: dastur yoziladi; maktab, litsey, kollej binosi (zal va koridorlar) bezaladi;

Guruhda olib boriladigan darsdan tashqari ishlar. Doimiy o'tkaziladigan guruhiy ishlar qatorida og'zaki nutq, o'qish, tarjima to'garaklari, chet ellik do'stlar bilan suhbat, xat yozishuv, ko'rgazmali qurollar yasash, drama, kino to'garaklari ishlaydi.

Og'zaki nutq to'garagi. Og'zaki nutq to'garagi o'quvchilarning chet tilida erkin, aniq va mantiqiy fikr bildirish, o'z fikrini og'zaki ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan darsdan tashqari mashg'ulot shaklidir. Bu to'garaklar o'quvchilarda chet tilida muloqot qilishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, nutqiy faollikni rivojlantiradi va kommunikativ kompetensiyani mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Maqsadi o'quvchilarning og'zaki nutq malakasini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish va mustahkamlash, ijtimoiy faol, o'z fikrini bema'lol ifodalovchi shaxsni shakllantirish. O'g'zaki nutq yoki Speaking to'garagining asosiy mashg'ulotlarining gapirishga undovchi quyidagi turlari keng tarqalgan: rasmlar bo'yicha gapirish, tayanch so'zlar asosida gapirish, berilgan mavzuda gapirish, suhbat, axborot berish, ma'ruza qilish kabilar.

O'quvchilarning chet tilidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish va tili o'rganilayotgan mamlakatlarga doir ma'lumotlarni to'plash to'garaklarning asosiy maqsadi sanaladi. O'g'zaki nutq to'garagi namunasida chet tili kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslanib, Writing, Listening to'garaklarini ham tashkil qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim va darsdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy talablaridan biri bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va ularning individual rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchi nafaqat tayyor ma'lumotni qabul qiladi, balki o'zi izlanadi,

ma'lumotlar bilan ishlash strategiyalarini shakllantiradi, vaqtni boshqarish, rejalashtirish va natija uchun javobgarlik kabi hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Darsdan tashqari ishlar — loyihalar, ilmiy izlanishlar, to'garaklar, amaliy seminarlar va tanlovlar — o'quvchilarga bilimni chuqurlashtirish, ijodiy fikrlashni kengaytirish va fanlararo integratsiyani amalga oshirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan, axborot-kommunikatsiya vositalari, interaktiv platformalar, multimodal materiallar va mustaqil o'rganishga mo'ljallangan elektron resurslardan foydalanish o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini sezilarli darajada jadallashtiradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining o'rganishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi, mustaqil fikr yuritishga undaydi va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini barqaror o'sishiga zamin yaratadi.

Nazorat savollari

1. Mustaqil ta'lim tushunchasi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati nima?
2. Mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun qanday texnologiyalar va metodik yondashuvlar qo'llaniladi?
3. Masofaviy ta'lim vositalari mustaqil ta'lim jarayonida qanday rol o'ynaydi?
4. O'z-o'zini baholash va refleksiya mustaqil ta'lim jarayonida nima uchun zarur?
5. Muammoli o'rganish va loyiha asosidagi o'rganish texnologiyalari qanday farq qiladi?
6. Darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda qanday asosiy usullar va faoliyat turlari mavjud?
7. To'garaklarning o'quv jarayonidagi o'rni qanday?
8. Ekskursiyalar va amaliy mashg'ulotlarning ta'limdagi ahamiyatini tushuntiring.
9. Raqamli o'yinlar va interaktiv resurslar darsdan tashqari ishlarni qanday samarali qiladi?
10. Mustaqil ta'lim va darsdan tashqari ishlarda baholash qanday usullar orqali amalga oshiriladi?

Glossary

1. **Uzluksiz ta'lim** – inson hayoti davomida bilim olishni izchil tashkil etuvchi tizim.
2. **Lingvistik kompetensiya** – tilni to'g'ri va samarali ishlata olish qobiliyati.
3. **Kommunikativ kompetensiya** – muloqot jarayonida samarali va maqsadga muvofiq til vositalarini qo'llash qobiliyati.
4. **Tinglab tushunish** – nutqni eshitib mazmunini anglash jarayoni.
5. **Gapirish ko'nikmasi** – fikrlarni og'zaki ifoda etish qobiliyati.
6. **O'qish ko'nikmasi** – yozma matnni tushunish va anglash qobiliyati.
7. **Yozish ko'nikmasi** – fikrlarni yozma shaklda to'g'ri ifoda etish qobiliyati.
8. **ESP (English for Specific Purposes)** – maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ingliz tili o'qitish yondoshuvi.
9. **Didaktik materiallar** – o'quv jarayonida foydalaniladigan o'quv vositalari.
10. **Interaktiv texnologiyalar** – o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi ta'lim usullari.
11. **Motivatsiya** – o'quvchini o'rganishga undovchi ichki va tashqi sabablar.
12. **Baholash** – o'quv natijalarini tekshirish va baholash jarayoni.
13. **Pedagogika** – ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganadigan fan.
14. **Metodika** – o'qitish usullarini o'rganish va qo'llash san'ati.
15. **Individual yondashuv** – har bir o'quvchining imkoniyatlariga moslashtirilgan ta'lim shakli.
16. **Kollektiv yondashuv** – o'quvchilarning jamoaviy ishlashi asosidagi ta'lim shakli.
17. **Dars rejasi** – o'quv jarayonini bosqichma-bosqich rejalashtirish.
18. **STEAM texnologiyalari** – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi asosida ta'lim.
19. **Lingvistik muhit** – til o'rganish uchun yaratilgan kommunikativ sharoit.
20. **Qayta aloqa (feedback)** – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi fikr almashinuvi.

21. **Ovoz (fonema)** – tilning eng kichik tovush birligi.
22. **Fonetik ta’lim** – talaffuzni o’rgatish texnologiyalari.
23. **O’quv motivatsiyasi** – o’quvchining o’qishga bo’lgan qiziqishi va intilishi.
24. **O’quv faoliyati** – o’quvchining bilim olish uchun bajaradigan amaliy ishlari.
25. **O’quv materiallari** – o’quvchilarga taqdim etiladigan matn, audio, video va boshqa vositalar.
26. **Til ko’nikmalari** – tinglash, gapirish, o’qish va yozish qobiliyatlari.
27. **O’quvchilararo muloqot** – o’quvchilar o’rtasida tilni amaliy qo’llash jarayoni.
28. **Pedagogik texnologiyalar** – ta’lim jarayonini samarali tashkil etish usullari.
29. **O’qituvchi metodikasi** – o’qituvchining o’quv jarayonini boshqarish usullari.
30. **Multimedia vositalari** – ta’limda audio, video va animatsiyalarni qo’llash.
31. **Til o’rganish strategiyalari** – o’quvchilarning til ko’nikmalarini rivojlantirish usullari.
32. **Leksikani o’rgatish texnologiyasi** – yangi so’zlarni o’rgatish usullari.
33. **Grammatika o’rgatish texnologiyasi** – grammatik qoidalarni o’rgatish usullari.
34. **Tinglab tushunish texnologiyasi** – eshitish orqali tilni o’rganish usullari.
35. **Talaffuzni o’rgatish** – to’g’ri talaffuzni shakllantirish usullari.
36. **O’quvchilarning individual yutuqlari** – har bir o’quvchining shaxsiy o’zgarishlari va muvaffaqiyatlari.
37. **O’quv muhitining diversifikatsiyasi** – turli xil o’quv vositalari va usullarini qo’llash.
38. **Ta’lim standartlari** – ta’lim sifatini belgilovchi me’yorlar.
39. **Bilingval ta’lim** – ikki tilli o’qitish tizimi.
40. **Lifelong learning** – umr bo’yi davom etadigan o’qish va o’zini rivojlantirish jarayoni (uzluksiz ta’limning inglizcha atamasi).
41. **Mustaqil ta’lim** — o’quvchining o’z bilim va ko’nikmalarini mustaqil ravishda egallash jarayoni.

42. **Masofaviy ta'lim** — o'quvchilarning masofadan turib, internet va boshqa texnologiyalar orqali o'rganish usuli.

43. **Refleksiya** — o'quvchilarning o'z o'rganish jarayonini tahlil qilib, natijalarni baholash va yaxshilash uchun qilgan fikr yuritishi.

44. **Muammoli o'rganish** — o'quvchilarni muayyan muammo yoki savolga yechim topishga yo'naltirgan o'rganish usuli.

45. **Loyiha asosidagi o'rganish** — o'quvchilarning mustaqil izlanishlari va ijodiy faoliyatlari asosida amalga oshiriladigan o'rganish usuli.

46. **Darsdan tashqari ishlar** — o'quvchilarning asosiy darslar tashqarisida bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bajaradigan faoliyatlari.

47. **To'garak** — ma'lum bir fan yoki qiziqishga oid ixtisoslashgan guruhdagi o'quvchilar guruhi.

48. **Ekskursiya** — ma'lum joyga tashrif buyurish orqali amaliy bilim va ko'nikmalarni oshirish faoliyati.

49. **Raqamli o'yinlar** — ta'lim jarayonida bilimlarni mustahkamlash uchun yaratilgan kompyuter yoki mobil qurilmalar yordamida o'ynaladigan o'yinlar.

50. **Portfolio** — o'quvchining ishlarini va muvaffaqiyatlarini to'plab saqlaydigan hujjatlar to'plami.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5052-son qarori, 2021-yil 6-aprel. <https://lex.uz/docs/5371825>

2. UNESCO. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century chaired by Jacques Delors. Paris: UNESCO Publishing.1996. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000109590>

3. “Milliy ta’lim dasturi” — O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2020-yildan boshlab amaliyotga joriy etilgan strategik hujjat.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ–5052-sonli qarori “Chet tillarni o‘rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5371825>;

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2021–2023-yillarda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahriri), 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637-son. <https://lex.uz/docs/5013007>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy axborotlari asosida. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5841063>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/5841063>

9. Jalolov J. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti. 2018

10. Yoqubov A. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi. 2020.

11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari (darslik). Toshkent. 2023

12. Mahmudov N. Tilshunoslik va til o'rgatish metodikasi asoslari. Toshkent: Fan. 2020.

13. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona. 2007.

14. Пассов Е.И. Коммуникативное обучение иностранному языку: лингводидактические и методические основы. — М.: Просвещение, 1991.

15. Hutchinson T., Waters, A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge: Cambridge University Press. 1987. pp. 6–10.

16. Dudley-Evans T., St John, M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge: Cambridge University Press. 1998. pp. 20–21.

17. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. 1978

18. Wilkins D.A. Notional Syllabuses: A Taxonomy and its Relevance to Foreign Language Curriculum Development. Oxford: Oxford University Press. 1976.

19. Coyle D., Hood P., Marsh, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press. 2010.

20. Bax S. CALL—Past, Present and Future. System, 31(1), 2003. pp 13–28. doi:10.1016/S0346-251X(02)00071-4

21. Palmer R. The Courage to Teach: Exploring the Inner Landscape of a Teacher's Life. Jossey-Bass Publishers. 1998.

22. Hymes D. On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected Readings. Harmondsworth: Penguin. 1972. pp.269–293

23. Pawlak M., Mystkowska-Wiertelak A., Waniek-Klimczak E. Teaching English Grammar: What to Teach and How to Teach It. Springer. 2019.

24. Richards J.C., Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press. 2014

25. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education. 2007

26. Nunan D. Practical English Language Teaching. McGraw-Hill. 2003.
27. Tomlinson B. Developing Materials for Language Teaching. Bloomsbury Academic. 2013.
28. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman. 2007.
29. Celce-Murcia M. Teaching English as a Second or Foreign Language. Heinle & Heinle. 2001.
30. Council of Europe Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). Cambridge University Press. 2001.
31. Scrivener J. Learning Teaching. Macmillan Education. .
32. Ur P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge University Press. 1996.
33. Larsen-Freeman, D. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press. 2000.
34. Richards J.C., Schmidt, R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. Routledge. 2010.

MUNDARIJA		Bet
Soʻz boshi		3
M 1	Uzluksiz ta'lim tizimida (umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) chet til oʻqitishning nazariy asoslari	4
M 2	Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni oʻqitish vositalari va mashqlar tizimi	13
M 3	Chet tillarini oʻqitish: yondashuvlar, texnologiyalar, metod va usullar	21
M 4	Zamonaviy chet til oʻquv jarayonini tashkil etish va dars kuzatish texnologiyalari	37
M 5	Talaffuzni oʻrgatish texnologiyalari	48
M 6	Leksikani oʻrgatish texnologiyalari	57
M 7	Grammatikani oʻrgatish texnologiyalari	69
M 8	Tinglab tushunishni oʻrgatish texnologiyalari	81
M 9	Gapirishni oʻrgatish texnologiyalari	88
M10	Oʻqishni oʻrgatish texnologiyalari	97
M11	Yozuvni oʻrgatish texnologiyalari	112
M12	Oʻquv jarayonida mustaqil taʼlimni va darsdan tashqari ishlarni tashkil etish texnologiyalari	120
Glossariy		132
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati		135

N.M. Quchqorova, X.M. Mamataliyeva

TIL O‘QITISH METODIKASI VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

O‘quv qo‘llanma

O‘quv qo‘llanma mualliflarning tahririda taqdim etilgan.

O‘quv qo‘llanmada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlarning aniqligiga hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik mualliflarning zimmasidadir.